

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**Nigorabonu Suvanova**

**FRAZEOLOGIYANING DOLZARB  
MASALALARI  
(fransuz tili frazeologiyasi)**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi universitetlarning magistratura 70230101 - Lingvistika (fransuz tili) mutaxassisligi bo'yicha 1-kurs talabalariga o'quv qo'llanma sifatida nashr etishga ruxsat berilgan (2024-yil ..... , .....-sonli buyruq.  
Ro'yxatga olish raqami .....).*

**"Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti  
Samarqand - 2024**

**UDK 811.512.133 A 15**

N.N.Suvonova. Frazeologiyaning dolzARB masalalari (fransuz tili frazeologiyasi). O'quv qo'llanma. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2024. – 148 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada fransuz frazeologiyasining nazariy va metodologik aspektlari, frazeologik birlik va so'z o'rtasidagi munosabat, frazeologik birliklarga xos struktur xususiyatlar va ularni leksik, grammatik hamda semantik jihatdan tahlil qilish tamoyillari, paremiologik birliklarga xos lingvomadaniy xususiyatlar borasida ilmiy-nazariy tushunchalar berilgan bo'lib, u 70230101 - *Lingvistika (fransuz tili)* mutaxassisligining 1-kurs magistrantlariga hamda frazeologiya fanining dolzARB masalalariga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

В данном учебном пособии излагаются научно-теоретические концепции о теоретико - методологических аспектах французской фразеологии, взаимосвязи между фразеологизмом и словом, структурных особенностях фразеологических единиц и принципах их лексического, грамматического и семантического анализа, лингвокультурных особенностях паремиологических единиц. Данное учебное пособие предназначено для магистрантов 1-курса по специальности 70230101-Лингвистика (французский язык) магистратуры и для интересующихся актуальными вопросами в области фразеологии.

This textbook examines the theoretical and methodological aspects of French phraseology, the relationship between phraseological units and words, the structural features of phraseological units and the principles of their lexical, grammatical and semantic analysis, and presents the scientific-theoretical linguocultural features of paremiological units. This textbook is intended for 1st year master's students of specialty 70230101 - Linguistics (French) and for those who are interested in current issues of phraseology.

**Mas'ul muharrir:**

*Safarova Umida* – filologiya fanlari doktori, dotsent.

**Taqrizchilar:**

*Qo'chqorova Sadoqat* – filolgiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
*Mardiiev Begali* – filolgiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**ISBN 978-9943-6998-0-9**

© Nigorabonusuvanova, 2024

© "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2024

## SO'Z BOSHI

Mazkur o'quv qo'llanma magistraturaning 70230101 - *Lingvistika (fransuz tili)* mutaxassisligi, 1-kurs magistrantlari uchun mo'ljallangan "Frazeologiyaning dolzarb masalalari (fransuz tili)" fani dasturi asosida yaratildi. O'quv qo'llanmaning tarkibiy tuzilishi 2 xil modul asosida shakllangan bo'lib, unda birinchi modul "*Fransuz frazeologiyasining nazariy va metodologik aspektlari*" va ikkinchi modul "*Fransuz frazeologiyasining semantik xususiyatlari*" sarlavhasi ostida berilgan mavzular doirasida tegishli ilmiy-nazariy tushunchalar berib o'tilgan.

Ushbu fan doirasida tanlangan 9ta mavzu fanning namunaviy dasturiga asoslangan bo'lib, ular fanning ma'ruza va amaliy mashg'uloti hamda mustaqil ta'lim shakllariga mos materiallar va topshiriqlar orqali boyitilgan. Xususan, har bir mavzu 1)ma'ruza matni, 2)glossariy, 3) ma'ruza yuzasidan savollar, 4) amaliy mashg'ulot mashqlari va 5) mustaqil ta'lim topshiriqlari tartibida birdek rasmiylashtirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma *Lingvistika* mutaxassisligi bo'yicha tahsil oladigan magistrantlarning *Frazeologiya* fani va uning tilshunoslikda tutgan o'rni, uaning o'rganish obyektlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, tahlil metodlari hamda hozirgi zamonaviy lingvistik tendensiyalarning *Frazeologiya* faniga bo'lgan ta'siri kabi lisoniy hodisalardan xabardor bo'lishini inobatga olgan holda yaratildi. Shuningdek, o'quv qo'llanma turli yillar davomida 1-kurslarda ushbu fan doirasida o'qilgan ma'ruzalardan, olib borilgan kuzatishlar jarayonidagi ilmiy-uslubiy tajribalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi.

O'quv qo'llanmani nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish, mukammallashtirishga oid fikr va mulohazalarni muallif minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

**MAVZU - 1****Ma'ruza matni****FRAZEOLOGIYA FANI VA UNING O'RGANISH OBYEKTI  
FRAZEOLOGIYANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**

**Darsning maqsadi:** Talabalarda “Frazeologiya” fani va uning tilshunoslikda tutgan o'rni, shuningdek, frazeologik birliklarni tasniflash tamoyillari, frazeologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi hamda funksional jihatdan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Reja:**

1. Frazeologiya tilshunoslikda maxsus fan sifatida.
2. Sh.Balli va uning frazeologiya faniga qo'shgan hissasi.
3. Frazeologik birliklarni tasniflash tamoyillari va ularning boshqa fanlar bilan aloqasi.

**Tayanch iboralar:** sistem-sath, til sistemasi, frazeologik sistema, leksik sistema, leksik-semantik sath, frazeologik birliklar (FBlar), bir unsurli FBlar, frazemalar, qisman predikativ FBlar, noperediktiv FBlar, predikativ FBlar, tasniflash tamoyillari.

**1. Frazeologiya tilshunoslikda maxsus fan sifatida**

*Frazeologiya* so'zi grekcha *phrasis* so'zidan olingan bo'lib, *ibora*, *nutq qurilmasi*, degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ikki xil ma'noni ifodalaydi. Birinchisi - tilshunoslikning turg'un birikmalar, ya'ni frazeologik birliklarni o'rganuvchi ma'lum bir qatlami, ikkinchisi esa - frazeologik birliklar majmuini ifodalash uchun xizmat qiluvchi atama.

*Frazeologik birlik* (FB) atamasi tilshunoslikka birinchi bo'lib V.V.Vinogradov tomonidan kiritilgan<sup>1</sup>. *Frazeologik birlik* va *frazeologiya* atamalari bilan bir qatorda, *idioma* va *idiomatika* atamasi ham qo'llanadi. Biroq fransuz frazeologiyasida *frazeologik birlik* atamasi o'rniiga *locution* atamasi ishlataladi. Ushbu atamadan tashqari, fransuz frazeologiyasida *locution figée*, *expression*

<sup>1</sup> Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII- XIX веков. – М., 1982. – С.6, 83-84

*idiomatique, idiotisme* kabi atamalar ham keng tarzda qo'llanadi. Shuningdek, *locution phraséologique* atamasi ham mavjud bo'lib, u fransuz frazeologiyasiga Sh.Balli tomonidan kiritilgan, biroq u ham keng tarzda qo'llanilish xususiyatiga ega emas. Frazeologiyaning o'rghanish obyektlarini FBlar, ya'ni turg'un so'z birikmalar, iboralar, nutqdagi barcha frazeologizmlar tashkil etadi.

Leksik-semantik sath tilning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki katta bo'limini o'z ichiga oladi. Bular *leksikologiya* (grekcha *lexikos* – so'zga oid va *logos* – o'rghanish) va *semasiologiya*. O'rGANADIGAN materialiga ko'ra leksikologiya ikkiga bo'linadi: *xususiy leksikologiya*, ya'ni u yoki bu til leksikologiyasi (masalan, fransuz, o'zbek, rus, nemis va boshqa tillar leksikologiyasi) va *umumiy leksikologiya*. Umumiy leksikologiya barcha tillarga tegishli muammolarni o'z ichiga oladi va turli xil til materiallariga e'tibor qaratadi. *Umumiy va xususiy leksikologiya* bilan bir qatorda *qiyosiy* va *solishtirma (kontrastiv)* leksikologiya ham mavjud. *Qiyosiy leksikologiya* birinchi navbatda qardosh tillarning o'xhash tom'onlarini, *solishtirma leksikologiya* esa nafaqat qardosh tillar, balki qardosh bo'limgan tillardagi o'xhash va noo'xhash tom'onlarni o'rGANADI.

So'zning leksik ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan keng muammolar ko'lamenti *semasiologiya* predmeti o'z ichiga oladi. «*Semasiologiya*» atamasi grekcha *semacia* – *ma'no* va *logos* – o'rghanish so'zlaridan tashkil topgan. Ba'zi hollarda grekcha *semaino* – *ifodabayman* degan ma'noni anglatadi. «*Semasiologiya*» atamasiga sinonim sifatida «*semantika*» atamasi ham ishlatiladi. So'z ma'nosiz umuman mavjud bo'lmasligi kabi *leksikologiya* va *semantika* ham bir-birlarisiz mavjud bo'lmaydi. Tildagi frazeologik sistema tushunchasini ochib berish obyektning o'zini, ya'ni frazeologiyani tasvirlash jarayoni bilan bog'liq. Bunda undagi birliklar tarkibi, ular o'rtasidagi til va nutq sistemasini qamrab olgan aloqa va munosabatlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, sintaktik erkin so'z birikmalar fransuz tilidagi mustaqil so'z turkumlarining bir qancha turlarini to'ldirishning muhim manbai hamda til leksik tarkibini boyitishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanar ekan, erkin so'z *birikmasi* bilan *frazeologik birlik* o'rtasidagi farqni anglab yetish lozimdir. Negaki, ular bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Zero, erkin so'z birikmalar

turg'un so'z birikmalardan, ya'ni frazeologik birliklardan o'z tarkibidagi mavjud so'zlarning so'zma-so'z leksik ma'nosi bilan ahamiyatli sanalsa, turg'un so'z birikmalar esa, tarkibidagi mavjud so'zlarning umumiy yig'indisi orqali ifodalanayotgan leksik ma'nosi bilan ahamiyatlidir. Yuqoridagilarga asosan, FBlardagi farqli belgilar sifatida *idiomatiklik*, *turg'unlik*, *obrazlilik* va boshqa xususiyatlarni ko'rsatish mumkin.

FBlar so'z va mustaqil so'z birikmalaridan quyidagi xususiyatlari orqali o'zaro farqlanadi:

1) FBlar so'zdan farqli o'laroq ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va tarkibida bittadan kam bo'limgan mustaqil so'z mavjud bo'lgan tilga xos alohida ko'rinishli murakkab birlikdir;

2) FBlar mustaqil so'z birikmalaridan farq qilgan holda o'zlaridagi turg'unlik darajasining turlicha ekanligiga qaramasdan, o'z leksik tarkiblarining turg'unligi bilan, so'z birikmalari esa o'z elementlari o'rtasidagi sintaktik aloqaning erkinligi bilan tavsiflanadi;

3) FBlarning eng muhim va xususiyatli struktur belgilaridan biri ularning alohida so'zlardan yasalganligi bo'lib, bunday xususiyat fransuz tilidagi FBlarni so'zlardan farqlar ekan, biroq u muayyan leksik tarkibga va ma'no birligiga ega bo'lgannofrazeologik birliklardan farqlay olmaydi;

4) FBlar gapiruvchi nutqida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ular tilda oldindan tayyor holatda bo'lsa, so'z birikmalar esa nutq jarayonida to'g'ridan-to'g'ri hosil bo'ladi;

5) So'z birikmalar tarkibidagi elementlar gap ichida alohida-alohida gap bo'laklari bo'la olsa, FBlar tarkibidagi elementlar o'rtasidagi grammatic munosabatlar esa faqat shu birikma ichidagina amal qila oladi yohud FB bir butun birlik sifatida gap ichida faqat bir gap bo'lagi o'rnila kelishi mumkin.

## **2.Sh.Balli va uning frazeologiya faniga qo'shgan hissasi**

Sh. Ballining frazeologiya va FBlar xususida ilgari surgan g'oyasidan so'ng fransuz tilshunosligida tadqiqotchilar o'rtasida munozara va mushohadalarning avj olishi kutilgan edi. Biroq, fransuz frazeologiyasi tarkibi xilma-xil va ancha boy bo'lishiga qaramasdan, frazeologiyaning nazariy asoslarini o'rganishga hech

qaysi bir tilshunos qo'l urmadi. Bu holat fransuz tilshunosligida FBlar mohiyatini aniq va yagona tarzda tushunish mavjud emasligi bilan izohlanadi. Fransuz tilshunoslari o'rtasida frazeologiyaning obyekti hisoblanmish FBlar turlicha talqin etilgan. Xususan, mashhur fransuzcha frazeologik lug'atlar muallifi Moris Ra boshqa tadqiqotchilar singari FBlarni *expression, façon de parler* kabi turli atamalar bilan nomlab kelgan. Tadqiqotchilar o'rtasidagi bunday nomutanosiblik, ya'ni FBlarni bunday tarzda keng talqin etilishi ularning yakdil bir qarorga jipslashmaganidan va FBlarning nazariy asoslarini ochib bera olmaganligidan, qolaversa, *frazeologik birliklar* bilan *nofrazeologik birliklar* o'rtasidagi farqni anglab olish mumkin emasligidan dalolat beradi.

Binobarin, Moris Raning frazeologik lug'atiga nazar tashlasak, u yerda metaforik ma'noli yakka so'zlarning ham frazeologik birlik tariqasida berilishi juda ajablanarlidir. Masalan, *bernicue, un micmac, une poire* so'zlari shular jumlasidandir<sup>1</sup>. Vaholanki, J.Maruzo o'zining lingvistik terminlar lug'atida *locution* atamasini ikki xil talqin etadi<sup>2</sup>. Birinchi holatda ushbu atama keng ma'no kasb etib, *ibora* so'zining sinonimi sifatida qo'llanilsa, tor ma'no kasb etganda esa *bir necha so'zlar yig'indisi* ma'nosini anglatadi.

FBlarni frazeologiyaning obyekti sifatida ancha aniqroq va batafsil talqin etilishi P. Giro asarlarida o'z aksini topgan : *expression constituée par l'union de plusieurs mots formant une unité syntaxique et lexicologique*<sup>3</sup>. U bu yerda quyidagi xususiyatlarni FBlar uchun xarakterli holat deb ta'riflaydi :

1. Shakl va ma'no birligi – *unité de forme et de sens* ;
2. Grammatik va leksik normalardan chekinish - *écart de la norme grammaticale ou lexicale* ;
3. Maxsus metaforik ma'no - *valeurs métaphoriques particulières*.

Bunda birinchi va ikkinchi xususiyat FBlarga xos bo'lishi mumkin. Biroq, uchinchi xususiyat barcha FBlarga xosligi noo'rindir. Negaki, hatto ko'pchilik FBlar o'zlarida metaforik ma'noni aks ettirmasligi ham mumkin. Masalan, *bel et bien, peu ou prou* iboralari shular jumlasidandir. P.Giro keltirgan ikkinchi xususiyat, ya'ni grammatik va leksik normalardan chekinish xususiyati FBlarning

<sup>1</sup> Rat M. Dictionnaire des locutions françaises. – Paris , 1957. -470 p.

<sup>2</sup> Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. Пер. с фр. Н.Д. Андреева; под ред. А.А Реформатского ; предисл. В.А. Звегинцева. – Изд. 2-е, испр. – М. : УРСС, 2004. – С. 278 – 436 с.

<sup>3</sup> Giraud P. Les locutions françaises. – Paris , 1961. –P 349. / -660 p.

aynan o'ziga xosligini namoyon etuvchi holatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Frazeologiya va FBlar borasida Sh. Balli ilgari surgan g'oya fransuz tilshunoslarining tadqiqot obyektiga asos bo'la olmadi. Afsuski, Sh. Balli g'oyasini rus tilshunoslari davom ettirdilar. So'nggi vaqtarda tilshunoslikda matn va lug'atlar (alohida janr matni sifatida) lingvistikasining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda va matnning ichki lingvistik tipologiyasini har tomonlama o'rganish imkoniyatlari tug'ilmoqda.

Hozirgi zamon umumiy, qiyosiy-tipologik tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri - so'zning lingvistik statusi hisoblangan frazeologik birliklar muammosi alohida aspektni tashkil etadi. Aloida tillar, jumladan, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarining frazeologik sistemasini yoritish borasida anchagina tajriba orttirilgan. Biroq, til sistemalar majmui ekan, u har qanday sistema o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi yoki tilning boshqa sistemalari bilan qarama-qarshi o'rganilishini ham taqozo etadi. Bu holat frazeologik sistemani leksik sistema bilan qarama - qarshi qo'yilishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, u frazeologiya leksik sistemaga kiradimi, (shu jumladan, leksik - semantik sistemaga) yoki u tilning alohida sistemasini tashkil etadimi, degan munozarali muammolarni hal etishda aynan *leksema* va *FB* o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydigan zaruriy material sifatida xizmat qiladi.

Frazeologiyaning hozirgi holati insonning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi FBlarning genetik manbalarini qidirish bilan tavsiflanadi. Bu holat boshqa bir tomondan, ma'lum tillar guruhi va alohida konkret tillar frazeologiyasi shakllanishining ijtimoiytarixiy va milliy bog'liqligi jihatidan tadqiq qilinadi. Shuni qayd qilish lozimki, frazeologiyaning shakllanishi va rivojlanishidagi ekstralolingvistik omillarga bo'lgan qiziqish kun sayin oshib borayotganligiga qaramasdan, uni tarixiy manbalarga nisbatan diaxronik asosda, tarixiy-ijtimoiy nuqtayi nazardan o'rganishga kam e'tibor qaratilmoqda. Bu ayniqlsa, rus frazeologiyasi va bir qator g'arbiy Yevropa tillari frazeologiyasidan ancha ortda qolgan fransuz frazeologiyasiga tegishlidir. Haqiqatan ham, A.G. Nazaryan<sup>1</sup> bu borada ancha jiddiy kamchiliklarning o'rnini to'ldirdi va uning

---

<sup>1</sup> Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М.: ВШ, 1987. – 288 с.

fransuz tarixiy frazeologiyasi sohasidagi tadqiqotlari bu sohada yangi sahifa ochdi.

Bunda eng muhimi shundaki, romanist-olimlar nafaqat IX asrdan to XI asr frazeologiyasining tarixiy taraqqiyotidagi keng bo'shliqni to'ldirdi, balki birinchi bo'lib, turli xil bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini birma – bir aniq tasvirlab berish orqali frazeologiya tarixini davrlarga bo'lish g'oyasini ilgari surdi.

Fransuz frazeologiyasining takomillashish yo'li shubhasiz, A.G.Nazaryan tomonidan ochib berilgan. U sof FBlar turg'un birikmalar ichidagi maqollar sonini qisqartirish orqali (ulardagi tor tushunchalarda) tilda o'zlariga doimiy yo'l ochib olganini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda tilshunoslar so'zlar o'rtasidagi sistem aloqalar masalasini o'rtaga tashhamoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "sistem-sath" atamasi orqali frazeologiyani tilning alohida sathi sifatida emas, balki ma'lum bir sath tarkibidagi obyekt sifatida, qolaversa, tilni tasvirlash predmeti sifatida talqin qilish mumkin.

Biroq frazeologiya tilshunoslikning alohida mustaqil bir sathi bo'la olishligini e'tirof etuvchi olimlar ham yo'q emas. Xusan, rus frazeologi V.L.Arhangelskiy tilning boshqa sistemalari bilan aloqada bo'lgan frazeologik tarkibni "*frazeologik sath*" deb nomlagan edi<sup>1</sup>. Bu g'oyani nemis frazeologi V.Flyasher (W. Fleischer) davom ettirgan holda frazeologizmlarni maxsus frazeologik sathni (*phraseologische Ebene*) tashkil etuvchi "avtonom struktura" deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Shuningdek, A.V. Kunin ingliz frazeologiyasi materiali asosida FB va so'zlar til strukturasining alohida sathlariga tegishli ekanligini, qolaversa, tilning frazeologik sistemasini "frazeologik sath" hisoblab, uni FB komponentlari va o'zaro FBlar o'rtasidagi munosabatlar majmui ekanligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>. Bundan tashqari, fransuz frazeologiyasi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan A.G. Nazaryan ham frazeologiyani tilning alohida sathi deb nomlash vaqtin yetganligini e'tirof etadi<sup>4</sup>.

1920- yillarga kelib, til borasidagi ilmiy tadqiqotlar juda avjiga chiqdi. Xusan, Ye.D.Polivanov birinchi bo'lib, frazeologiyani fan sifatida ajratib o'rganish zarurligini ta'kidladi. 1940-50-yillar

<sup>1</sup> Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке: Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов н/Д: Изд-во Ростов. ун-та, 1964. – С.260.

<sup>2</sup> Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. –Tübingen: Niemeyer, 1997. – S. 7. 15

<sup>3</sup> Кунин А.В. Фразеологический уровень языка // Уровни языка и их взаимодействие. – М., 1967. –С.90.

<sup>4</sup> Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка – М.: ВШ, 1976. –С.23.

davomida V.V. Vinogradovning bu fan rivojiga qo'shgan hissasi tilshunoslik tarixida muhim iz qoldirdi. Shuningdek, bu davrga kelib, tilshunoslар frazeologik muammolar doirasini kengaytirishga, ya'ni frazeologik birliklarni turli xil aspektlar nuqtayi nazaridan tadqiq etish g'oyasini ilgari surdi.

V.L.Arхангельский, O.S.Axmanova, L.I.Royzenzon, N.M. Shanskiy singari bir qator tilshunoslар frazeologiyaning maxsus fan sifatida shakllanishiga alohida hissa qo'shdilar. Qolaversa, rus tilshunoslari nafaqat rus tili, balki xorijiy til frazeologiyasi ustida ham tadqiqot ishlari olib bordi. Jumladan, germanist va romanist tilshunoslardan N.N. Amosova, A.V. Kuninlar ingliz, I.I.Chernisheva nemis tili, V.G.Gak, Ya.I.Resker, Z.N.Levit, O.M.Shvars, A.G.Nazaryanlar fransuz tili frazeologiyasi borasida tadqiqot ishlari olib bordi. Ular o'z tadqiqotlarida frazeologiyaning umumnazariy va xususiy muammolarini tadqiq etishga harakat qildilar. Frazeologiyani bu kabi nazariy jihatdan o'r ganish ko'pchilik tilshunoslар tomonidan frazeologik hodisalarning ma'lum bir sistema asosida mavjud ekanligini tan olishga yordam berdi. Bu esa tilshunoslар o'rtasida frazeologiyaning til sathlari orasida o'z o'rnini topishi kerak, degan g'oyaning paydo bo'lishiga olib keldi.

### **3. Frazeologik birliklarni tasniflash tamoyillari va ularning boshqa fanlar bilan aloqasi**

Fransuz FBlarini tasniflashda quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

- 1) FBlarni struktur jihatdan tasniflash;
- 2) FBlarni tildagi funksiyasiga ko'ra tasniflash;

FBlarni struktur jihatdan tasniflashdagi ularga xos xususiyat - bu FBlarning struktur va grammatik belgilariiga asoslanishi hamda ularning 4 turga ajralishidir:

- 1) Nopredikativ FBlar ;
- 2) Predikativ FBlar;
- 3) Qisman predikativ FBlar;
- 4) Yashirin predikativ FBlar.

**Nopredikativ FBlarda** kesim ishtirok etmaydi va ular ikki turga bo'linadi: 1) Bir unsurli FBlar ; 2) Frazemalar.

Bir unsurli FBlar bir mustaqil so'z va bir yoki ikki yordamchi so'zdan tashkil topadi va unda umumsintaktik aloqaga asoslanadi. Bunga misol tariqasida quyidagi birikmani keltirishimiz mumkin:

*Dans l'intention de (+ l'infinitif)- biror bir ishni atayin qilmoq.*

Nopredikativ FBlarning ikkinchi turi, ya'ni frazemalarda ikki va undan ortiq mustaqil so'z mavjud bo'ladi va ular tobe va bog'li aloqaga asoslanadi. Misol uchun :

- a) *Hommes à gages - yollanib ishlovchi odam (yollanma ishchi) ;*
- b) *Une grande affaire- mushkul ish ;*
- c) *Travaux d'Hercule - Gerkulesning o'n ikkita jasorati, ulkan mehnat ;*
- d) *Le fin d'une affaire -ishning mohiyati, asosiy maqsadi ;*
- e) *Jours ouvrables - ish kunlari;*
- f) *Travailler comme une bête - Eshakdek ishlaromoq, tinim bilmasdan ishlaromoq.*

FBlarning struktur turlarini quyidagi jadval asosida ancha tushunarli tarzda tasniflash mumkin:

<b>Nopredikativ FBlar:</b>	
Bir mustaqil so'zli frazeologizmlar:	Ikki va undan ortiq mustaqil so'zli frazemalar:
<i>A propos; en effet; a la fois;</i>	<i>Nuit blanche; blanc comme sire; se mettre en quatre;</i>
<b>Qisman predikativ FBlar:</b>	
- <i>Croire que les enfants naissent dans les choux;</i>	
- <i>Vin qui fait danser les chèvres ;</i>	
<b>Predikativ frazeologizmlar:</b>	
Yopiq strukturali predikativ frazeologizmlar:	Ochiq strukturali predikativ frazeologizmlar:
- <i>il y a anguille sous roche;</i>	- <i>force lui est de ... ;</i>
- <i>son compte est bon ;</i>	- <i>ça va chercher dans ... ;</i>
<b>Yashirin predikativ frazeologizmlar:</b>	
- <i>à petit trou, petite cheville -uzukka ko'z qo'ygandek;</i>	
- <i>à nouvelles affaires, nouveaux conseils- yangi ish - yangi tashvish.</i>	

FBlarning funktional turlarini quyidagi jadval asosida tasniflash mumkin:

Nokommunikativ frazeologizmlar:	
Nominativ frazeologizmlar:	<p><b>Nominal</b> – <i>le fils à papa</i> – ota o'g'il; <i>paroles en l'air</i> – bekorchi gaplar; <i>mariage sous la cheminée</i> – soxta nikoh ;</p> <p><b>Adyektival</b> – <i>à la page</i> – zamonaviy; <i>fort en gueul-janjalkash; de la main gauche</i> – noqonuniy;</p> <p><b>Adverbial</b> – <i>à fond</i> – batafsil; <i>sur le pouce</i> – qo'l uchida / shunchaki ; <i>pour rien</i> – bekorga ; <i>comme un fou</i> – telbalarcha ;</p> <p><b>Verbal</b> – <i>être chien</i> – badjahl bo'lmoq ; <i>demeurer en suspens</i> – arosatda qolmoq; <i>se trouver mal</i> – hushidan ketmoq;</p> <p><b>Komparativ</b> – <i>chaude comme dans un four</i> – tez qizishib ketaigan; <i>maigre comme un clou</i> - juda ozg'in; <i>marcher comme les crabs</i> - toshbaqadek sudralib yurmoq;</p>
Yordamchi frazeologizmlar:	<i>à titre de ... ; à force de ... ; aux yeux de ... ; dans le cadre de ... ; sur le dos de ... ;</i>
Undalma / kiritmali frazeologizmlar:	<i>par exemple</i> - masalan; <i>bonne mère</i> - bo'lishi mumkin emas; <i>Misère de ma vie</i> - qanday baxtsizlik ; <i>Ma foi</i> - chin so'zim, o'lay agar ;
Modal frazeologizmlar:	<i>autrement dit... ; en règle générale .... ; à dire vrai... ; comme qui dirait ....</i>
Kommunikativ frazeologizmlar:	
Maqol bo'limgan kommunikativ frazeologizmlar:	Maqollar:
<p><i>-il lui manque un clou</i> – bir qaynovi kam ;</p> <p><i>-force lui est de ...</i> majbur bo'lmoq ;</p> <p><i>-la moutarde lui monte au nez</i> – tepa sochi tikka bo'ldi ;</p> <p><i>-l'affaire est dans le sac</i> – bosh yorilsa do'ppi tagida ;</p>	<p><i>-Il n'est jamais feu sans fumée</i> – shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi.</p> <p><i>-Le renard mourra dans sa peau</i> - bo'krini go'r to'g'rileydi.</p> <p><i>-Il faut hurler avec les loups</i> - kim nima qilsa sen ham shuni qil.</p>

Frazeologiya fani boshqa fanlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ularning uzviy bog'liqligi natijasida mazkur fanning bir qancha bo'limlari yuzaga kelgan. Masalan:

- Frazeologik semantika,
- Frazeologik stilistika,
- Paremiologiya,
- Tarixiy frazeologiya,
- Frazeologik etimologiya,
- Qiyosiy frazeologiya,
- Emotiv frazeologiya
- Konseptual frazeologiya
- Onomastik frazeologiya
- Frazeografiya / lug'atlar yaratish /paremiografiya va boshqalar.

## X U L O S A

Tilning leksik-semantic sathi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki katta bo'limni o'z ichiga oladi. Bular *leksikologiya* va *semasiologiya*. O'rganadigan materialiga ko'ra leksikologiya ikkiga bo'linadi: *xususiy leksikologiya* va *umumiyl leksikologiya*. *Umumiyl* va *xususiy leksikologiya* bilan bir qatorda *qiyosiy* va *solishtirma (kontrastiv) leksikologiya* ham mavjud. Leksikologiya fani *semasiologiya* fani bilan uzviy bog'liqdir. «*Semasiologiya*» atamasiga sinonim sifatida «*semantika*» atamasi ham ishlataladi. So'z ma'nosiz umuman mavjud bo'lmashligi kabi *leksikologiya* va *semantika* ham bir-birlarisiz mavjud bo'lmaydi. Ularning tarkibida *frazeologiya* fani ham muhim o'rinn egallaydi. Leksik-semantic sathdagi *frazeologik sistema* tushunchasini ochib berish obyektning o'zini, ya'ni frazeologiyani tasvirlash jarayoni bilan bog'liq. Bunda undagi birliklar tarkibi, ular o'rtasidagi til va nutq sistemasini qamrab olgan aloqa va munosabatlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Fransuz tilshunoslari o'rtasida frazeologiyaning obyekti hisoblanmish FBlar turlicha talqin etilgan. Xususan, *expression, façon de parler, locution* va boshqalar. Bu esa *frazeologik birliklar* bilan *norfrazeologik birliklar* o'rtasidagi farqni anglab olish mumkin emasligidan dalolat beradi. FBlar so'z va mustaqil so'z birikmalaridan ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topganligi, o'z leksik tarkiblarining turg'unligi, ularning alohida so'zlardan yasalganligi, tilda oldindan tayyor holatda bo'lganligi, FB bir butun birlik sifatida gap ichida faqat bir gap bo'lagi o'rnida kelishi bilan o'zaro farqlanadi.

Frazeologiyaning o'rganish obyekti bo'lgan FBlarni tasniflashda ularni quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1) Nopredikativ FBlar ; ularda kesim ishtirok etmaydi va ular ikki turga bo'linadi: 1) Bir unsurli FBlar ; 2) Frazemalar.

2) Predikativ FBlar; (Struktur tarkibi jihatdan to'liq predikatsiyaga ega bo'lgan, ya'ni asosiy fe'lning tuslanishi orqali hosil bo'lgan FBlar predikativ frazeologizmlar sanaladi.)

3)Qisman predikativ FBlar; (Struktur tarkibi ikkita fe'ldan iborat bo'lib, ularning biri tuslangan ikkinchisi esa infinitif shaklda mavjud bo'lgan FBlar qisman predikativ FBlar sanaladi.)

4) Yashirin predikativ FBlar. (Struktur jihatdan predikasiyaga ega bo'lмаган, бироқ мазмун jihatdan predikasiyali semanticaga ega FBlardir.)



## G L O S S A R I Y :

<i>leksik- semantic</i>	-til sathlaridan biri bo'lib, <i>leksikologiya</i> va <i>semasiologiya</i> fanlarining o'zaro bog'liqligi asosida namoyon bo'ladi.
-----------------------------	--

<i>sath</i>	
<i>idioma</i>	-(yun. <i>idioma</i> — xususiyat, o'ziga xoslik) — frazeologizmlar turi; muayyan bir tilga xos bo'lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo'lmaydigan nutq birligi yoki iboralardir.
<i>obrazlilik</i>	-ifodalilik, ta'sirchanlik, muayyan obrazga asoslanish.
<i>nofrazeologik birliklar</i>	– frazeologik birlikning aksi, ya'ni erkin so'z birikmasi.
<i>shakl va ma'no</i>	-falsafiy tushunchalar bo'lib, <i>ma'no</i> – o'z mohiyatiga ko'ra, shaklga nisbatan yetakchi o'rinni tutadi, <i>shakl esa</i> – aksincha, <i>ma'noni</i> ifodalaydi. <i>Shakl ma'noga</i> mos kelishi lozim, mos kelmasa ular o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Borliqdagi har bir narsa o'zining <i>ma'nosini</i> va <i>shakl birligi</i> tufayli mavjud bo'ladi.
<i>frazeologik sistema</i>	-tilning faqat frazeologik birliklardan, ya'ni turg'un birikmalar, maqol va matallardan iborat tuzilmasi.
<i>leksik sistema</i>	tilning faqat leksik birliklardan, ya'ni har qanday so'z va so'z birikmalaridan iborat tuzilmasi.



### SAVOLLAR :

1. *Frazeologiya* so'zining lingvistik izohi nimalardan iborat?
2. *Frazeologik birlik* (FB) atamasi tilshunoslikda kimning nomi bilan bog'liq?
3. *Frazeologik birlik* (FB) atamasining yana qanday muqobilari mavjud?
4. *Locution phraséologique* atamasining tilga kiritilishi kimning nomi bilan bog'liq?
5. Leksik-semantik sath borasida nimalarni bilasiz?
6. Leksikologiyaning qanday turlari mavjud?
7. *So'z birikmasi* bilan *frazeologik birlik* o'rtasidagi farqni tushuntiring.
8. FBlar so'z va mustaqil so'z birikmalaridan qanday xususiyatlari orqali o'zaro farqlanadi?
9. *Frazeologik birliklar* bilan *nofrazeologik birliklar* o'rtasidagi farqni anglab olishga xalaqit qiluvchi faktlar nimalardan iborat?
10. Moris Raning frazeologik lug'ati nimasi bilan ajralib turadi?
11. P.Giro qanday xususiyatlarni FBlar uchun xarakterli holat deb ta'riflaydi?
12. Frazeologiya leksik sistemaga kiradimi, (shu jumladan, leksik – semantik sistemaga) yoki u tilning alohida sistemasini tashkil etadimi, degan savolga shaxsiy fikringiz qanday?
13. Fransuz frazeologiyasi qaysi tilshunos nomi bilan bog'liq va uning bu boradagi qanday asarlarini bilasiz?
14. Boshqa tillar bo'yicha qaysi taniqli frazeologlarni bilasiz?

15. Frazeolgiyaning qanday bo'limlari mavjud?
16. Fransuzcha FBlarining struktur jihatdan tasnifiy turlari nimalardan iborat?
17. Fransuzcha FBlarining funksional jihatdan tasnifiy turlari nimalardan iborat?



**AMALIY MASHG'ULOT  
TOPSHIRIQLARI**

***Topshiriq-1.*** Ma'ruza matnini o'rghanib, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

No	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To'g'ri	Xato	Ma'lum emas
1.	<i>Locution phraséologique</i> atamasi fransuz frazeologiyasiga keng tarzda qo'llanilish xususiyatiga ega emas.			
2.	Frazeologiyaning o'rganish obyektlarini FBlar, ya'ni turg'un so'z birikmalar, iboralar, nutqdagi barcha frazeologizmlar tashkil etadi.			
3.	Leksik-frazeologik sath tilning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki katta bo'limini o'z ichiga oladi. Bular <i>leksikologiya</i> va <i>semasiologiya</i> .			
4.	<i>Qiyosiy leksikologiya</i> qardosh va qardosh bo'lмаган tillardagi o'xhash va noo'xhash tomonlarni o'rganadi.			
5.	Erkin so'z birikmalar mustaqil so'z turkumlarining o'rnini to'ldira oladi va aksariyat hollarda ot so'z turkumining muhim manbai sifatida xizmat qiladi.			
6.	FBlar ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va o'z leksik tarkiblarining turg'unligi bilan ajralib turadi.			
7.	FBlar tarkibidagi elementlar gap ichida alohida-alohida gap bo'laklari bo'la oladi.			
8.	<i>Frazeologik birlik</i> bilan <i>norfrazeologik birlik</i> o'rtasidagi farqni Moris Ra o'z lug'atida ishlab chiqqan.			
9.	Sh. Ballining frazeologiya va FBlar xususida ilgari			

	surgan g'oyasi fransuz tilshunoslarini qiziqtirmadi va o'n yillardan so'ng ularda bunga qiziqish kuchaydi.		
10.	P. Giro FBlarning asosiy xususiyatlari sifatida <i>unité de forme et de sens, écart de la norme grammaticale ou lexicale, valeurs métaphoriques particulières</i> mezonlarini ma'qullaydi.		

**Topshiriq-2.** FBlarning quyidagi struktur turlari bo'yicha o'zingizning fikrlaringiz asosida lisoniy qoida yarating:

Nº	FBlarning struktur turlari:	Yaratgan shaxsiy qoidangiz:	Misollar:
1.	Nopredikativ FBlar		
2.	Qisman predikativ FBlar		
3.	Predikativ FBlar		
4.	Yashirin predikativ FBlar		

**Topshiriq-3.** Quyidagi frazeologizmlarni funksional turlari bilan moslashtiring:

Nº	FBlarning funksional turlari	Nº	Fransuzcha FBlar :
1.	Exp. adjectivales:	a)	sourire jusqu'aux oreilles; prendre garde; voir rouge;
2.	Exp. adverbiales :	b)	pour que; comme si;
3.	Exp.conjonctives :	c)	quelque chose; tout le monde;
4.	Exp.nominales :	d)	agé comme le Pont-Neuf; jaune citron; de fraîche date;
5.	Exp.prépositionnelles :	e)	le mariage d'Afrique; un âme blanc; amis de Job;
6.	Exp.pronominales :	f)	tout de suite; à jamais; en costume d'Adam;
7.	Exp. verbales :	g)	à cause de; en attendant de;

**Topshiriq-4.** Quyidagi FBlarni funksional xususiyatlariga ko'ra tasniflang:

Nº	Fransuzcha FBlar:	Nominal	Verbal	Adjektival	Adverbial
1.	<i>jours ouvrables-</i> ish kunlari;				
2.	<i>shercher fortune</i> – baxtini sinab ko'rmoq;				
3.	<i>frapper à main fermée</i> – bor kuchi bilan urmoq;				
4.	<i>les trois huit</i> - sakkiz soatlik ish kuni;				
5.	<i>homme à poil</i> -ishning ko'zini biladigan odam;				
6.	<i>à deux mains</i> - qo'li gul ;				
7.	<i>avoir une main blanche</i> -mehnatsevar bo'lmoq;				
8.	<i>travail noir</i> - naridan-beri qilingan ish;				
9.	<i>corps et âme</i> - butun borlig'i bilan;				
10.	<i>panne sèche</i> - ishning yurishmasligi;				
11.	<i>les cinq huit</i> - besh kunlik ish haftasi;				
12.	<i>demeurer bouche close</i> – tiliga ehtiyyot bo'lmoq;				
13.	<i>le fin d'une affaire</i> - ishning asl maqsadi;				
14.	<i>avec le sourire</i> -tabassum bilan;				
15.	<i>la queue d'une affaire</i> - qolgan chala ish;				
16.	<i>à pleine tête</i> - shovqin ko'tarib;				
17.	<i>blanc comme un linge</i> - dokadek oq;				
18.	<i>demander à genoux</i> – o'tinib so'ramoq;				
19.	<i>en dernier recours</i> - hech bo'lmaganda, loaqal;				
20.	<i>fermer les yeux</i> - yorug' dunyodan ko'z yummoq.				

**Topshiriq-5.** Quyidagi badiiy matnlar parchasidan erkin so'z birikmalari va turg'un so'z birikmalarini topib, tagiga chizing va ularni nima sababdan "erkin" va "turg'un" ekanligini tushuntiring:

### Texte - A

#### **Un souvenir qu'on va chérir.**

Ce matin, nous comme s tous arrivés à l'école bien contents, parce qu'on va prendre une photo de la classe qui sera pour nous un souvenir que nous allons chérir toute notre vie, comme nous l'a dit la maîtresse. Elle nous a dit aussi de venir bien propres et bien coiffés. C'est avec plein de brillantine sur la tête que je suis entré dans la cour de récréation. Tous les copains étaient déjà là et la maîtresse était en train de gronder Geoffroy qui était venu habillé en martien. Geoffroy a un papa très riche qui lui achète tous les jouets qu'il veut. Geoffroy disait à la maîtresse qu'il voulait absolument être photographié en martien et que sinon il s'en irait.

Le photographe était là, aussi, avec son appareil et la maîtresse lui a dit qu'il fallait faire vite, sinon, nous allions rater notre cours d'arithmétique.

Agnan, qui est le premier de la classe et le chouchou de la maîtresse, a dit que ce serait dommage de ne pas avoir arithmétique, parce qu'il aimait ça et qu'il avait bien fait tous ses problèmes. Eudes, un copain qui est très fort, voulait donner un coup de poing sur le nez d'Agnan, mais Agnan a des lunettes et on ne peut pas taper sur lui aussi souvent qu'on le voudrait. La maîtresse s'est mise à crier que nous étions insupportables et que si ça continuait il n'y aurait pas de photo et qu'on irait en classe. Le photographe, alors, a dit : «Allons, allons, allons, du calme, du calme. Je sais comment il faut parler aux enfants, tout va se passer très bien.»

(Sempé-Goscinny "Le petit Nicolas")<sup>1</sup>

### **Texte - B**

« Ceci est écrit en allemand, dit John Mangles, dès qu'il eut jeté les yeux sur ce papier.

- Et vous connaissez cette langue, John ? demanda Glenarvan.
- Parfaitement, Votre Honneur.
- Eh bien, dites-nous ce que signifient ces quelques mots. »

Le capitaine examina le document avec attention, et s'exprima en ces termes :

« D'abord, nous voilà fixés sur la date de l'événement ; *7 juni* veut dire *7 juin*, et en rapprochant ce chiffre des chiffres 62 fournis par le document anglais, nous avons cette date complète : *7 juin 1862*.

- Très bien ! s'écria Lady Helena, continuez, John.
- Sur la même ligne, reprit le jeune capitaine, je trouve le mot *Glas*, qui, rapproché du mot *gow* fourni par le premier document, donne *Glasgow*. Il s'agit évidemment d'un navire du port de Glasgow.
- C'est mon opinion, répondit le major.
- La seconde ligne du document manque tout entière, reprit John Mangles. Mais, sur la troisième, je rencontre deux mots importants : *zwei* qui veut dire *deux*, et *atrosen*, ou mieux *matrosen*, qui signifie *matelots* en langue allemande.
- Ainsi donc, dit Lady Helena, il s'agirait d'un capitaine et de deux matelots.
- C'est probable, répondit Lord Glenarvan.
- J'avouerai à Votre Honneur, reprit le capitaine, que le mot suivant, *graus*, m'embarrasse. Je ne sais comment le traduire. Peut-être le troisième document nous le fera-t-il comprendre. Quant aux deux derniers mots, ils s'expliquent sans difficultés. *Bringt ihnen* signifie *portez-leur*, et si on les rapproche du mot anglais situé comme eux sur la septième ligne du premier document, je veux dire du mot *assistance*, la phrase *portez-leur secours* se dégage toute seule.

---

<sup>1</sup> SEMPÉ-GOSCINNY. LE PETIT NICOLAS / à Henri Amouroux, parrain de ce Nicolas. –Paris : Éditions Denoël, 1960. –P. 4.

– Oui ! portez-leur secours ! dit Glenarvan, mais où se trouvent ces malheureux ? Jusqu'ici nous n'avons pas une seule indication du lieu, et le théâtre de la catastrophe est absolument inconnu.

– Espérons que le document français sera plus explicite, dit Lady Helena.

– Voyons le document français, répondit Glenarvan, et comme nous connaissons tous cette langue, nos recherches seront plus faciles. »

(*Jules Verne. Les enfants du capitaine Grant*)<sup>1</sup>



## MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI :

1. *Frazeologiya* so'zining ma'nosi va kelib chiqish asoslarini tushuntiring.
2. Frazeologiya fanining nazariy asoslarini izohlang.
3. Frazeologiyaning til sathida tutgan o'rnnini tushuntiring.
4. FBlearning tildagi ifodalananish terminlarini birma-bir aytib bering: o'zbek tilida va fransuz tilida.
5. FBning oddiy so'z birikmalaridan farqini misollar bilan tushuntiring.
6. Sh.Ballining *frazeologiya* faniga qo'shgan hissasi, yozgan asarlari haqida ma'lumot bering.
7. Moris Ra, Robert, Alen Rey, P.Giro lug'atlari haqida ma'lumot bering.
8. Fransuz, ingliz, nemis, rus va o'zbek frazeologiyasi bo'yicha salmoqli tadqiqot ishlari olib borgan tilshunos olimlar haqida fikr bildiring.
9. Frazeologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasini misollar bilan tushuntiring: *leksikologiya, grammatika, semantika, stilistika, pragmatika, etimologiya, psixologiya, tarix, flokloristika*.
10. Frazeologiyaning qaysi sohalar bilan bog'liqligini misollar asosida tushuntirishga harakat qiling:
  - Frazeologik semantika
  - Frazeologik stilistika
  - Paremiologiya
  - Tarixiy frazeologiya
  - Frazeologik etimologiya
  - Qiyosiy frazeologiya
  - Emotiv frazeologiya
  - Konseptual frazeologiya
  - Onomastik frazeologiya
  - Frazeografiya / lug'atlar yaratish / paremiografiya va boshqalar.

<sup>1</sup> Jules Verne. *Les enfants du capitaine Grant*. La Bibliothèque électronique du Québec / Collection À tous les vents . Volume 437 : version 2.1 , -P. 22-24.



## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TAHLIL QILISH USULLARI: LEKSIK - GRAMMATIK TAHLIL TAMOYILLARI (*holat kategoriyasi misolida*)

**Darsning maqsadi:** Talabalarda iboralarning grammatika bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilishni so'z va frazeologik birlik o'rtasidagi o'zaro munosabat orqali tushuntirish va ular bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

### Reja :

1. Holatni ifodalovchi leksik-grammatik birliklar.
2. Holatni tasvirlovchi so'z yoki FBlar o'rtasidagi grammatik munosabatlar.
3. Holatni ifodalovchi FBlarning leksik-grammatik xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** *holat kategoriyasi, aktualizatsion vositalar, so'z birikmasi, frazeologik birlik, leksik birlik, ikki yoki undan ortiq element, semantik ma'no.*

### 1. Holatni ifodalovchi leksik-grammatik birliklar

Tilshunoslikda holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar muammosini dastlab A.X.Vostokov, A.A. Shaxmatov, L.V.Sherba va V.V.Vinogradovlar ishlab chiqqan. Holatni ifodalovchi so'zlar va ularning so'z turkumlari orasidagi talqini o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkumdagи so'zlardan ajralib turadi. Ma'lumki, so'z turkumlari muammosi tilshunoslар tomonidan minglab yillar davomida o'r ganib kelinayotgan bo'lsada, ularning tasnifi borasida hamon aniq bir to'xtamga kelinmagan.

Holatni ifodalovchi so'zlar ham tilshunoslikda xuddi boshqa so'zlar kabi maqomga ega. Biroq, ular boshqa so'z turkumlariga xos so'zlarga nisbatan o'zlarining grammatik, semantik va funksional xususiyatlari bilan ajralib turadi. So'z turkumlari orasida fe'l, ot, sifat va ravish so'z turkumlari o'zlarida holat kategoriyasini aks ettiruvchi so'zlar guruhi sanaladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda holatni ifodalovchi so'zlarni ba'zilar fe'l so'zlar deb atasa, ba'zilar esa fe'l ma'nosiga ega bo'lgan qisqa sifatlar deb, yoki ot hamda ravish so'z turkumiga xos so'zlar deb ataydi. Bundan tashqari, ular *predikativ ravishlar, shaxssiz predikativ so'zlar, predikativlar* kabi boshqa atamalar bilan ham izohlanadi<sup>1</sup>. Lekin ba'zi tilshunoslар holatni ifodalovchi so'zlarni hech qaysi so'z turkumiga kiritmasdan, alohida o'r ganadi. V.V.Vinogradov holatni ifodalaydigan so'zlarni o'zgarmas so'zlar guruhiga

<sup>1</sup> Розенталь Д.Е., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М., 1976. – С.143.


kiritib, ularni kesim va bir tarkirbli gaplarda infinitif bilan ifodalangan egani aniqlab keladi, deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Fransuz tilida ham boshqa tillardagi kabi holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar ma'lum bir shaxs yoki predmetning sifatiy holatini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bunda *sifatiy holat* tushunchasi ostida harkat jarayonida sodir bo'lgan yoki ma'lum bir obyektni tavsiflash jarayonida yuzaga kelgan holat tushunchalari aks etadi.

Fransuz tilida holat holi (*le complément circonstanciel de manière*) vazifasidagi barcha ravishlar tildagi holat kategoriyasini aks ettiruvchi eng asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Biroq fransuz tilida holatni ifodalovchi so'zlar chuqurroq o'rganilganda, ushbu kategoriyaga xos aktualizatsion vositalar xilma-xil ekanligining guvohi bo'lamiz. Bunday vositalar fransuz tilida avvalambor, holatni ifodalovchi ravishlar, so'ngra esa fe'l, sifat, ot, ravishdosh, sifatdosh, so'z birikmasi va FB (frazeologik birlik)larni o'z ichiga oladi.

## 2. Holatni tasvirlovchi so'z yoki FBlar o'rtaqidagi grammatisk munosabatlar

Fransuz tilida holat kategoriyasining ifoda vositalarini tadqiq qilish jarayonida ularni ikki katta struktur guruhg'a, ya'ni, bir elementli va ikki yoki undan ortiq elementli leksik birliklarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunda holatni ifodalovchi bir elementli leksik birliklarga *ravish, fe'l, sifat, ot* hamda *sifatdosh* kabilarni, ikki elementli leksik birliklarga esa *frazeologik birliklar, so'z birikmali* va *ravishdoshlarni* kiritish mumkin. Ushbu keltirilgan fikrmulohazani yorqinroq ifodalash maqsadida quyidagicha struktur-jadvalga e'tibor qilaylik:



<sup>1</sup> Виноградов В.В. Русский язык -М.: ВШ., 1972. - С.319.

Ma'lumki, holatni ifodalovchi so'zlar doimo *Comment ? (Qanday?) De quelle façon ?, De quelle manière ? ( Qay tarzda?)* so'rog'iga javob bo'ladi. Biroq yuqorida keltirilgan izohga ko'ra, ot va fe'l so'z turkumiga xos so'zlar ham holat kategoriyasiga ega ekanligi inobatga olinsa, bunday so'zlar ot va fe'lga tegishli bo'lgan *Qu'est-se qui ? ( Kim?)*, *Qu'est-se que? (Nima?)* yoki *Que faire? (Nima qilmoq?)* so'rog'lariga ham javob bo'lishi mumkin. Masalan, fansuz tilidagi *craindre - qo'rqmoq, se fatiguer - charchamoq* fe'llari yoki *la tranquilité -xotirjamlik, la joie - xursandchilik* kabi otlar ifodalayotgan semantik ma'no tarkibida ham ma'lum darajada holat ma'nosi mavjuddir.

Holat kategoriyasining bir elementli leksik birliklar orqali aks etish holati fransuz tilida ko'pincha ravish so'z turkumiga xos so'zlar orqali amalga oshadi. Ular ham o'z navbatida nutqda holatni ifodalovchi sof ravishlar hamda yasama ravishlar yordamida faollashadi. Masalan:

- sof ravishlar orqali - *Vous marchez vite. Il écrit mal encore.*
- yasama ravishlar orqali - *Il s'endormit tranquillement.*  
- *Elle a répondu doucement.*

Holatni ifodalovchi sifatlar yordamida hosil qilinadigan holat kategoriyasi fransuz tilida ma'lum bir shaxs yoki predmetning sifatiy holatini ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu holat fransuz tilida ko'pincha ot-kesimli va postpozitivli aniqlovchili gaplarda uchraydi. Masalan:

- 1) ot-kesimli gaplarda - *Il est petit. La route est très longue.*
- 2) postpozitivli aniqlovchili gaplarda - *Il s'endort les yeux ouverts.*

Fransuz tilida sifatdoshlar ham, xususan, hozirgi va o'tgan zamon sifatdoshlari ham tilda holat kategoriyasini ifodalovchi vositalardan biri sanaladi. Chunki, sifatdoshlarning yasalish jarayoni fe'llar bilan bog'liq bo'lganligi sababli fe'llardagi mavjud stativlik xususiyati sifatdoshlarga ham ko'chgan sanaladi. Masalan:

- Hozirgi zamon sifatdoshi: *J'ai lu "La Belle dormante".*
- O'tgan zamon sifatdoshi: *Le tableau accroché au mur est très grande.*

An'anaviy grammatikada fe'llarning doimo *harakat, holat* va *jarayoni* ifodalashi qayd qilinganligini inobatga olgan holda fe'llarning ham leksik-semantik turlari orasida holat ma'noli fe'llar mavjudligiga e'tibor qaratish lozim. Qolaversa, V.G.Gak ham fransuz tilida fe'llar leksik-semantik nuqtayi nazardan dinamik hamda stativ fe'llarga bo'linishini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Shunday ekan, fransuz tilidagi stativ fe'llarni ham holat kategoriyasini ifodalovchi navbatdagi vositalardan biri sifatida qabul qilish mumkin. Masalan:

*Je me suis fatigué. Nous effrayeons. Il rougit.*

Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar tarkibida holat ma'nosini anglatuvchi otlar ham mavjud bo'lib, ular stativ fe'llarning yoki holatni anglatuvchi sifatlarning otlashishi natijasida yuzaga keladi. Masalan,

---

<sup>1</sup> Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. –М.: ВШ., 1986. –С. 191.

*rire – le rire, pleurer – les pleurs, courir – la cours, tranquil – la tranquilité, gros – la grossesse* va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan holatni ifodalovchi so'zlarning o'zi semantik jihatdan bir necha turlarga bo'linadi. Xususan, ularning orasidan *ruhiy holatni, fizik holatni, harakat holatini* ifodalovchi so'zlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, ushbu holatni misollar bilan quyidagicha tavsiflash mumkin:

Fransuz tilidagi holat kategoriyali so'zlarning semantik turлari:		
ruhiy holatni ifodalovchi	fizik holatini ifodalovchi	harakat holatini ifodalovchi
<i>rire</i>	<i>grand</i>	<i>travailler</i>
<i>pleurer</i>	<i>petit</i>	<i>dormir</i>
<i>se facher</i>	<i>grosse</i>	<i>écrire</i>
<i>inquiéter</i>	<i>mâigre</i>	<i>jouer</i>
<i>troubler</i>	<i>longue</i>	<i>se lever</i>

Yuqorida keltirilgan holat kategoriyasini ifodalovchi leksik birliklar bir elementli vositalar sanalib, ular hozirgi zamон fransuz tili grammatikasida holat ma'nosini ifodalashda keng tarzda qo'llaniladi.

### **3. Holatni ifodalovchi FBlarning leksik-grammatik xususiyatlari**

Fransuz tilida holat kategoriyasining aktualizatsion vositalariga xos ikkinchi katta guruh ikki yoki undan ortiq elementli til birligidan iboratdir. Bular birinchi navbatda *frazeologik birliklar, so'z birikmalari* va yasalishi ikki qismdan iborat bo'lganligi uchun *ravishdoshlarni* o'z ichiga oladi. Bunda fe'lli va ravishli frazeologik birliklar tilda holat kategoriyasini ifodalovchi eng sermahsul vositalardan sanaladi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

Holatni ifodalovchi fransuzcha frazeologik birliklar:	O'zbekcha talqini :
<i>à pas feutres</i>	<i>ohista qadam bilan</i>
<i>à boulets rouges</i>	<i>beshafqat, ayovsiz</i>
<i>à gorge déployée</i>	<i>ovozining boricha, baralla</i>
<i>mourir à petit feu</i>	<i>asta – sekin jon bermoq</i>
<i>à grosses gouttes</i>	<i>terlab – pishib ; qora terga botib</i>
<i>en sabots</i>	<i>achinarli ahvolda</i>
<i>mettre en peine</i>	<i>mushkul ahvolga qo'ymoq</i>
<i>être sous les armes</i>	<i>doim qurollanib yurmoq</i>

Hozirgi zamon fransuz tilida gapda hol vazifasida keladigan ravishli frazeologik birliklarni A.G.Nazaryan *nopredikativ adverbial frazeologik birliklar*, deb hisoblab, ularni tobe aloqali va tobe aloqasiz birliklarga ajratadi<sup>1</sup>. Masalan:

- *à toute force – bor kuchi bilan* (tobe aloqali);
- *à peine – zo'rg'a* (tobe aloqasiz).

Tobe aloqasiz iboralarning aksariyati fransuz tilida *locutions prépositives* deb ataladi, biroq ularni qisman holatni ifodalovchi FBlar deb hisoblash mumkin: *à chargé de / à partir de/ à défaut de /à fin de/ à l'effet de/ à même de / à peine de/sous peine de / etc.*

Fransuz tili sintetik qurilishdan analitik qurilishga o'tish davridagi o'z tarixiy taraqqiyotida asta-sekinlik bilan analitik qurilishning yangi elementlarini o'zlashtirib oladi. Analitik qurilish elementi hisoblangan artikllarning qo'llanilishi ma'lum bir davrlar ichida umuman cheklangan. Hozirgi vaqtga kelib esa, aynan biz tadqiq qilayotgan frazeologik birliklar tarkibida ham artikllarning tushib qolishi kuzatiladi: *à poings fermes, à gorge déployée, à bride abattue, à boule vue, à tombeau ouvert, à main fermée, à pas feutres, à dépêche compagnon* va hokazo.

Fransuz frazeologiyasida holat kategoriyasini ifodalovchi birliklarning yana bir turi fe'lli frazeologik birliklar hisoblanadi. Ular semantik jihatdan tahlil qilinganda ayrim farqli xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Xususan, bunday fe'lli frazeologik birliklar ifodalayotgan semantik ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linishi mumkin. Ya'ni, *sof holatni* ifodalovchi va *harakat orqali holatni* ifodalovchi frazeologik birliklar. Harakat orqali holatni ifodalovchi frazeologik birliklarning o'zi yana bir necha turlarga bo'linadi: *jismoniy harakat* orqali holatni ifodalovchi, *nutqiy faoliyat* orqali holatni ifodalovchi, *aqliy faoliyat* orqali holatni ifodalovchi frazeologik birliklar. Masalan:

Sof holatni ifodalovchi FBlar:

*Être enrhumé comme un loup- nihoyatda qattiq shamollamoq ;*

Harakat orqali holatni ifodalovchi FBlar:

*Faire des yeux de basilic- nafrat ko'zi bilan qaramoq;*

Fransuz tilidagi erkin so'z birikmalari ham holat kategoriyasining aktualizatsion vositalaridan biri hisoblanadi. Ular ko'pincha komparativlik asosidagi *comme bog'lovchisi, sans predlogi* va turli xildagi tobe aloqaga ega bo'lgan so'z birikmalari orqali amalga oshadi. Masalan:


- *sans predlogi* yordamida - *Il va sans hésiter.*
- *comme bog'lovchisi* yordamida - *Il courait comme un lapin*
- *so'z birikmasi* yordamida - *Ils se regardèrent d'un air étonné.*

Fransuz tilidagi ravishdoshlar ham tildagi holat kategoriyasining ifoda shakllaridan biri hisoblanadi. Masalan:

*Il attendit, en écoutant la musique. "Oui", dit Pierre en souriant.*

<sup>1</sup> Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка.- М.: ВШ.,1976. -С. 110.

Fransuz tilida holatni ifodalovchi FBlar xususidagi yuqorida qayd etilgan fikr mulohazalarni umumlashtirgan holda ularni quyidagicha struktur sxema orqali aniqroq namoyon etish mumkin:



### XULOSA

Holatni ifodalovchi so'zlar va ularning so'z turkumlari orasidagi talqini o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkumdagи so'zlardan ajralib turadi. Ma'lumki, so'z turkumlari muammosi tilshunoslar tomonidan minglab yillar davomida o'rganib kelinayotgan bo'lsada, ularning tasnifi borasida hamon aniq bir to'xtamga kelinmagan.

Fransuz tilida holat kategoriyasining ifoda vositalarini tadqiq qilish jarayonida ularni ikki katta struktur guruhga, ya'ni, bir elementli va ikki yoki undan ortiq elementli leksik birliklarga ajratish mumkin. Bunda holatni ifodalovchi bir elementli leksik birliklarga ravish, fe'l, sifat, ot hamda sifatdosh kabilarni, ikki elementli leksik birliklarga esa frazeologik birliklar, so'z birikmalari va ravishdoshlarni kiritish mumkin.

Fransuz tilida holat holi (*le complément circonstanciel de manière*) vazifasidagi barcha ravishlar tildagi holat kategoriyasini aks ettiruvchi eng asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar asosan, ot, fe'l, sifat va ravish so'z turkumlari orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos struktur-semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, oddiy leksemalarga nisbatan yuqori leksik birlik, ya'ni so'z

birikmasi va frazeologik birliklar tilda holat kategoriyasining eng asosiy ifoda vositalari bo'lib hisoblanadi.



## GLOSSARIY :

<i>kategorial ma'no</i>	Ma'lum bir so'z turkumidagi so'zlar uchun umumiyl bo'lgan ma'no. Masalan, otlarga xos bo'lgan umumiyl kategorial ma'no - predmetlik ma'nosi; fe'llarga xos bo'lgan umumiyl kategorial ma'no - harakat ma'nosi kategorial ma'nolardir.
<i>aktualizatsion vositalar</i>	Til elementlari potensial xususiyatlarini nutqda faollashtiruvchi vositalar.
<i>subordinativ aloqa</i>	Til birliklari o'rtaisdagi tobe aloqa.
<i>stativlik xususiyati</i>	Holatga oid xususiyatlar.
<i>dinamik xususiyat</i>	Harakatga oid xususiyatlar.
<i>sintetik qurilish</i>	Grammatik ma'nolar shakl yasovchi affikslar yordamida ifodalanadigan til qurilishi.
<i>analitik qurilish</i>	Grammatik ma'nolar so'z shakllari vositasida emas, balki yordamchi so'zlar, so'z tartibi, ohang yordamida ifodalanadigan til qurilishi.



## SAVOLLAR :

1. Tilshunoslarning holatni ifodalovchi so'zlarga nisbatan munosabati qanday?
2. Holat kategoriyasining lisoniy mohiyati nimadan iborat?
3. Fransuz tilida holat kategoriyasining aktualizatsion vositalari nimalardan iborat?
4. Holatni ifodalovchi FBlarda analitik shakllarning ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
5. Harakat va holat o'rtaisdagi aloqadorlik FBlarda qanday amalga oshadi?
6. Holat kategoriyali FBlarga xos sintaktik aloqa turlari asosan, qanday leksik birliklar orqali aks etadi?
7. Fransuz tilidagi erkin so'z birikmalarda holat kategoriyasi qanday vositalar orqali namoyon bo'ladi?



**AMALIY MASHG'ULOT  
TOPSHIRIQLARI**

**Topshiriq-1.** Ma'ruza matnini o'rghanib, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

No	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To'g'ri	Xato	Ma'lum emas
1.	Tilshunoslikda holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar muammosi dastlab rus tilshunoslari tomonidan tadqiq qilingan.			
2.	Fe'l, ot, sifat va ravishlar holat kategoriyasini aks ettiruvchi so'zlar hisoblanadi va struktur-semantik jihatdan FBlarga tenglashtiriladi.			
3.	Holatni ifodalovchi vositalarni bir elementli va ikki yoki undan ortiq elementli leksik birliklarga ajratish orqali ularning kommunikativ belgilari oydinlashadi.			
4.	FBlar tarkibidagi ot, olmosh va fe'llarda ham holat tushunchasi mavjud.			
5.	Sof va yasama ravishlar FBlar tarkibida kelganda holat tushunchasining yanada kuchayishiga sabab bo'ladi.			
6.	Fe'lli va ravishli frazeologik birliklar tilda holat kategoriyasini ifodalovchi eng sermahsul vositalardan sanaladi.			
7.	Stativ va dinamik fe'lllar FBlarning holat ko'rsatkichli assosiy elementi sifatida xizmat qila oladi.			
8.	Holatni ifodalovchi FBlar funksional va struktur xususiyatlariga ko'ra noprifikativ adverbial frazeologik birliklar sanaladi.			

**Topshiriq-2.** Quyida berilgan holat kategoriyали FBlarning har biriga alohida gap tuzing:

1.	<i>à pas feutres</i>	- <i>ohista qadam bilan</i>
2.	<i>à boulets rouges</i>	- <i>beshafqat, ayovsiz</i>
3.	<i>à gorge déployée</i>	- <i>ovozining boricha; baralla</i>
4.	<i>mourir à petit feu</i>	- <i>asta - sekin jon bermoq</i>

5.	<i>à grosses gouttes</i>	- <i>terlab – pishib ; qora terga botib</i>
6.	<i>en sabots</i>	- <i>achinarli ahvolda</i>
7.	<i>mettre en peine</i>	- <i>mushkul ahvolga qo'ymoq</i>
8.	<i>être sous les armes</i>	- <i>doim qurollanib yurmoq</i>

**Topshiriq-3.** Quyidagi jadvalni holat kategoriyali FBlarning keltirilgan turlari bo'yicha misollar bilan to'ldiring:

Nº	Subordinativ aloqali :	O'zbekcha talqini:	Subordinativ aloqasiz:	O'zbekcha talqini:
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				
8.				
9.				
10.				

**Topshiriq-4.** Quyida berilgan so'zlarga ekspressiv tarzda muqobil bo'la oladigan holat kategoriyali FBlarni toping:

ruhiy holat:	misollar:	fizik holat:	misollar:	harakatli holat:	misollar:
<i>rire</i>		<i>grand</i>		<i>sourir</i>	
<i>pleurer</i>		<i>petit</i>		<i>écrire</i>	
<i>penser</i>		<i>grosse</i>		<i>dessiner</i>	
<i>inquiéter</i>		<i>maigre</i>		<i>marcher</i>	
<i>troubler</i>		<i>longue</i>		<i>travailler</i>	

**Topshiriq-5.** Quyida berilgan nopredikativ adverbial FBlarni o'zbekcha talqin qiling hamda holat ma'noli FBlarni ajrating:

Nº	Fransuzcha nopredikativ adverbial FBlar:	O'zbekcha talqini:	Holat ma'noli
1.	<i>à couvert de</i>		

2.	<i>à la suite de</i>		
3.	<i>à l'égard de</i>		
4.	<i>à l'encontre de</i>		
5.	<i>à l'endroit de</i>		
6.	<i>à l'exclusion de</i>		
7.	<i>à l'initiative de</i>		
8.	<i>à l'insu de</i>		
9.	<i>à l'issue de</i>		
10.	<i>à l'occasion de</i>		
11.	<i>à l'usage de</i>		
12.	<i>à même</i>		
13.	<i>à peine de/sous peine de</i>		
14.	<i>à raison de/en raison de</i>		
15.	<i>à titre de/en qualité de</i>		
16.	<i>à tout moment</i>		
17.	<i>au bénéfice de</i>		
18.	<i>au cas de/en cas de</i>		
19.	<i>au cours de/en cours de</i>		
20.	<i>au départ de</i>		
21.	<i>au détriment de</i>		
22.	<i>au gré de</i>		
23.	<i>au mépris de</i>		
24.	<i>au nom de</i>		
25.	<i>au pied de</i>		
26.	<i>auprès de</i>		
27.	<i>au profit de</i>		
28.	<i>au préjudice de</i>		
29.	<i>au sens de</i>		
30.	<i>au (seul) vu de</i>		
31.	<i>aux termes de</i>		
32.	<i>de temps à autre</i>		
33.	<i>d'office</i>		
34.	<i>du chef de</i>		
35.	<i>du (seul) fait de</i>		

**Topshiriq-6.** Quyida berilgan **en** va **dans** predlogli noprédikativ adverbial FBlarni o'zbekcha talqin qiling hamda bu predloglarning FBlardagi semantik vazifasini aniqlang:

1.	<i>en accord avec</i>		
2.	<i>en application de</i>		
3.	<i>en cause de</i>		

4.	<i>en compensation de</i>		
5.	<i>en considération de</i>		
6.	<i>en contemplation de</i>		
7.	<i>en contradiction avec</i>		
8.	<i>en contravention à, avec, de</i>		
9.	<i>en défaut de</i>		
10.	<i>en dehors de</i>		
11.	<i>en exécution de</i>		
12.	<i>en exercice de</i>		
13.	<i>en faveur de</i>		
14.	<i>en fonction de</i>		
15.	<i>en fraude de</i>		
16.	<i>en infraction à, avec</i>		
17.	<i>en l'absence de</i>		
18.	<i>en l'état de</i>		
19.	<i>en marge de</i>		
20.	<i>en méconnaissance de</i>		
21.	<i>dans le cadre de</i>		
22.	<i>dans les bornes de</i>		
23.	<i>dans les limites de</i>		
24.	<i>dans les marges de</i>		
25.	<i>dans le cadre de</i>		
26.	<i>dans les bornes de</i>		
27.	<i>dans les limites de</i>		
28.	<i>dans les marges de</i>		
29.	<i>dans l'esprit de</i>		

**Topshiriq-7.** Holat kategoriyali FBlarni badiiy asar matnlaridan toping va ularni o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tasniflang.



**MUSTAQIL ISH  
TOPSHIRIQLARI :**

1. *Jismoniy harakat orqali holatni ifodalovchi fe'lli FBlarga misollar toping va ular asosida tahliliy mazmunda ilmiy maqola yozing.*
2. *Aqliy harakat orqali holatni ifodalovchi fe'lli FBlarga misollar toping va ular asosida tahliliy mazmunda ilmiy maqola yozing.*
3. *Nutqiy harakat orqali holatni ifodalovchi fe'lli FBlarga misollar toping va ular asosida tahliliy mazmunda ilmiy maqola yozing.*
4. *Holat orqali holatni ifodalovchi fe'lli FBlarga misollar toping va ular asosida tahliliy mazmunda ilmiy maqola yozing.*



## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI STRUKTUR JIHATDAN TAHLIL QILISH TAMOYILLARI (*faire + nom* strukturali iboralar misolida)

**Darsning maqsadi:** Talabalarda frazeologik birliklarning struktur xususiyatlarini *faire+nom* strukturali frazeologizmlar orqali tushuntirish hamda ular bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

### Reja :

1. Fransuzcha *faire+nom* strukturali iboralarning leksik-semantik xususiyatlari.
2. Fransuzcha *faire+nom* strukturali frazeologizmlardagi sinonimik substitutsiya holati.

**Tayanch iboralar:** *frazeologik birlik, komponent, ochiq strukturali, yopiq strukturali, struktur model.*

### **1.Fransuzcha *faire+ot* strukturali iboralarning leksik-semantik xususiyatlari**

Ma'lumki, frazeologik birliklar deyilganda, tilda tayyor holda mavjud bo'lgan, nutqqa shundayligicha olib kiriladigan, shaklan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan, mazmuni esa ko'chma ma'noga asoslangan til birliklari tushuniladi. Ikki yoki undan ortiq so`zlardan tashkil topgan frazeologik birliklar ma'lum bir tushunchani ifodalashi va bir so`zga ekvivalent bo`lishi mumkin. Odatda ular bir so`zli sinonimik ekvivalentga ega bo`ladi hamda sintaktik jihatdan gapning bir bo`lagini hosil qiladi.

Tilda frazeologik birliklar o'zlarining tuzilishiga ko'ra nihoyatda rang-barang olamni o`zida namoyon eta oladi. Ayniqsa, ularning tarkibiy elementlari o'rtasidagi semantik bog'lanishlar turlicha munosabatlarni ifodalashi orqali ajralib turadi. Bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so`zlar o'zlarining ma`no mustaqilligini ma'lum darajada, ya'ni kuchli yoki kuchsiz darajada saqlab qoladi. Frazeologik birliklarning nutqqa tayyor holda olib kirilishi ularning til hodisasi sifatida ta'rifshni taqozo etadi. Xususan, frazeologik birliklar ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan til birligi sifatida talqin qilinganda ularning aynan ana shu jihatni e'tiborga olinadi. Shunday ekan, ularni struktur jihatdan o'rganish ham tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelgan. Ushbu o'rinda ularning bunday struktur xususiyatlarini ***faire*** fe'li ishtirokidagi frazeologik birliklar misolida ko'rib chiqmoqchimiz.

Fransuz tilida eng ko'p qo'llaniladigan *faire* fe'li ko'p funksiyali fe'llardan bo'lib, u fransuz tilida o'zining leksik ma'nosidan tashqari, grammatik ma'no berish yoki turli xil fe'lli iboralarni yasash uchun xizmat qiladi. Avvalo, *faire* fe'lining lug'aviy ma'nolariga e'tibor qilaylik. U quyidagi ma'nolarni ifodalaydi :

<b><i>faire</i> fe'lining lug'aviy ma'nolari:</b>		
✓ qilmoq; ✓ tayyorlamoq ; ✓ yasamoq; ✓ bajarmoq ;	✓ mashg'ul bo'lmoq ; ✓ tayinlamoq ; ✓ chiqarmoq; ✓ ishlab chiqarmoq ;	✓ chorlamoq; ✓ taklif qilmoq; ✓ sabab bo'lmoq ; ✓ kashf qilmoq.

Bu fe'l frazeologik birliklar tarkibida kelganda o'zining yuqoridaagi lug'aviy ma'nolarini yo'qotadi va birikma tarkibidagi boshqa so'zlar bilan birgalikda batamom yangicha ma'no kasb etadi. Masalan:

- *faire balle - nishonga urmoq;*
- *faire ballon - qamoqda o'tirmoq.*

Fransuz frazeologiyasida *faire* fe'li yordamida ko'plab frazeologik iboralar paydo bo'lgan. Ularning orasida aynan *faire+ot* shaklidagi va shu shaklda davom etuvchi iboralar o'ziga xos turg'unlik xususiyatiga ega bo'lgan iboralar sirasiga kiradi. Binobarin, *faire+ot* shaklidan ham ko'rinish turibdiki, ot so'z turkumiga xos so'zning okkazional tarzda, ya'ni grammatik qoidalarga bo'ysinmagan holda fe'ldan so'ng artiksiz qo'llanilishi ularning sof turg'un birikma ekanligini ko'rsatadi. Masalan, quyidagi iboralarga e'tibor qilaylik:

- *faire autorité - obro'sidan (mansabdan) foydalanmoq;*
- *faire arme de tout - barcha choralarni ishga solmoq;*
- *faire affaire - kelishib olmoq;*
- *faire amitié avec qn.- birov bilan do'stlashmoq;*
- *faire banqueraute - tanazzulga uchramoq, sinmoq.*

Fransuz tilidagi bu turdag'i iboralarni ularni tashkil qiladigan komponentlari soniga ko'ra ikki va undan ortiq komponentli turlarga ajratish mumkin. Masalan:

Ikki komponentli FBlar	O'zbekcha tarjimasi	Uch va undan ortiq komponentli FBlar	O'zbekcha tarjimasi
<i>faire loi;</i>	<i>xo'jayinlik qilmoq;</i>	<i>faire arme de tout ;</i>	<i>barcha choralarni ishga solmoq;</i>
<i>faire balle ;</i>	<i>nishonga urmoq;</i>	<i>faire maison neuve ;</i>	<i>tag-tubi bilan yangilamoq;</i>
<i>faire eponge;</i>	<i>hamma narsani o'ziga olmoq;</i>	<i>faire match nul ;</i>	<i>durang o'ynamoq ;</i>
<i>faire mouche ;</i>	<i>maqsadga erishmoq, mo'ljalga urmoq ;</i>	<i>faire main basse sur... ;</i>	<i>birovning adabini bermoq;</i>

Fransuzcha *faire+ot* ko'rinishida boshlanadigan uch va undan ortiq komponentli FBlar tarkibida predloglar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan, *de* predlogi bunday turdagи FBlar tarkibida juda keng tarqalgandir. Biroq *sur, en, avec* predloglari esa ayrim hollardagina uchraydi. Fransuz tilidagi *de* predloggingin ham bir necha ma'nolari, ya'ni, yo'nalish ma'nosidagi - *dan*, tegishlilik ma'nosidagi - *ning*, hamda *haqida* kabi ma'nolari mavjud bo'lib, ushbu turdagи FBlar tarkibida esa faqat tegishlilik ma'nosidagi - *ning* qo'shimchasi ma'nosida ishlatiladi. Masalan:

- *faire acte de présence* - *xizmat yuzasidan hozir bo'lmoq* ;
- *faire acte de bonne volonté-bajonidil xohlamoq*;
- *faire acte de complaisance-* *muruvvat qilmoq* ;
- *faire arme de tout-* *barcha choralarни ishga solmoq*;
- *faire acte de déférence-yon bosmoq, hurmat qilmoq*;
- *faire acte de contrition-* *tavba qilmoq*.

Keltirilgan bu misollardan *faire+ot* shaklidagi FBlar strukturasiga oid yana bir xususiyatni anglash mumkin. Bu xususiyat ularning *acte* so'zi ishtirokidagi ma'lum bir struktur modelga ega ekanligidan iborat. Ya'ni bu struktur model *faire + acte + de ...* strukturasini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, *faire+ot* shaklidagi FBlar strukturasiga ko'ra ochiq va yopiq strukturali FBlarga bo'linadi. Bunda ochiq strukturali FBlar ma'no nuqtayi nazardan tugallikka ega bo'lmaydi, yopiq strukturali FBlar esa tugal ma'noni aks ettira oladi. Biroq ular orasida yopiq strukturali FBlar fransuz frazeologiyasida ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan:

Yopiq strukturali FBlar :

- *faire balle* - *nishonga urmoq*;
- *faire ballon* - *qamoqda o'tirmoq*.

Ochiq strukturali FBlar :

- *faire main basse sur...* - *birovning adabini bermoq*;
- *faire oeuvre de...* - *o'zini xuddi ...dek tutmoq*.


Fransuz tilidagi *faire+ot* shaklidagi FBlarning semantikasiga e'tibor qilsak, ular orasida ko'p ma'noli, aynan ikki xil ma'noli FBlar ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan:

- *Faire corps neuf (avec)* - **a)***kasalllikdan so'ng sog'aymoq*;  
**b)***semirmoq* ;
- *Faire main basse sur...* - **a)***birovning adabini bermoq* ;  
**b)***birovga qo'pol muomala qilmoq*;
- *Faire naufrage* - **a)***taqdirga tan bermoq* ;  
**b)***halok bo'lmoq, g'oyib bo'lmoq*;
- *Faire état de...-* **a)***ni hisobga olmoq* ;  
**b)** ... *ni hurmat qilmoq*;
- *Faire oeuvre de...-* **a)***o'zini xuddi ...dek tutmoq* ;  
**b)***birovning xizmatini qilmoq*.

## 2. Fransuzcha *faire+nom* strukturali frazeologizmlardagi sinonimik substitutsiya holati

Bunday turdagи frazeologizmlarda struktur tarkibdagi asosiy komponentlar, ya'ni fe'l so'z turkumiga tegishli *faire* fe'li hamda ot so'z turkumiga tegishli otlar o'zining sinonimik qatorlari bilan o'zaro almashinish – substitutsiya holatini uchratish mumkin. Tishunoslarning fikricha bunday almashinish natijasida leksik birliklar o'zlarining sof lug'aviy ma'nosini yo'qotishi mumkin<sup>1</sup>.

Fransuzcha *faire+nom* strukturali FBlarda fe'lning sinonimik variantlari bilan almashinish holatiga e'tibor qilaylik. Bunday strukturali FBlar tarkibidagi *faire* fe'li quyidagi fe'llar bilan almashinishi mumkin:



Fransuzcha *faire +nom* strukturali FBlarda ikkinchi komponent – otning ham sinonimik qatorlari bilan o'rın almashinish holati:

1. *faire l'enfant* – *faire le bbe*;
2. *faire un bout de toilette* – *faire un brin de toilette* ;
3. *faire un brin de cour* – *faire un doigt de cour* ;
4. *faire le beau* – *faire la belle*.

Bunday substitutsiya holatiga uchragan FBlar tarkibiy o'zgarishlaridan qat'iy nazar o'zlarining asosiy frazeologik ma'nolarini o'zgartirmaydi. Fransuz frazeologiyasida aynan *faire+nom* strukturali FBlar tarkibida asosan, sinonimik substitutsiya uchraydi, biroq antonimik substitutsiya esa deyarli uchramaydi.

Bunday sinonimik substitutsiya natijasida *faire+nom* strukturali FBlarga xos variantlanish hodisasi paydo bo'ladi. Binobarin, FBlar tarkibidagi ma'lum bir komponent shu turkumdagi boshqa bir komponent bilan almashishiga qaramasdan, frazeologik ma'noda o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Variantlanish holati nafaqat mustaqil ma'noli leksik birliklarda, balki, yordamchi unsur sanalgan determinativlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan:

1. Artikllar orqali:
  - *faire un dpot* - *faire le dpot* ;
  - *faire les avances* - *faire des avances* ;


<sup>1</sup> Gross G. Les expressions figes en franais: noms composs et autres locutions / Gaston Gross. — Paris: Ophrys, 1996. — 124 p

- *faire le bout – faire les bouts* ;
  - *faire la chambre - faire les chambres* ;
2. Artikl va egalik sifatlari orqali:
- *faire le capon - faire son capon* ;
  - *faire une déclaration - faire sa déclaration* ;
  - *faire la cuisine - faire sa cuisine* ;
3. Artikl va predlog orqali:
- *faire la morale - faire de la morale* ;

## X U L O S A

Xulosa tariqasida shularni qayd etish mumkinki, *faire+nom* strukturali FBlar tarkibini tahlil qilish orqali ulardagagi okkazional xususiyatlarni, sinonimik substitutsiya holatini va uning natijasida paydo bo'ladigan variantlanish hodisasini tadqiq etish mumkin. FBlarni bunday struktur modellashtirish orqali tadqiq etish tilshunoslarni o'tgan asrdan buyon qiziqtirib kelishiga qaramasdan, fransuz frazeologiyasida hanuz o'z tadqiqini kutayotgan boshqa turli xil modellar mavjud bo'lib, ularni ketma-ket izchil tarzda o'rganish fransuz frazeologiyasi muammolari doirasini ma'lum darajada toraytirishga xizmat qiladi.

Ma'lum bir kichik obyekt misolida bu kabi frazeologik muammolarni tadqiq etish tildagi ayrim lingvistik muammolar yechimini topishga yordam beradi hamda FBlarga xos struktur xususiyatlarning frazemalar ichki sistemasiidagi semantik jihatlarini kashf etish imkonini beradi. Shuningdek, FBlarni modellashtirish jarayonida, qolaversa, ularning hali o'rganilmagan struktur turlarini tadqiq qilish jarayonida keng imkoniyatlar eshigini ochishga yordam beradi.



## G L O S S A R I Y :

<i>leksik ma'no</i>	So'z anglatadigan ma'no bo'lib, u kishi ongida yuzaga keladigan mazmuniy tushuncha, u boshqacha qilib "lug'aviy ma'no" deb nomlanishi ham mumkin. Masalan, « <i>Bolalarni o'ynatdik</i> » gapidagi <u>birinchi so'z</u> hali yosh, voyaga etmagan odamni, go'dakni, <u>ikkinchi so'z</u> esa harakatni (bola bilan bog'langan harakatni) bildiradi. Demak, « <i>bola</i> » va « <i>o'yna</i> » so'zlaridan ifodalanadigan konkret ma'nolar shu so'zlarning leksik ma'nolaridir.
<i>grammatik ma'no</i>	So'zning biror bir so'z turkumiga xos belgisi, so'z birikmasi va gapdagi vazifasini ko'rsatuvchi xususiyati grammatik ma'no deyiladi. Demak, so'zning morfologik va sintaktik xususiyati uning grammatik ma'nosini tashkil etadi.

<i>okkazio-nallik</i>	Xususiy kontekstlarda uchraydigan noodatiylik yoki g'ayrime'yoriylik. Masalan, grammatik me'yorlarga mos kelmaslik.
<i>komponent</i>	Biron til (nutq) birligining tarkibiy qismi: <i>So'z birikmasining komponentlari</i> . <i>Qo'shma so'zning komponentlari</i> . Masalan, <i>courir vite iborasidagi courir</i> va <i>vite shu iboraning komponentlari</i> , ya'ni tarkibiy qismlari hisoblanadi.
<i>variant-lanish</i>	Frazeologizmlarning variantlanishi ulardag'i komponentlarning almashtirilishi (substitutsiya qilinishi), qo'shilishi, tushirib qoldirilishi va transformatsiya qilinishi bilan bog'liq.
<i>modellash-tirish</i>	Ma'lum bir til birliklarini bir xillik va o'xshashlik xususiyatlarini umumlashtirish uchun foydalilaniladigan qoliplash jarayoni.
<i>substi-tutsiya</i>	Ma'lum bir element o'rniiga boshqa elementning almashinish holati.



### SAVOLLAR :

1. FBlarni tashkil etuvchi komponentlarning leksik ma'no mustaqilligi ular ifodalayotgan yaxlit frazeologik ma'noga nisbatan qanday aks etadi?
2. Fransuz tilidagi *faire fe'*lining grammatik ma'no ifodalash xususiyati qaysi o'rnlarda namoyon bo'ladi?
3. Aynan *faire+ot* shaklidagi frazeologizmlar o'zining qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
4. Fransuz tilidagi *faire+ot* strukturali FBlarning okkazional tarzda aks etishini qanday tushunasiz?
5. *Faire+ot* strukturali FBlarning qo'shimcha komponentli turlari qaysi leksik vositalardan iborat bo'lishi mumkin?
6. *Faire+ot* strukturali FBlarning qo'shimcha komponentli turlarida nima uchun tegishlilik ma'nosi ustun turadi?
7. Iboralar tarkibida sodir bo'ladigan substitutsiya hodisasining lingvistik mohiyati nimadan iborat?
8. Frazeologiyada substitutsiya hodisasi natijasida qaysi semantik hodisa yuz beradi?



## AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

**Topshiriq-1.** Ma'ruza matnini o'rghanib, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

No	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To'g'	Xato	Ma'lum emas
1.	FBlar deyilganda, tilda tayyor holda mavjud bo'lgan, shaklan so'z, so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan, til birliklari tushuniladi.			
2.	Fransuz tilidagi <i>faire+ot</i> shaklidagi FBlar asosan, ikki xil ma'noli bo'lgani uchun fransuz frazeologiyasida semantik hodisalardan polisemiya hodisasi dominantlik qiladi.			
3.	<i>Faire balle;</i> va <i>faire ballon</i> frazeologizmlari tarkibidagi asosiy fe'l o'zining lug'aviy ma'nosini yo'qotgan.			
4.	<i>Faire+ot</i> strukturali FBlar okkazional xususiyatlarga asoslanishi orqali ularning frazeologik ma'nolarida semantik o'zgarishlar yuzaga keladi.			
5.	<i>Faire état de...;</i> <i>faire oeuvre de...;</i> iboralari ochiq strukturali iboralar hisoblanadi.			
6.	<i>Faire+ot</i> strukturali FBlar ochiq va yopiq strukturali FBlarga bo'linadi. Yopiq strukturali FBlar fransuz frazeologiyasida mazkur strukturali iboralarning yarmini tashkil etadi.			
7.	<i>Faire fe'lining lug'aviy ma'nolari: qilmoq; tayyorlamoq ; yasamoq; bajarmoq;</i> kabi ma'nolarni ifodalaydi.			
8.	Ikki komponentli <i>faire arme de tout</i> va <i>faire maison neuve</i> iboralarida <i>faire fe'li</i> o'zining sof leksik ma'nosini yo'qotgan.			

**Topshiriq-2.** Quyidagi *faire+nom* strukturali FBlarning leksik muqobilini toping va ular orasida okkazional variantlar mavjudligini aniqlang:

**Namuna:** Elle fait du cheval. – *faire du cheval* = Monter / non occasionnelle ;  
1. *Elle fait du cheval.*

2. Il fait du tennis.
3. Je fais du piano/de la guitare.
4. Je fais médecine.
5. Il faut faire la queue.
6. On va faire un tour, une balade ?
7. Si cela ne te fait rien, je vais partir.
8. Hugo fait la grasse matinée le dimanche.
9. David fait l'école buissonnière.
10. On se fait un restau/un cinéma/une petite bière ?
11. Julien fait la cuisine.
12. Marie fait le repas.
13. Arnaud fait un cadeau à sa femme.
14. Il ne s'en fait pas.
15. Fais attention !
16. On fait une fête.
17. Nous avons fait la connaissance de Jeanne à cette soirée.
18. Vous faites une liste ?
19. Je fais un poème.
20. Ça fait dix euros.
21. Il fait un mètre soixante-quinze.
22. Elle fait cinquante kilos.
23. Tu vas faire les courses.
24. J'aime faire les boutiques.
25. Nous faisons des photos.
26. Il a fait plusieurs films.
27. On doit faire la route de nuit.
28. L'ouvrier a fait sa maison.
29. J'ai fait une erreur.
30. Tu as fait peur à ta mère.

**Topshiriq-3.** Quyida berilgan ikki ma'noli FBlarning har bir ma'nosiga alohida gap tuzing:

Nº	Faire+ot strukturali FBlar:	1-ma'nosi:	2-ma'nosi:
1.	Faire corps neuf (avec)	a)kasalllikdan so'ng sog'aymoq;	b)semirmoq ;
2.	Faire main basse sur...	a)birovning adabini bermoq ;	b)birovga qo'pol muomala qilmoq;
3.	Faire naufrage	a)taqdirga tan bermoq ;	b)halok bo'lmoq, g'oyib bo'lmoq;
4.	Faire état de...	a)... ni hisobga olmoq ;	b) ... ni hurmat qilmoq;

5.	<i>Faire oeuvre de...</i>	<b>a)</b> o'zini xuddi ...dek tutmoq ;	<b>b)</b> birovning xizmatini qilmoq.
----	---------------------------	--	---------------------------------------

**Topshiriq-4.** Quyidagi jadvalda berilgan FBlarning o'zbekcha talqinini toping:

Nº	<i>Faire+ot</i> strukturali FBlar:	O'zbekcha talqini:	FBlarning substitutsiyalı varianti:	O'zbekcha talqini:
1.	<i>Faire un chopin;</i>		<i>trouver un chopin;</i>	
2.	<i>Faire les cartes;</i>		<i>tirer les cartes;</i>	
3.	<i>Faire le cafard;</i>		<i>flanquer le cafard;</i>	
4.	<i>Faire la corvé;</i>		<i>travailler la corvé;</i>	
5.	<i>Faire le bilan;</i>		<i>dresser le bilan;</i>	
6.	<i>Faire la dame;</i>		<i>jouer la dame;</i>	
7.	<i>faire l'enfant;</i>		<i>faire le bébé;</i>	
8.	<i>faire un bout de toilette;</i>		<i>faire un brin de toilette;</i>	
9.	<i>faire un brin de cour;</i>		<i>faire un doigt de cour;</i>	
10.	<i>faire le beau;</i>		<i>faire la belle;</i>	



**MUSTAQIL ISH  
TOPSHIRIQLARI :**

1. Tegishli frazeologik lug'atlardan *faire+ot* strukturali iboralar bo'yicha yordamchi unsur sanalgan determinativlarning variantlanish holatiga qo'shimcha misollar toping.
2. Fransuz frazeologiyasida *prendre+ot*, *mettre+ot* va boshqa strukturali frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlangan tahliliy mazmundagi ilmiy maqola yozing.
3. Quyidagi misollar tarkibidagi faire komponentli iboralarni o'zbekcha talqin qiling va struktur tahlil qiling:

1. Le *Duncan*, nouvellement construit, était venu faire ses essais à quelques milles au déhors du golfe de la Clyde, et cherchait à rentrer à Glasgow : (*Jules Verne, ECG* : 6)
2. Il m'est impossible de ne pas être de votre avis, répondit le major, et ce vase fragile, protégé par son enveloppe de pierre, a pu faire un long voyage. (*Jules Verne, ECG* : 15)

3. Est-ce en français, demanda le major, en anglais ou en allemand que vous allez faire cette traduction ? (*Jules Verne, ECG* : 27)
4. Lord Glenarvan possédait une fortune immense ; il l'employait à faire beaucoup de bien ; (*Jules Verne, ECG* : 37)
5. Lorsque le premier accès de cette joie douloureuse fut passé, la jeune fille se laissa aller à faire des questions sans nombre ; (*Jules Verne, ECG* : 45 )
6. Le *Duncan* est un brave et bon navire ! il peut affronter les mers du sud ! il peut faire le tour du monde, et il le fera, s'il le faut ! (*Jules Verne, ECG* : 60)
7. Quant au jeune Robert, il se fut caché dans la cale du yacht plutôt que de ne pas partir ; eut-il dû faire le métier de mousse, comme Nelson et
8. Franklin, il se serait embarqué sur le *Duncan*. (*Jules Verne, ECG* : 66 )
9. « Voici le capitaine, dit Olbinett.  
– Ah ! enchanté, s'écria l'inconnu, enchanté, capitaine Burton, de faire votre connaissance ! » (*Jules Verne, ECG* : 85 )
- 10.- A votre aise, monsieur Paganel, répondit John Mangles ; je suis certain que la science géographique gagnera à votre séjour dans les îles du Cap-Vert. Nous devons précisément y relâcher pour faire du charbon. Votre débarquement ne nous causera donc aucun retard. » (*Jules Verne, ECG* : 106)
- 11.-Au moins. Les îles du Cap-Vert ne sont pas très fréquentées des navires pendant la saison des pluies. Mais vous pourrez employer votre temps d'une façon utile. Cet archipel est encore peu connu ; en topographie, en climatologie, en ethnographie, en hypsométrie, il y a beaucoup à faire. (*Jules Verne, ECG* : 109 )
12. –Croyez-moi. Laissez faire le hasard, ou plutôt la Providence. Imitez-nous. Elle nous a envoyé ce document, nous comme ses partis. Elle vous jette à bord du *Duncan*, ne le quittez plus. (*Jules Verne, ECG* : 114 )

**MAVZU – 4****Ma'ruza matni**

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI LEKSIK-SEMANTIK JIHATDAN  
TAHLIL QILISH TAMOYILLARI:  
FRANSUZ TILIDA FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA HODISASI**

**Reja :**

1. Leksik antonimiya va uning ifodalanish xususiyatlari.
2. Frazeologik antonimiya va uning ifodalanish xususiyatlari.
3. Komparativ frazeologik birliklar antonimiyaning asosiy vositasi sifatida.

**Tayanch iboralar:** *antonimiya hodisasi, leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, antonimik prefikslar, qarama-qarshi ma'no.*

**1. Leksik antonimiya va uning ifodalanish xususiyatlari**

Til universaliyalaridan biri sanalgan antonimiya hodisasi qarama-qarshi turish kategoriyasini o'zida aks ettirgan holda tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik shakllar orqali ifodalanadi<sup>1</sup>. Tildagi ushbu qarama-qarshilik kategoriyasi, ya'ni antonimiya hodisasi til lug'at tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu leksik hodisaga nisbatan keltirilgan quyidagi ta'riflar ham yuqoridagi fikrimiz dalilidir: *Antonymie : relation entre deux mots de sens opposée<sup>2</sup>; Le terme d'antonymie est, en générale, utilisée dans les dictionnaires pour suggérer qu'il y a un relation d'opposition ou de contrariété entre deux termes<sup>3</sup>.*

V.Fon Gumboldt tilshunoslik fani muammolarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim bo'lib, u tilshunoslikni tarixiy, falsafiy, etnografik kabi fanlar qatoriga qo'shishga harakat qilgan. Uning ta'rifisha, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir<sup>4</sup>. Shuning ushun ham tilni ilmiy o'rganishda, uning asosiy mohiyatini tushunishda antonimik (qarama-qarshi) metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Mazkur mavzuni yoritishda quyidagi manba to'liq asos qilib olindi : Suvanova N., Islamova O. LEKSIK VA FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA HODISASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (fransuz tili materialida) / Cўз санъати халқаро журнали, 2021, 4-жилд, 5-сон. Б.128-135.

<sup>2</sup> M.F.Mortureux. *La lexicologie entre langue et discours*. Armand Collin VUEF, 2001. -P. 188.

<sup>3</sup> M.Arrivé, F.Gadet, M.Galmiche. *La grammaire d'aujourd'hui*. -Paris, 1986. -P. 66.

<sup>4</sup> [www.mnogobook.ru](http://www.mnogobook.ru) / Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. — Москва: ОАО ИГ «Прогресс», 2000. - 400 с.

Mohiyatan grek tilidan o`zlashgan *anti* ("en face de, contre et de onoma" significant "nom" ou "mot") so`zi qarama-qarshi ma`nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi<sup>1</sup>. Til universaliyalaridan biri sanalgan antonimlar asosini esa antiteza tashkil etadi. Binobarin, antiteza badiiy asarlarda keng qo`llaniluvshi hamda ma`no jihatdan ifodali g`oyalar va so`zlarning tabiiy oppozitsion usulidir<sup>2</sup>. Masalan :

"Rien n'est si dangereux qu'un ignorant ami;

*Mieux vaudrait un sage ennemi.*" (Jean de LA FONTAINE *Fables*)<sup>3</sup>.

Fransuz tilida antonimlarning yasalish usullari bir qansha holatlarda yuzaga keladi. Masalan: ikki so`zga bir xil suffiksning qo`shilishi orqali:

*Anglophile- Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarni yoqlash.;*

*Anglophobe- Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi odam;*

*centrirète-markazga intiluvchi;*

*centrifuge-markazdan qochuvchi.*

Bu misollarda qisqartma so`zlarning almashinishi orqali antonimik leksemalarni yashash mumkinligi ifodalangan.

Bundan tashqari bir o`zakli so`zga *in-/il-/im-/ir-* kabi prifekslarning qo`shilishi orqali ham antonim so`zlarni hosil qilish barcha tillarga xos sermahsul usullardan biridir. Masalan: *capable-qobiliyatli / incapable-qobiliyatsiz; lettré-savodli / illettré-savodsiz; prudence-ehtiyotkorlik / imprudence-ehtiyotsizlik; réel-real / irréel- noreal;*

Shuningdek, *mal-/mé-, dis-, a- /an-* prifekslarining sifat yoki ot oldidan qo`shilishi orqali ham antonimik so`zlarni hosil qilish mumkin. Masalan: *aimé-sevilgan / mal-aimé-sevilmagan, yomon ko`rilgan; entente-kelishuv / mésentente-kelishmovchilik; courtois-xushmuomalali / discourtois-muomasiz; normal-normal, o`rtacha / anormal-odatdagidek bo`lmagan ;*

Fransuz tilida antonimik so`zlar aynan fe'llar misolida ko'rib shiqilganda, ularning *dé-/dés-, mé-/més-* kabi prifekslar orqali hosil bo'lishi eng sermahsul usullardan biri sanaladi. Masalan: *faire-qilmoq, bajarmoq / défaire-buzmoq, s'intéresser-qiziqmoq / se désintéresser-befarq qaramoq, connaître-tanimoq, bilmoq / méconnaître-tanimaslik, bilmaslik.*

Bundan tashqari, fransuz tilida antonimlar yashashning shunday bir turi mavjudki, ular prefikslar o'rnida ishlatalib, ma`no jihatdan ham ancha antonimik xususiyatlarni o`zlarida aks ettiradi. Masalan, quyidagi misollrga e'tibor qilaylik, ular *hypo/hyper, sous/sur, micro/macro* kabi antonimik prefikslarni o'z ishiga oladi. Masalan:

*Hypocalorique-kam kaloriyalı, Hypercalorique-ko`p kaloriyalı;*

*Sous-estimer- past baho bermoq, nazar - pisand qilmaslik ;*

*Sur-estimer- ortiqcha, yuqori baho bermoq ;*

<sup>1</sup> Sylvie Blanchard, Dominique Korach, Jean Pencreach, Mériem Varone. *Vocabulaire*. - Paris : Editions Nathan 1995, -P. 169.

<sup>2</sup> Abdouchoukourova L.A. Stylistique du français modern. – Tachkent, 2004 . -P. 30.

<sup>3</sup> [beg.ebooksgratuits.com](http://beg.ebooksgratuits.com) // Lafontaine-fables.

*Microcosme-mikrokosm (mikroskop orqaligina ko'rinaradigan kishik unsur);*

**Masrocosme- koinot, olam;**

Son oppozitsiyasini yasashda **mono/poly, uni/omni, uni/bi** prifekslarining o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Masalan:

**Monogame-bir nikohli, monogam, bir jinsli;**

**Polygame-ko`p xotinli, ko`p nikohli;**

**Unidirection-yagona boshqaruv;**

**Omnidirection-ko`p tarmoqli boshqaruv;**

**Unilateral-bir tomonlama, bir tomonga yo'naltirilgan;**

**Bilateral-ikki tomonlama, ikki yoqlama;**

Ikki hodisa o`rtasidagi qarama-qarshi holatni yuzaga keltiriadigan yana shunday prefiksal shakllar mavjudki, ular berilgan so'zning ma`no ko`lamini o`zgartirishga xizmat qiladi. Bular quyidagilardan iborat : **exo-endo, extra-intro, intra / ex - in, im / infra - supra, super** . Ularga shunday misollar keltirish mumkin:

*Exogène-(qui provident de l`extérieur);*

*Endogène-(qui prend naissance à l'intérieur);*

*Extraverti-odamga qo`shiladigan, ulfat bo`ladigan, dilkash;*

*Introverti-odamovi, o`zi bilan o`zi ovora bo`luvchi odam;*

*Exporter-jo`natmoq - importer-qabul qilmoq;*

*Infrastructurale- ishki struktural;*

*Superstrurturelle- tashqi struktural.*

Fransuz tilida vaqt konseptini ifodalovshi oppozitsion prefikslar ham mavjud. Ular fransuz tilida **néo/paléo, anti/post, avant/après, pro/retro** kabi prefikslardir:

*Néolithique-neolitik yangi tosh davri;*

*Paléolithique-paleolit, eng qadimgi tosh davri;*

*Antidater-o`tgan, o`tib ketgan sana bilan rasmiylashtimoq;*

*Postdater-oldingi sana bilan belgilamoq;*

*Avant-guerre-urushdan oldin;*

*Arrès-guerre-urushdan keyin;*

*Progressive-jamiyatning ertangi rivojiga oid;*

*Retrospective-o`tmishga qaratilgan, o`tmishga oid.*

Shu tariqa fransuz tilida antonimik so'zlarning yasalish usullaridan prefiksasiya usuli juda keng tarzda mavjud ekanligini ta'kidlash o'rinnlidir.

Yuqorida keltirilgan ushbu holatlar fransuz tilidagi leksik antonimiya hodisasining yasalish usullari bo'lib sanaladi.

## **2. Frazeologik antonimiya va uning ifodalananish xususiyatlari**

Leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yiladi. Xuddi ushbu holat frazeologik birliklar ifodalaydigan semantik ma'nolarga nisbatan

qo'llanilganda, ikki frazeologik birlik o'rtasidagi qarama-qarshi ma'no, ya'ni *frazeologik antonimiya* hodisasi paydo bo'ladi. Masalan:

**n'avoir pas froid aux yeux;** → **avoir du sang de poulet;**

Ma'nosi : *être courageux*; → Ma'nosi : *être lâche, poltron, sans énergie*;

Tarjimasi : *mard, jasur bo'lmoq*; → Tarjimasi : *qo'rqoq, lapashang bo'lmoq*;

Agar fransuz tilidagi *courageux* va *lâche* so'zлari o'rtasidagi qarama-qarshi ma'noni so'zlararo amalga oshayotganligini inobatga olgan holda *leksik antonimiya*, deb hisoblasak, *n'avoir pas froid aux yeux* hamda *avoir du sang de poulet* kabi frazeologik birliklar o'rtasidagi qarama-qarshi ma'noning iboralararo amalga oshayotganligini inobatga olgan holda *frazeologik antonimiya* hodisasi, deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Biroq, frazeologiyada *leksik antonimiya* hodisasi ham mavjud bo'lib, bunda ushbu hodisa ikki qarama-qarshi ma'noli frazeologik birlik o'rtasida amalga oshmaydi, balki, bitta frazeologik birlik tarkibidagi ikki qarma-qarshi ma'noli so'zlar o'rtasida amalga oshadi. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

- *Qui ne travaille pas, ne mange pas.*  
- *Ishlamagan tishlamaydi.*
- *Avoir de bon et mauvais quarts d'heures.*  
- *Bir qarasa yomon, bir qarasa yaxshi bo'lmoq.*

Frazeologiyadagi bu kabi leksik antonimiya hodisasi frazeologik iboralarni tashkil etuvchi elementlardan asosan, *mustaqil ma'noli so'zlar, yordamchi so'zlar yoki so'z birikmalari* o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Xuddi shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, fransuz frazeologiyasida *leksik antonimiya* hodisasi juda keng tarqalgan bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibidagi qarama-qarshi ma'noli leksemalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

*Frazeologik antonimiya* umumlug'at antonimiyasiga xos masalalarning xususiy bir bo'lagi sifatida o'rganiladi. Shunday ekan, ushbu semantik kategoriyaga tegishli aloqaning xususiyatlari to'g'risidagi muammoning paydo bo'lishi tabiiydir.

Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish ma'no jihatdan zid tushunchalarga ega bo'lgan frazeologik birliklar ma'nosini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Shunga ko'ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o'rtasidagi majburiy bog'liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi. Umumiyl kategorial tushunchalarni o'zida aks ettirgan antonimik frazeologik birliklarning mantiqiy asosini bir-biriga zid bo'lgan tushunchalar tashkil etadi. Shu tariqa antonimiya hodisasi tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshilagini taqozo etadi va tilda til birliklarining semantik qarama-qarshi munosabatlarini kuzatadi<sup>1</sup>.

Tilshunoslikda frazeolgiyaga doir muammolar ko'plab taniqli tilshunoslardan tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan. Ayniqsa, antonim

<sup>1</sup> Цоллер В.Н. Эмоционально-оценочная энантиосемия фразеологизмов // Филологические науки. - М., 2000. - №4. - С. 56-57.

frazeologik birliklarning o'ziga xos leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari A.I.Alyoxina tomonidan batafsil ishlab chiqilgan<sup>1</sup>. Biroq, hozirgi kunda bu xususdagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda roman tillari (aynan fransuz tili) misolida sodda misollar va tushuntirishlar, qolaversa, ularning o'zbekcha talqini nuqtayi nazaridan tahlil qilish orqali antonim frazeologik birliklarga xos xususiyatlarni amaliy tarzda izohlash talab etiladi.

Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish mantiqiy jihatdan qarama-qarshi tushunchalarga ega bo'lgan frazeologik birliklar ma'nosini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Shunga ko'ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o'rtasidagi majburiy bog'liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi<sup>2</sup>.

Frazeologik antonimlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlar leksik antonimlar bilan taqqoslanganda tilshunoslik sohasida nisbatan yangi tadqiqot obyekti paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirgi zamon fransuz tilida, qolaversa, boshqa bir qator tillarda *leksik* va *frazeologik antonimlar* hech qachon qiyosiy tadqiq etilmagan.

Vaholanki, tadqiq qilinayotgan birliklarning borliq hodisalarini ifodalash qobiliyati bilan belgilanadigan mazmunga xos jihatlarini o'rganish tilda sistem aloqalarni o'rnatishni va shuningdek, til nominatsiyasi muammosini qayta ishslash bilan bog'liq bo'lgan muhim zaruratni keltirib chiqaradigan sabablarni o'rganishni taqozo etadi.

Fransuz tili frazeologiyasida antonimiya hodisasi insonlarning his-to'yg'ulari va ishki kechinmalarini ifodalash uchun keng qo'llaniladi. Masalan: *être content*-xursand bo'lmoq

*être mécontent* -xfafa bo'lmoq

Aynan simmetrik tarzda qarama-qarshi bo'lgan antonim FBlar ma'nosи jihatidan ham mazmuni jihatidan ham bir-biriga mos keladigan antonimlar hisoblanadi. Masalan:

- *Être fort de ...* - kuchli bo'lmoq  
*Être faible de ...* - kuchsiz bo'lmoq
- *Avoir la main heureuse* - omad kulib boqmoq  
*Avoir la main malheureuse* - omad yuz ugirmoq
- *Avoir peur de ...* - qo'rqmoq  
*Avoir du courage* - jasur bo'lmoq.

Aynan simmetrik bo'lмаган antonimiya, ya'ni bunga mazmun jihatdan qandaydir farq qiladigan antonimlar kiradi. Masalan:

- *avoir le cœur noyé* - juda ko'p suv ishmoq ;  
*avoir le gosier sec* - suvsizlikdan chanqamoq ;

<sup>1</sup> Алексина А.И.Фразеологическая антонимия в современном английском языке. (Пособие для студентов и преподавателей языковых и неязыковых вузов). - Челябинск, 1968. - 43 с.

<sup>2</sup> Тираспольский Г.И. Система языка и системность в языке//филологические науки. М., 1999, №6, -С. 37-38 .

- *vivre en seigneur* - boy-badavlat yashamoq ;  
 • *être dans le lac* - iqtisodiy tang ahvolda qolmoq.

### **3. Antonimik ma'noli komparativ frazeologik birliklar talqinining milliy-madaniy xususiyatlari**

Aynan simmetrik bo'lgan antonim FBlar va aynan simmetrik bo'limgan antonim FBlar fransuz frazeologiyasida ko'pchilikni tashkil etadi. Shunday ekan, fransuz tili frazeologik birliklari o'rtasidagi antonimiya hodisasini o'rganishda asosan, fransuzcha "*comme*" o'xshatish vositasi orqali ifodalangan frazeologik birliklar muhim o'rinn tutadi.

Fransuzcha "*comme*" komponentli frazeologik birliklar antonimik ma'no hosil qilishning eng sermahsul vositalaridan biri sanaladi. Fransuz frazeologiyasida bunday frazeologik birliklarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan:

- |   |   |
|---|---|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>fort comme un boeuf;</i></li> <li>• <i>rond comme une boule;</i></li> <li>• <i>fleurer comme baume;</i></li> <li>• <i>écrire comme un ange;</i></li> <li>• <i>froid comme (du, le, un) marbre;</i></li> <li>• <i>mince comme un fil;</i></li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>paresseux comme un Loir;</i></li> <li>• <i>sobre comme un shameau;</i></li> <li>• <i>doux comme un agneau;</i></li> <li>• <i>mou comme du cotton;</i></li> <li>• <i>savant comme un livre;</i></li> <li>• <i>muet comme une carpe.</i></li> </ul> |
|---|---|

Fransuz tilida "*comme*" komponenti ishtirokidagi bunday frazeologik birliklar asosan sifatli va fe'lli frazeologik birliklarni tashkil etadi. Ma'lumki, antonimik ma'no hosil qilish morfologiyada ham asosan sifatlar orasida juda keng tarqalgan. Biroq ularni o'zbek tiliga talqin qilishda aynan ulardagi o'xshatish komponentlari bo'yicha ancha e'tiborli bo'lish talab etiladi.

Tilda mavjud o'xshatish vositalari asosan ma'lum bir obyekt boshqa bir obyektning xususiyatiga ko'ra o'xshash ekanligini ifodalashga qaratilgan bo'ladi. Lekin fransuzcha "*comme*" komponentli frazeologik birliklarni boshqa tillarga talqin qilishda ularning ikki tomonidagi o'xshatish obyektlari aynan tarjima qilinsa, talab qilingan ma'no kelib chiqmasligi mumkin. Masalan, *lent comme un escargot* iborasini olaylik. Ushbu frazeologik ibora o'zbek tiliga talqin qilinganda ularni aynan tarjima orqali talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Negaki, uni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, *chig'anoq kabi sekin* deb tarjima qilinadi. Ammo o'zbek tilida juda sekin harakatlanishga nisbatan *chig'anoq* obrazi emas, balki *toshbaqa* obrazi orqali ifodalash an'ana tusiga kirgan, ya'ni *lent comme un escargot* iborasi o'zbek tiliga *toshbaqadek sekin*, deb talqin qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu frazeologik birlikning antonimi, ya'ni bu ma'noga qarama-qarshi bo'lib hisoblangan *rapide comme l'éclair* iborasi o'zbek tiliga *yashin kabi tez*, deb talqin qilinadi. Chunki o'zbek tilida *yashin tezligida*

degan ibora mavjud. Shunga asosan *rapide comme l'éclair* iborasini *yashin kabi tez*, deb talqin qilish mumkin. Bunda fransuz tilidagi *l'éclair so'zi nur* yoki *yog'du* degan ma'noni anglatadi. Biroq u aynan tabiat hodisasi hisoblangan *yashin* ma'nosini anglatmaydi.

Bunday frazeologik iboralarni fransuz tilida ko'plab uchratish mumkin. Ularni boshqa tillarga tarjima yoki ma'nosini talqin qilish jarayonida asosan, ular tarkibidagi qiyoslash obyektlari muhim ahamiyatga ega. Agar ulardagi qiyoslash obyektlari fransuz tilida qanday bo'lsa, ularni boshqa tillarga o'girishda ham aynan shu obrazlardan foydalanilsa iboraning to'liq ma'nosini chiqmasligi mumkin. Bunday hollarda aynan ushbu iboraning shu tildagi variantlari bilan talqin qilish o'rinnlidir. Masalan, *laborieux comme une abeille* iborasini o'zbek tiliga *asalaridek mehnatkash* deb emas, balki, *chumolidek mehnatkash*, deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Bunday tashqari, fransuz tilida yana shunday iboralar uchraydiki, ularni o'zbek tiliga o'girishda o'xshatish obrazlarisiz tarjima qilinishi ham mumkin. Masalan, *paresseux comme un Loir* iborasini o'zbek tilida tushunarli bo'lishi uchun hech qanday qiyoslash obrazlarisiz *o'taketgan dangasa* yoki *o'ta yalqov* deb talqin qilish mumkin. Chunki, Fransiyadagi Luara daryosi eng sekin va tinch oqadigan daryo sanaladi. Shunga ko'ra *paresseux comme un Loir* iborasining so'zma-so'z tarjimasi *Luaradek dangasa* degan ma'noni anglatadi.

Biroq fransuzcha *comme* komponentli frazeologik birliklar orasida aynan qiyoslanish komponentlari bilan to'liq o'zbek tilidagi shakllariga mos keladiganlari ham uchraydi. Masalan, *leger comme un oiseau* iborasi o'zbek tiliga talqin qilinganda *qushdek yengil* ma'nosini anglatadi. Bunda *yengillik* xususiyatining ikkala tilda ham bir xil obraz, ya'ni *qush* obrazi bilan taqqoslanishini kuzatish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, *comme* komponentli fransuzcha antonimik ma'noli frazeologik birliklarni o'zbek tiliga talqin qilishda fransuz tilidagi qiyoslash obyektlari o'zbek tiliga umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda ularni ushbu til sohiblarining madaniyati va urfodatlaridan kelib shiqliq holda umumiyligini semantik ma'noni saqlagan tarzda talqin qilish maqsadga muvofiq. Qolaversa, A.M.Bushuy ta'kidlaganidek, tildagi FBlarni semantik nuqtayi nazardan, xususan, ularga xos emotsional baholash, obrazlilik, ekspressivlik kabi xususiyatlarni o'rganish orqali ularning milliylik xususiyatini ham ochib berish imkonini paydo bo'ladi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga

<sup>1</sup> А. Бушуй. Язык и действительность. – Ташкент: Фан, 2005. -С 102-103

xos xususiyatlari obyektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. Shunday ekan, FB tarkibidagi leksik antonimiya hodisasi semantik referensiallikning qaramaqarshi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi.

*Frazeologik antonimiya* hodisasi fransuz tilida umumiy tarzda quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

➤ **Leksik antonimiya:**

- *Bien mener sa barque - o'z ishini yaxshi olib bormoq ;*  
*Mal mener sa barque- o'z ishini yomon olib bormoq ;*
- *Il est facile de dire- aytish oson ;*  
*Il est difficile de dire- aytish qiyin;*

➤ **Morfologik antonimiya:**

- *C'est croyable - bo'lishi mumkin ;*  
*C'est incroyable -bo'lishi mumkin emas ;*

➤ **FB tarkibidagi ichki antonimiya:**

- *Il faut beaucoup faire et peu parler*  
*Ko`p ishla, oz so`zla.*
- *Se qu'on apprend au berceau dure jusqu'au tombeau.*  
*Beshikdan qabrgacha ilm izla.*
- *Bouche de miel, coeur de fiel*  
*Tili shakar, ichi zahar.*
- *Avoir de bon et mauvais quarts d'heures.*  
*Bir qarasa yomon, bir qarasa yaxshi bo'lmoq.*

➤ **Kontekstli antonimiya:**

- *Qui ne travaille pas, ne mange pas.*  
*Ishlamagan tishlamaydi.*

➤ **Ikkikarrali (dubl) antonimiya:**

- *Celui qui travaille mange la paille,*  
*Celui qui ne fait rien mange le foin .*

➤ **Mazmuniy antonimiya:**

- *n'avoir pas froid aux yeux - mard, jasur bo'lmoq;*
- *avoir du sang de poulet - qo'rqoq, lapashang bo'lmoq;*

## X U L O S A

Xulosa tariqasida aytadigan bo'lsak, til universaliyalaridan biri sanalgan *antonimiya* hodisasi tilning nafaqat leksik qatlamida balki, frazeologik qatlamida ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda ushbu hodisa *frazeologik antonimiya* deb yuritiladi va u ikki frazeologik birlik o'rtasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, frazeologiyadagi *leksik antonimiya* hodisasi ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida amalga oshadi. Ularning ifoda

<sup>1</sup> Suvanova, N.N., 2009. Adaptation of the principles of nomination of lexical and phraseological antonyms in language (on the example of French). In *Derivative laws of language development: Proceedings of the Republican scientific-theoretical conference.-Samarkand* (pp. 163-167).

vositalari esa xuddi tilning leksik qatlamidagi singari leksik birliklar yordamida aks etadi. Ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish kabi so'zlar shular jumlasidandir.

Shuni ta'kidlash joizki, qarama-qarshi turish, ya'ni antonimlik kategoriyasi tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik va frazeologik antonimlar orqali ifodalanadi. Tildagi bunday antonimiya hodisasi til lug'at tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanganligi bois ushbu hodisa tilning frazeologik sistemasida ham leksik sistemasidagi singari sinonimlar, polisemiyalar va antonimlarning paradigmatic munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Xususan, ular til lug'at tarkibini yagona bir sistemaga birlashtiruvshi asosiy vosita bo'lib hisoblanadi.

Leksik antonimiyaning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yiladi. Xuddi ushbu holat frazeologik birliklar ifodalaydigan semantik ma'nolarga nisbatan qo'llanilganda, ikki frazeologik birlik o'tasidagi qarama-qarshi ma'no, ya'ni *frazeologik antonimiya* hodisasi paydo bo'ladi.

Tilda *leksik antonimiya* hodisasi asosan, alohida so'zlarning turli xil qarama-qarshi ma'nolari hamda qarama-qarshi ma'noli affikslarning qo'shilishi orqali hosil qilinadi. *Frazeologik antonimiya* esa FBlar tarkibidagi leksik antonimiya, ya'ni qarama-qarshi ma'noli so'z-komponentlarning qo'llanilishi hamda FBlarning bir butunlikdagi semantik ma'nolari o'rtasidagi oppozitsiya orqali namoyon bo'ladi.

*Antonimiya* hodisasi frazeologik birliklarda kuzatilganda ularning maxsus lug'atlari shakllanmaganligi, qolaversa, ularning har birini alohida semantik ma'nolariga ko'ra farqlagan holda bir-biriga qarama-qarshi ma'nodagi FBlarni tanlash lozimligi ko'zga tashlanadi.



## GLOSSARY :

<i>antiteza</i>	- yunoncha <i>qarama-qarshi</i> qo'yish degani. Qiyoqlanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo'yishdan iborat uslubiy qo'llanishdir. Masalan: <i>yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar. Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin.</i>
<i>antonimlar</i>	- yunoncha <i>anti</i> - qarshi, zid, <i>onyma-nom</i> bo'lib, o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari. Leksik antonimlar: <i>yaxshi - yomon, uzun - kalta, cho'ziq - qisqa, qora - oq, chiroyli - xunuk.</i> Grammatik antonimlar: <i>-li - -siz, -ishli - ishsiz.</i> Frazeologik antonimlar: <i>ochiq ko'ngil - ichi qora, esiga kelmoq - yodidan ko'tarilmoq.</i>
<i>son</i>	-ma'lum bir obyektlarning son, ya'ni miqdor jihatdan qarama-

<i>oppozitsiyasi</i>	qarshiligi.
<i>simmetrik qarama-qarshilik</i>	- <i>simmetriya</i> - matematik termin hisoblanib, unda simmetriya o'qi va uning ikkala tomoni ham aynan bir xil bo'lishini anglatadi.
<i>"comme" komponentli FBlar</i>	- komparativ ma'noli, o'xshatish asosida hosil bo'lgan frazeologik birliklar.
<i>talqin qilish</i>	- aynan tarjima qilish emas, balki, mazmunni izohli tarzda tushuntirishdir.
<i>referent</i>	-lotincha <i>referens - xabar beruvchi</i> so'zidan olingan bo'lib, til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti bo'lib hisoblanadi.



### S A V O L L A R :

1. *Antonimiya* hodisasining lingvistik mohiyati nimadan iborat?
2. Antonimiya nazariyasi tilda qaysi mashhur tilshunos nomi bilan bog'liq va nima sababdan?
3. *Antonimiya* hodisasining *antiteza* hodisasi bilan qanday bog'liqligi mavjud?
4. Fransuz tilida *leksik antonimiyaning* qanday ifoda usullarini bilasiz?
5. *Leksik antonimiyaning* barcha tillarga xos sermahsul usullaridan qaysi biri juda keng tarqalgan usul sanaladi va nima uchun?
6. Prefiksatsiya usuli asosan qaysi so'z turkumlari bilan qo'llaniladi?
7. Fransuz tilida zamon va miqdor tushunchali oppozitsion prefikslardan qaysilari juda keng tarzda ishlatiladi?
8. Ikki frazeologik birlik o'tasidagi qarama-qarshi ma'no qanday antonimiya sanaladi?
9. Frazeologiyada leksik antonimiya hodisasi qanday amalga oshadi? Misollar bilan tushuntiring.
10. Frazeologiyada FBlar o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday antonimiya sanaladi?
11. Aynan simmetrik bo'lgan va simmetrik bo'lмаган antonim FBlarning lingvistik mohiyati nimadan iborat?
12. Komparativ FBlarning fransuz tilidagi antonimiya hodisasida qanday o'ziga xosliklari mavjud?
13. Semantik referensiallikning qarama-qarshi shakllari frazeologiyada qanday amalga oshadi?
14. Frazeologik antonimiyaning ichki va tashqi jihatdan oppozitsiyasi qanday farqlanadi?



## AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

**Topshiriq-1.** Ma'ruza matnini o'r ganib, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

No	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To'g'ri	Xato	Ma'lum emas
1.	Frazeologik antonimlarni o'rganish masalasi tilshunoslar orasida ancha qadimdan beri o'rganib kelinadi.			
2.	<i>Laborieux comme une abeille</i> iborasi bilan <i>paresseux comme un Loire</i> iborasi o'rtasida grammatik antonimiya aks etgan.			
3.	Umumiy kategorial tushunchalarni o'zida aks ettirgan antonimik frazeologik birliklarning mantiqiy asosini bir-biriga teskari bo'lgan tushunchalar tashkil etadi.			
4.	Fransuz tili frazeologiyasida antonimiya hodisasi insonlarning his-tuyg'ulari, tashqi qiyofasi, xarakteri va qiziqishlarini ifodalash ushun keng qo'llaniladi.			
5.	Fransuz tilida vaqt va miqdor konseptini ifodalovshi oppozitsion prefikslar <i>néo/paléo, anti/post, avant/après, pro/retro</i> kabi prefikslardir.			
6.	<i>Frazeologik antonimiyada</i> milliy-madaniy xususiyatlar aks etmaydi.			
7.	<i>Rapide comme l'éclair</i> iborasidagi <i>l'éclair</i> so'zi fransuz tilida <i>yashin</i> ma'nosini anglatgani uchun ham o'zbek tiliga <i>yashin kabi tez, deb talqin</i> qilinadi.			
8.	Til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir.			
9.	Frazeologik antonimiyada ham xuddi leksik antonimiyadagi singari bir xil lisoniy vositalar orqali amalga oshadi.			
10.	Frazeologik birliklarning antonimik lug'atini yaratish bo'yicha fransuz frazeologiyasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan.			

**Topshiriq-2.** Quyidagi jadvalni frazeologik lug'atlardan foydalangan holda berilgan namuna asosida to'ldiring:

Nº	Sifatlar antonimiyasi orqali hosil bo'lgan FBlar:	Ravishlar antonimiyasi orqali hosil bo'lgan FBlar:	
1.	<i>âme blanche</i> - pokiza qalb;	<i>âme noir</i> - yovuz qalb ;	<i>Parler bien</i> - yaxshi gapirmoq;
2.	<i>plaider coupable</i> - o'zini gunohkor deb bilmoq ;	<i>plaider innocent</i> - o'zini gunohsiz deb bilmoq;	<i>Marquer bien</i> - yaxshi ko'rinoq;
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			

**Topshiriq-3.** Quyidagi jadvalda berilgan FBlarga mazmuniy jihatdan mos keladigan antonimik qatorni toping:

1.	<i>avoir la tête à l'envers</i>	a)	<i>avoir qch. dans le casquin</i>
2.	<i>avoir une bouche comme le métro</i>	b)	<i>être raisonnable</i>
3.	<i>avoir tête du bon lait</i>	c)	<i>avoir le bon esprit</i>
4.	<i>avoir de l'esprit comme quatre</i>	d)	<i>faire son paquet</i>
5.	<i>être folle</i>	e)	<i>avoir une épine dans le cœur</i>
6.	<i>faire son entrée dans le monde</i>	f)	<i>fouler aux pieds</i>
7.	<i>faire (rendre) hommage</i>	g)	<i>avoir la lune dans la tête</i>
8.	<i>la plaine étoile</i>	h)	<i>préter silence</i>
9.	<i>parler comme un perroquet</i>	i)	<i>une vieille sempiternelle</i>
10.	<i>vieillard vert</i>	j)	<i>le plancher des vaches</i>


**Topshiriq-4.** Quyida berilgan FBlarning antonimik muqobilini toping :

1. *avoir des paroles ensembles avec qn. - birov bilan janjallashmoq; =?*
2. *avoir la bourse large - qo'li ochiq, saxiy bo'lmoq; =?*
3. *avec abondance de cœur- ochiq ko'ngillilik bilan; =?*
4. *avoir la bouche sucrée- shirinsuxan bo'lmoq; =?*
5. *avoir une épine dans le cœur-g'amga botmoq; =?*
6. *avoir l'estomac creux- o'lqiday och bo'lmoq; =?*

7. *bonheur d'expressions- gapga chechanlik, notiqlik; =?*
8. *faire la fortune de qn. - birovga baxt ato etmoq; =?*
9. *gros comme un cochon- semiz, to'ladan kelgan; =?*
10. *servelle de moineau- tovuq miya; =?*
11. *parler comme un perroquet -ko'p gapirmoq, vaysamoq; =?*
12. *toutes jambes - oyoqni qo'lga olib, g'izillab; =?*

**Topshiriq-5.** Quyidagi FBlarni antonimik xususiyatlariga ko'ra tasniflang va antonimiyaning qaysi turiga misol berilmaganligini aniqlang :

№	Fransuzcha antonimik FBlar :	Antonimiya turlari:				
		Leksik	Morfologik	Ichki	Kontekstli	Ikkikarralı
1.	<i>temps chargé - temps humain bulutli havo - mayin, issiq havo</i>					
2.	<i>avoir la tête embrassée- avoir l'humeur haute landovur bo'lmoq - yuragida o'ti bor bo'lmoq</i>					
3.	<i>à midi sonnant - à minuit sonnant roppa-rosa kunduz soat 12 da- yarim tunda;</i>					
4.	<i>avoir la langue légère -avaler de l'eau o'ylamasdan gapirmoq-og'ziga talqon solmoq</i>					
5.	<i>après avoir taillé, il faut coudre boshlangan ishni tugatish kerak</i>					
6.	<i>avoir la main heureuse -avoir la main malheureuse / omad kulib boqmoq - omad yuz o'girmoq</i>					
7.	<i>Aujourd'hui en fleurs, demain en pleurs Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'</i>					
8.	<i>homme de cabale - homme de conscience ichi qora odam - vijdoni pok inson</i>					
9.	<i>On ne peut faire bon édifice sur mauvais fondement - Omonat fundament ustiga mustahkam bino qurib bo'lmaydi</i>					
10.	<i>bon prince - chercheur de barbets oliyanob odam - firibgar odam</i>					



## MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI :

1. Fransuz frazeologiyasida qaysi tilshunoslar frazeologik antonimiya sohasida izlanish olib borganligini tegishli ma'lumotlar (maxsus nazariy manbalar va internet ma'lumotlari) asosida o'rganing.
2. Simmetrik tarzda qarama-qarshi bo'lgan antonim FBlarga frazeologik lug'atlardan misollar toping.
3. Tarkibida fe'llar antonimiysi orqali hosil bo'lgan FBlarga frazeologik lug'atlardan misollar toping.
4. Tarkibida otlar antonimiysi orqali hosil bo'lgan FBlarga frazeologik lug'atlardan misollar toping.
5. Ikkikarrali (dubl) antonimiyalı FBlarga frazeologik lug'atlardan misollar toping.
6. Dars davomida yig'ilgan misollar asosida antonimik frazeologizmlarning kichik "Fransuzcha-o'zbekcha lug'ati"ni yarating.
7. Quyidagi badiiy matn parchasini diqqat bilan o'qing va iboralarni toping. Ularni frazeologiya fani asosida kompleks tahlil qiling.


### QUAND IL ÉTAIT PETIT GARÇON

Lorsque j'avais six ans j'ai vu, une fois, une magnifique image, dans un livre sur la Forêt Vierge qui s'appelait « Histoires Vécues ». Ça représentait un serpent boa qui avalait un fauve. Voilà la copie du dessin.



On disait dans le livre : « Les serpents boas avalent leur proie tout entière, sans la mâcher. Ensuite ils ne peuvent plus bouger et ils dorment pendant les six mois de leur digestion. »


J'ai alors beaucoup réfléchi sur les aventures de la jungle et, à mon tour, j'ai réussi, avec un crayon de couleur, à tracer mon premier dessin. Mon dessin numéro 1. Il était comme ça :



J'ai montré mon chef-d'oeuvre aux grandes personnes et je leur ai demandé si mon dessin leur faisait peur.

Elles m'ont répondu : « Pourquoi un chapeau ferait-il peur ? »

Mon dessin ne représentait pas un chapeau. Il représentait un serpent boa qui digérait un éléphant. J'ai alors dessiné l'intérieur du serpent boa, afin que les grandes personnes puissent comprendre. Elles ont toujours besoin d'explications. Mon dessin numéro 2 était comme ça :



Les grandes personnes m'ont conseillé de laisser de côté les dessins de serpents boas ouverts ou fermés, et de m'intéresser plutôt à la géographie, à l'histoire, au calcul et à la grammaire. C'est ainsi que j'ai abandonné, à l'âge de six ans, une magnifique carrière de peintre. J'avais été découragé par l'insuccès de mon dessin numéro 1 et de mon dessin numéro 2. Les grandes personnes ne comprennent jamais rien toutes seules, et c'est fatigant, pour les enfants, de toujours et toujours leur donner des explications.

J'ai donc dû choisir un autre métier et j'ai appris à piloter des avions. J'ai volé un peu partout dans le monde. Et la géographie, c'est exact, m'a beaucoup servi. Je savais reconnaître, du premier coup d'oeil, la Chine de l'Arizona. C'est très utile, si l'on est égaré pendant la nuit.

J'ai ainsi eu, au cours de ma vie, des tas de contacts avec des tas de gens sérieux. J'ai beaucoup vécu chez les grandes personnes. Je les ai vues de très près. Ça n'a pas trop amélioré mon opinion.

Quand j'en rencontrais une qui me paraissait un peu lucide, je faisais l'expérience sur elle de mon dessin numéro 1 que j'ai toujours conservé. Je voulais savoir si elle était vraiment compréhensive. Mais toujours elle me répondait : « C'est un chapeau. » Alors je ne lui parlais ni de serpents boas, ni de forêts vierges, ni d'étoiles. Je me mettais à sa portée. Je lui parlais de bridge, de golf, de politique et de cravates. Et la grande personne était bien contente de connaître un homme aussi raisonnable.

(Antoine de Saint-Exupéry. *Le petit Prince*)<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Antoine de Saint-Exupéry. Le petit Prince. Edition du groupe « Ebooks libres et gratuits », - P. 4-7. / - 107 p.  
<https://www.ebooksgratuits.com/>



## MA'LUM BIR LEKSIK BIRLIK ISHTIROKIDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (“blanc” komponentli iboralar misolida)

**Darsning maqsadi:** Talabalarda frazeologiyadagi ma'lum bir so'z ishtirokidagi iboralar tahlili bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Xususan, fransuz tilida keng tarqalgan koloristik frazeologiya namunasi hisoblangan “blanc”- “oq” rang misoli asosida frazeologizmlarning lisoniy va psixologik jihatdan o'ziga xosligini namoyon etish.

### Reja :

- 1.“Rang” tushunchasining umumiyl talqini.
2. Fransuz tilidagi “blanc” komponentli iboralarning frazeologik ma'no ottenkalari.
3. O'zbek tilidagi rangni ifodalovchi “oq” komponentli iboralarning frazeologik ma'no ottenkalari.

**Tayanch iboralar:** *rang lingvistikasi, oq rang, ma'no ottenkalari, frazeologik iboralar, ijobiy, salbiy, neytral, shaxs fazilati, shaxs illati.*

### 1.“Rang” tushunchasining umumiyl talqini

Qadim zamonlardan buyon insonlar rang va ularning amaliy, nazariy, ma'naviy hamda psixologik xususiyatlariga alohida qiziqib kelishgan. Xususan, antik davrlarda mashhur faylusuflar Empedokl, Demokrit, Aflatun va Aristotellar ranglar borasida ilmiy va amaliy qarashlarni ilgari surgan, ya'ni ular o'sha davr estetik normalaridan kelib chiqqan holda ranglarni tabiy-ilmiy, diniy hamda mavhum ramziy ma'nolari nuqtayi nazaridan tavsiflaganlar<sup>1</sup>. Hozirgi kunda ham ranglarni turli soha nuqtayi nazaridan o'rGANISH bilan bir qatorda, ular to'g'risidagi ilmiy g'oyani rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazidan o'rIN olmoqda. Xususan, ranglarning o'ziga xos turli-tuman rang-baranglik asosidagi ko'zni qamashtiradigan jilosi *san'atshunoslik, falsafa, fizika, fiziologiya, psixologiya* hamda *tilshunoslik* fanlari nuqtayi nazaridan keng tadqiq qilib kelingan. Bunda *san'atshunoslik* fani rangni tasviriy san'at va dizaynerlik nuqtayi nazaridan, *falsafa* fani real borliqdagi ranglarning inson ong va tafakkuriga bo'lgan ta'siri nuqtayi nazaridan, *fizika* va *fiziologiya* fanlari ularni texnik nuqtayi nazaridan tadqiq etsa, *psixologiya* fani esa, insonning sevimli rangi

<sup>1</sup> Цвет в античной культуре. Древняя Греция и Древний Рим. <http://cvet-psv.ru/tsvet-v-antichnoj-kulture-drevnyaya-grets>

va uning ruhiy qarashlari, xarakteri hamda odob-axloqiga bo'lgan ta'siri kabi xususiyatlarni, *tilshunoslik* fani esa ranglar jilosini tilda qay yo'sinda aks ettirishdagi lisoniy vositalarni o'rganish masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishga alohida e'tibor qaratgan.

Bundan shuni anglash joizki, turli soha tadqiqotchilarining tadqiqot obyekti bir xil, ya'ni "rang" tushunchasi bo'lishidan qatiy nazar, ularga xos rang-barang xususiyatlarning, jumladan, *estetik, ma'naviy, falsafiy, texnik, psixologik, teologik, tasviriyl, lisoniy* kabi turli xil jihatlarning tadqiq etilishi ranglarni o'rganuvchi fanlarning xilma-xilligidan dalolat beradi. Masalan, "rang" tushunchasining asl sohibi hisoblangan rassom rang orqali butun borliq yoki xayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyilagini ko'rsatishi, shuningdek, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y-xayollarni aks ettirishi mumkin<sup>1</sup>. Rassomning ijod mahsuli hisoblangan bunday rangli tasvirdagi turfa buyoqlar insonlarning o'z xarakteridan kelib chiqqan holda kishilar ongiga qanday ta'sir qilishi psixologlar tomonidan o'rganilsa, undagi voqeа-hodisalar qay tarzda tasvirlanganligi esa so'zlar orqali tilshunoslar tomonidan tadqiq etiladi.

Shunday ekan, ranglar jilosini nafaqat, san'atshunoslik sohasi doirasida, balki, tilda va psixologiyada aks ettirish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xusan, keyingi 10 yil mobaynida filologiya sohasida rang va uning tildagi tasviri muammosiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ya'ni, tilshunoslikda ranglarning *kommunikativ, kognitiv, pragmatik* va *lingvomadaniy* xususiyatlari doimo tadqiqot markazida ekanligi ushbu sohaga nisbatan tadqiqotchilar qiziqishini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tilshunoslik fani ham ranglar masalasiga boshqa fanlar singari alohida o'rganish obyekti sifatida yondashgan. Xusan, ranglarning turfa psixologik jihatlarini lisoniy hodisalar bilan o'zaro bog'lagan holda tadqiq etish ancha kengqamrovli sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Binobarin, R.M. Frumkina ta'kidlanganidek, "ranglar olami" – sof psixik hodisa hisoblanib, tabiatda mavjud yorug'lik to'lqinlari insonlar ko'zi orqali turli xil jilolanib, inson miyasiga ta'sir ko'rsata oladi<sup>2</sup>. Shunday ekan, rang va uning real borliqdagi serjilo tasvirini psixologik va lisoniy talqin qilish bilan bir qatorda, ranglarning teologik talqini bilan birga o'rganish ham fanda rang borasidagi g'oya va qarashlar mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik fanida ham diniy ilmni chuqur o'rganish va undan to'g'ri oziqlanish xususida ko'plab teran tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Qur'oni Karim» va undagi g'oyalar tavsifini zamonaviy fanlar nuqtayi nazaridan so'z san'ati

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси. –Б. 67.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.6.

hamda inson ruhiyati masallari bilan o'zaro bog'liq tarzda ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zero, biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz ifodasi sifatida behad qadrlar ekanmiz, islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi<sup>1</sup>.

Mazkur bo'limda ranglar tasvirining fransuz va o'zbek tillaridagi frazeologik ma'no ottenkalari psixologiya fani hamda islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da keltirilgan ranglarga nisbatan tavsifi bilan hamohangligi tahlil qilinadi. Ya'ni, *til, ruhiyat* va *teologik* ta'limda ranglarning o'zaro mazmuniy aloqadorligi aniq misollar asosida qiyosiy tarzda o'rganiladi.

Ranglar madaniyati va uning boshqa fanlar, xususan, psixologiya, fiziologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro chambarchas bog'liqligi N.V.Serovning «*Свет культуры. Психология, культурология, физиология.*»<sup>2</sup> nomli kitobida kengqamrovli tarzda aks etgan bo'lib, unda ranglarning madaniy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, psixologik, semantik va boshqa xususiyatlari borasidagi ma'lumotlar qomusiy majmua tarzida aks etgan. Biroq, ushbu masala keyingi yillarda aynan noqardosh tillar kesimida biroz e'tibordan chetda qolmoqda.

Rang borasidagi mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida g'arb va sharq olami madaniyati va tilini qiyosiy o'rganishdan kelib chiqqan holda bir-biriga nisbatan noqardosh tillar hisoblangan fransuz va o'zbek tillarining "rang" tushunchasi doirasidagi lug'at boyligi hamda "rang" xususidagi psixologik va diniy qarashlar e'tiborga olinadi.

Ushbu bo'limda fransuz va o'zbek tilida rang tushunchasini tavsiflash uchun *oq* rang ishtirokidagi frazeologik birliklar tanlab olingan. Ushbu rangning o'ziga xos qonuniyatlarini turli tillar asosida o'rganish borliqni idrok etish mexanizmini to'g'ri tushunish, baholash hamda tafakkurning o'ziga xosligini anglash imkonini beradi.

Oq rangning turli fanlar orasidan psixologik tavsifiga e'tibor qilsak, u *poklik, aybsizlik, quvonch, sadoqat, tenglik, ochiqlik, ravanlik* va *osonlik* timsoli sifatida talqin qilinadi<sup>3</sup>. Shuningdek, oq rangning «Qur'oni Karim»dagi ma'nolariga to'xtaladigan bo'lsak, u asosan, *yorug'lik, quyosh nuri, tong, jannat ahlining yuzi, jannat ichimligining rangi* kabi ijobiy tushunchalarda o'z aksini topadi<sup>4</sup>. Ushbu rang hech qaysi manbada salbiy tavsifga ega emas. Biroq oq rang inson ruhiyatini ifodalovchi frazeologik iboralar tarkibida qo'llanilganda yuqorida keltirilgan tushunchalarga

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил, 20 сентябрь

<sup>2</sup> Серов Н.В. Цвет культуры : психология, культурология, физиология. – Санкт -Петербург: Речь, 2003. -672 с.

<sup>3</sup>Psixologik ranglarning ma'nosи/ <https://uz.tierient.com/>

<sup>4</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Қуръони Карим» ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси. – Тошкент : «Шарқ» НМАК, 2011. – Б. 45-187.

nisbatan batamom teskari ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Xususan, *qo'rquv, sarosima* va *g'azab* holatlari shular jumlasidandir<sup>1</sup>.

## 2. Fransuz tilidagi *blanc* komponentli iboralarning frazeologik ma'no ottenkaları

Oq rangning tillardagi ma'nosi xususida to'xtaladigan bo'lsak, ushbu rang fransuz tilidagi frazeologik iboralar tarkibida *blanc*, *blanche* sifati va *blanchir* fe'liga xos grammatik shakllar asosida juda keng tarzda qo'llaniladi va u fransuz frazeologiyasida qo'llanilish chastotasiga ko'ra ranglar ichida qora rangdan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi<sup>2</sup>. Mazkur kichik ilmiy izlanish uchun esa 150ga yaqin fransuzcha frazeologik birliklar tahlil qilindi.

Tahlil qilish davomida oq rang fransuz frazeologiyasida turli xil ma'nolarda qo'llanilishi ko'zga tashlanadi. Masalan, uning frazeologik iboralar ichida eng dominant ma'nolaridan *bum-bo'sh*, ya'ni *to'ldirilmagan hujjat, yozilmagan varaq* yoki *yozuvda tashlab ketilgan bo'sh joy* kabi ma'nolari ko'plab o'rnlarda uchraydi:

<b>Fransuzcha frazeologizmlar:</b>	<b>Talqini:</b>
<i>chèque en blanc</i> ;	<i>summasi yozilmagan chek</i> ;
<i>signer en blanc</i> ;	<i>oq qog'ozga imzo qo'ymoq</i> ;
<i>billet blanc</i> ;	<i>saylovdagi to'ldirilmagan byulleten</i> ;
<i>feuille en blanc</i> ;	<i>bir tomoniga yozilgan qog'oz</i> ;
<i>à blanc</i> ;	<i>interval</i> ;
<i>laisser un blanc</i> ;	<i>yozuvda bo'sh joy qoldirmoq</i> ;
<i>bureaux en blanc</i> ;	<i>bo'sh ofislar</i> ;
<i>sortir avec le bâton blanc</i> ;	<i>ikki qo'li bum-bo'sh chiqib ketmoq</i> ;

Oq rang ma'nosidagi *blanc* so'zining *bum-bo'sh* ma'nosi nafaqat qog'ozlardagi yozilmagan holat, balki, boshqa obyektlarning ham bo'shligini yoki suhbat jarayonidagi jim sukunat holatini ham ifodalaydi. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

<b>Fransuzcha frazeologizmlar:</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>bureaux en blanc</i> ;	<i>bo'sh (egasiz) ofislar</i> ;
<i>avoir un blanc</i> ;	<i>sukut saqlamoq</i> ;
<i>silence blanc</i> ;	<i>sukunat</i> ;
<i>laisser une marge blanche</i>	<i>sukut saqlamoq</i> ;
<i>blanche mémoire</i>	<i>sust xotira (bum-bo'sh xotira)</i> ;

Tilda oq rang ma'nosidagi leksik birlikning qo'llanishi va ular bilan bog'liq ekspressiv-emotsional xususiyatlarning aynan frazeologiya sohasida

<sup>1</sup> Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi. // Хорижий филология №4, 2020. – В. 129 -136 [Электрон ресурс: <http://samxorfil.uz/> / maqola / arxiv ]

<sup>2</sup> Гатаулина Л. Р. Роль цветообозначений в концептуализации мира: на материале фразеологизмов английского, немецкого, французского, русского и татарского языков. Автореф. диссер. кан. филол. Наук. – Уфа, 2005. –С.18.

ham tadqiq etish inson ichki kechinmalari va ruhiyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, frazeologik iboralarda ranglarning qo'llanilishi ichki ruhiyatni tashqi ruhiyatda aks ettirish jarayonini ancha osonlashtiradi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, ruhiyat olamidagi ichki his-tuyg'uning rangin manzarasini «ko'ra olish»ga yordam beradi. Bu borada faylasuf Taftazoniy inson ichki his-tuyg'usi tashqi hissiyot asosida paydo bo'lishini qayd etadi<sup>1</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligida inson ruhiyatini ifodalovchi frazeologik birliklarning o'ziga xos semantikasini, ularning nutqda qo'llanishi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning paydo bo'lish xarakteri, davomiylik darajasi hamda nutqda qo'llanish hollari va ma'no ottenkalarini tahlil qilish tilimizning ifoda imkoniyatlari va uning boyligini to'laroq tasavvur qilish imkonini beradi<sup>2</sup>.

Tilda insonlarning ichki ruhiy olamini rang leksemalari orqali ekspressiv-emotsional tarzda tasvirlash jarayonida ruhiyat va ranglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ularning metaforik va metonimik xususiyatlari doirasida amalga oshadi. Turli xil emotSIONAL vaziyatlarda insonlar yuzining rangi qizarishi, oqarishi yoki ko'karishi mumkin. Bunday tashqi ruhiyat tasvirini ifodalashda fransuzcha *blanc*, ya'ni oq rang ma'nosidagi so'z o'ziga yarasha ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu rang ishtirokidagi frazeologik iboralar *qo'rquv* ma'nolarini ifodalaydi. Masalan:

<b>Fransuzcha frazeologizmlar:</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>être blanc comme un linge;</i>	dokadek oqarib ketmoq;
<i>être blanc comme un mort;</i>	murdadek oqarib ketmoq;
<i>être blanc comme un mur;</i>	devordek oqarib ketmoq;
<i>blanc comme un linceul;</i>	nihoyatda oqarib ketgan;
<i>blanc comme un cire;</i>	rangi murdadek oqarib ketgan;
<i>blanc comme un cachet d'aspirine;</i>	rangi dokadek oqargan;
<i>avoir les fois blancs ;</i>	joni halqumiga kelmoq;

Ushbu misollar qo'rquv emotSIONAL holatining tashqi ruhiy tasvirini ifodalovchi iboralar hisoblansa, yana bir turkum iboralar mavjud bo'lib, ular ushbu holatning o'zini ifodalovchi nominativ frazeologizmlar sifatida xizmat qiladi. Masalan:

- *peur blanche ; - dahshatli qo'rquv;*
- *voix blanche ; - qo'rquvdan chiqmagan ovoz;*
- *soldat de fer blanc ; - qo'rqoq odam;* kabilar shular jumlasidandir.  
Emotsional holatning qo'rquvdan tashqari holatlari:
- *azob chekish (cracher blanc) ;*
- *tushkunlikka tushmoq (être blanc) ;*

<sup>1</sup> Тафтазоний, Саъдуддин Масъуд ибн Умар. e-tarix.uz>shaxslar/483-taftazoniy.html

<sup>2</sup> Сувонова Н., Долиева Л. Французча ономатопик феъллар иштироқидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири. // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 2 (31), 65-79 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215

- *ko'r-kurona rashk (jalousie blanche);*
- *ruhini kutarmoq (monter le blanc en neige );*
- *colère blanche (qattaq g'azab) ; singari ma'nolari ham kam sonli bo'lsa-da, oq rang - blanc orqali ifodalananadi.*

Quyida oq rang ma'nosidagi *blanc* leksemasining frazeologiyadagi yana boshqa salbiy va ijobiy ma'no ottenkalari keltirib o'tamiz:

<b>"blanc" so'zining frazeologiyadagi ma'no ottenkalari</b>			
<b>Ijobiy ma'no:</b>		<b>Salbiy ma'no:</b>	
Yaxshilik va ezgulik:	<i>âme blanc ; blanche main ; magie blanche ;</i>	Soxtalik:	<i>sourire blanc ; mariage blanc; faire blanc de qch. ;</i>
Aybsizlik:	<i>sortir blanc ;</i>	Qadrsizlik:	<i>raide à blanc;</i>
Bilimdonlik:	<i>donner dans le blanc ;</i>	Aldov :	<i>traiter des blancs ; messe blanche ;</i>
Imtiyoz :	<i>carte blanche ; montrer patte blanche;</i>	Zo'ravonlik :	<i>bâton blanc ; armes blanches; être tout à blanc armée ;</i>
Baxt :	<i>voir tout en blanc ; fils de la poule blanche ;</i>	Mag'lubiyat, omadsizlik:	<i>arburer le drapeau blanc de son épée; choux blanc; faire du blanc ;</i>
Maqtov :	<i>se faire blanc de son épée;</i>	Qat'iyatsizlik :	<i>aller du blanc au noir ;</i>
Toza, yangi:	<i>eau blanche ; page blanche;</i>	Qoloqlik:	<i>n'avoir pas du sang blanc; ne connaitre ni le blanc, ni le noir ;</i>
Tantanali :	<i>marquer de blanc;</i>	Yomon illat:	<i>oie blanche; aigle blanc; avoir une ivresse blanche;</i>
A'lo, zo'r :	<i>boule blanche;</i>	Zarar:	<i>éléphant blanc;</i>
		Azob :	<i>cracher blanc ;</i>
		Uyqusizlik :	<i>nuit blanche;</i>

Tilshunos olim Sh. Safarov ta'kidlaganidek, tashqi dunyodagi turli voqealari va predmetlar xususiy ko'rinishdagi belgi, xususiyatlarga ega. Lisoniy tafakkur faoliyatining kognitiv bosqichidan lisoniy voqelanish bosqichiga o'tishda qiyoslash, analiz va sintez amallari muhim rol o'ynaydi. Shu amallar

vositasida umumiylilik va xususiylik farqlanadi<sup>1</sup>. Shunga binoan, agar oq rangning fransuz frazeologiyasidagi bu kabi semantik ma’no ottenkalari umumiy tarzda tahlil qilinsa, ularni ikki katta guruhga, ya’ni “HAYOT ZAVQI” va “HAYOT AZOBI” singari turkumlash mumkin. Masalan, hayotda kimgadir doimo yaxshilik qilish (*âme blanc*; *blanche main* ;), ezgulik yo’lidan borish (*magie blanche* ;), o’zining aybsiz ekanligini isbotlash (*sortir blanc* ;), o’tkir zehn bilan o’z bilimini namoyon etish (*donner dans le blanc* ;), ojizlik ustun bo’lib turgan bir paytda biror imtiyoz yoki imkonga ega bo’lish (*carte blanche*; *montrer patte blanche*), hayotda baxt nashidasi bilan yashash (*voir tout en blanc*; *fils de la poule blanche*;) boshqalar tomonidan o’zingga nisbatan maqtov eshitish (*se faire blanc de son épée* ;), hayotning zavqli damlarini tantanali nishonlash (*marquer de blanc* ;), samimiyligini qilingan harakat uchun a’lo, zo’r natijaga erishish (*boule blanche*;) kabi vaziyatlar haqiqatdan ham “HAYOT ZAVQI” tushunchasini ifodalaydi.

Ushbu ma’nolarning aksi hisoblangan, ya’ni o’zi bila turib, soxta ishlarni amalga oshirish (*sourire blanc*; *mariage blanc*; *faire blanc de qch.* ;), hayotda qadrsizlanish (*raide à blanc* ;), yashashdan maqsadsiz tarzda qoloq insonga aylanib qolish (*n’avoir pas du sang blanc*; *ne connaître ni le blanc, ni le noir* ;), har bir harakat yoki so’zda qat’iyat yetishmasligi (*aller du blanc au noir* ;), hayot so’qmoqlarida mag’lubiyat yoki omadsizlikka duch kelish (*arburer le drapeau blanc de son épée*; *choux blanc*; *faire du blanc* ;), zo’ravonlik qilish (*armes blanches*; *être tout à blanc armée*; *bâton blanc* ;), yomonlik yo’lidagi aldrovlar (*traiter des blancs*; *messe blanche* ;), biror narsadan zarar ko’rish (*éléphant blanc* ;), hayot tashvishlaridan azob chekish (*cracher blanc* ;), turli xil illatlarni o’ziga doimiy odat qilish (*oie blanche*; *aigle blanc*; *avoir une ivresse blanche* ;), nosog’lom turmush tarziga xos uyqusizlik (*nuit blanche*;) kabi vaziyatlar esa, bir so’z bilan aytganda “HAYOT AZOBI” tushunchasini aks ettiradi. Ya’ni, fransuz frazeologiyasida oq rang(*blanc*)ning ma’nosi parallelizm asosidagi ikki xil qarama-qarshi tushunchani, ya’ni ijobiy ma’noda *hayot zavqi* va salbiy ma’noda *hayot azobi* tushunchalarini ifoda eta oladi.

Oq rang (*blanc*) ishtirokidagi fransuzcha frazeologik birliklar orasida ijobiy va salbiy tushunchalardan tashqari, oraliq, ya’ni neytral ma’nodagi tushunchalar ham mavjud. Masalan, qog’ozlardagi “bum-bo’sh” tushunchasi (bu xususda yuqorida batafsil to’xtalib o’tildi), bir qarorga kela olmasdan ikkilanish (*dire blanc et noir* ;), juda yosh bo’lish (*blanc bec* ;), biror narsani tag-tomiri bilan tozalash (*couper un arbre à blanc estoc*; *comme une tornade blanche*; *coupe blanche* ;), har bir ishda ehtiyotkorona harakat qilish (*mettre des gants blancs* ;), biror narsani sinab ko’rish (*examen blanc*; *faire passer une col blanche*;) kabilar shular jumlasidandir.

---

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. -Б.229.

Fransuzcha maqollar mazmunida ham oq rang (*blanc*) o'ziga yarasha ma'no kasb etadi. Masalan :

Ijobiy :	yaxshilik	<i>Bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe.</i>
Salbiy:	ahmoqlik	<i>La muraille blanche est le papier des sots.</i>
Neytral:	tashqi mohiyat	<i>Noire geline pond blanc œuf. Les mains noires font manger le pain blanc.</i>

*Bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe.* Ushbu iborada ikki xil ramziy hayvon, ya'ni biri *qurbaqa - pastkash* va *jirkanch odamni* anglatsa, *kabutar esa - poklik, yengillik* va *tincklik* ramzi hisoblanadi. Bu ikkala qaramaqarshi obrazlar timsolida jirkanch odamning so'zлari biror bir ijobiy mohiyatni aslo o'zgartira olmasligi aks etgan<sup>1</sup>. Agar uchbu ma'lumotga asoslansak, tasqara qurbaqa hech qachon oq qush bo'la olmasligi ifodalangan ushbu maqolning o'zbekcha talqini *Uning o'zi kim-u, so'zi – kim?* degan iboraga ma'lum darajada mos kelishi mumkin. Lekin bu maqolning ayrim matnlarda qo'llanilgan hollariga e'tibor qaratilsa past, jirkanj hisoblangan kishi o'zidan ko'ra ustun bo'lgan biror narsaga intilishi istehzoli kulgi ostiga olingan<sup>2</sup>.

Keyingi maqol, ya'ni *La muraille blanche est le papier des sots (de fou)* maqolida *oppoq devor* ma'nosi ifodalangan bo'lib, u devorlarga rasm chizib, yozib tashlaydigan kishilarga nisbatan ishlatiladi<sup>3</sup>. Y'ani, "*oppoq devor ahmoqlar uchun rasm chizadigan qog'oz*" ma'nosi aks etgan.

Navbatdagi maqol *qora - noire* va *oq - blanc* ranglarining oppozitiv xususiyatlaridan kelib chiqqan bo'lib, unda qora tovuqning oq tuxum qo'yishiga ishora qilingan<sup>4</sup>. Ya'ni : *Noire geline pond blanc œuf.* Bu maqolning rus xalqiga xos muqobilida esa *qora sigirning oppoq sut berishi* qiyoslangan, ya'ni : *От чёрной коровки, да белое молочко.* Uni o'zbek tiliga *Ajoyib mo'jiza yoki Ajoyib-u, g'aroyib*, deb talqin qilish mumkin.

Xuddi shunday *qora - noire* va *oq - blanc* ranglarining oppozitiv xususiyatlariga asoslangan *Les mains noires font manger le pain blanc* maqoli *zahmatkash qora qo'llar oppoq non yediradi* tarjimasiga ega bo'lib, mehnat qilish g'oyasini tarannum etadi. Ya'ni, kimki mashaqqat chekib mehnat qilsa, rohat topishiga ishora qilingan. Uning o'zbek tilidagi muqobillari *Mehnatning tagi rohat yoki Kim ishlasa tishlaydi, ishlamasa tishlamaydi* maqollariga ma'lum darajada mos keladi<sup>5</sup>.

Oq rang fransuz tilida yuqoridagi kabi ijobiy, salbiy va neytral tushunchalardan tashqari, borliqdagi mavjud narsa va hodisalarni metaforik va metonimik tarzda nomlash xususiyatiga ham ega. Masalan:

<sup>1</sup> [https://fr.wikisource.org/wiki/Cent\\_Proverbes/85](https://fr.wikisource.org/wiki/Cent_Proverbes/85)

<sup>2</sup> [La bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe \(lalanguefrancaise.com\)](http://www.lalanguefrancaise.com/)

<sup>3</sup> <https://www.dicocitations.com/citations/citation-108530.php>

<sup>4</sup> <https://slovaronline.com/browse/7bd9da4f-7ef4-37a8-ad98-334ac4bd32a4/noire-geline-pond-blancs-oeufs>

<sup>5</sup> <https://www.linternaute.fr/proverbe/2079/les-mains-noires-font-manger-le-pain-blanc>

- oq libos yoki ichki kiyim (*vêtu de lin blanc ; magasin de blanc ;*),
- kasallik turlari (*mal blanc ; canne blanche; nègre blanc; n'y voir que du blanc ;*),
- kasb nomlari (*les hommes en blanc ; cornette blanche ; cul blanc ; col blanc ;*),
- tabiat hodisalari nomi (*marée blanche; gelée blanche;*),
- narsa-predmetlarning oqligiga ishora qilingan oq rang ma'nosи (*cheveux blancs ; loup blanc ; sable blanc ; fromage blanc ; fée blanche ; un blanc lime ;*),
- qiyoslangan va kuchayirilgan oppoq rang tushunchasi (*blanc comme albâtre; blanc comme plâtre; blanc comme neige ; blanc comme un cygne*) kabilar oq rangning nominativ xususiyatlarini namoyon etishga yordam beradi.

Muxtasar qilib aytganda, fransuz frazeologiyasida oq rang ma'nosidagi *blanc* komponentli iboralarning umumiy ma'no ottenkalari mazkur rangning referential ma'nosiga bog'liq bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Quyida mazkur mavzuni fransuz tiliga noqardosh bo'lgan til, ya'ni o'zbek tili misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

### **3. O'zbek tilidagi rangni ifodalovchi oq komponentli iboralarning frazeologik ma'no ottenkalari**

Oq rang ma'nosini ifodalovchi sifat o'zbek tilida "oq" tarzida, harakat ma'nosida esa "oqarmoq" yoki "oqartirmoq" fe'li ko'rinishida ifodalanadi. O'zbek xalqi oq rangga yaxshilik timsoli sifatida qaraydi. Shu asosda mazkur leksema yordamida, asosan, ijobjiy ma'noli frazeologizmlar shakllangan<sup>1</sup>. Biroq, boshqa tillaragi kabi o'zbek tilida ham oq rangning ham *ijobjiy* hamda ham *salbiy* ma'no ottenkalari mavjuddir:

O'zbek tilidagi "oq" leksemasing frazeologik ma'no ottenkalari			
Ijobiy ma'no:	Salbiy ma'no:		
Mehr-oqibat:	<i>oq ko'ngil;</i> <i>oq yuvib oq taramoq;</i> <i>ko'zining oqi qorasi;</i> <i>oq yo'l;</i>	G'azab :	<i>ko'zi ola-bo'la bo'lmoq;</i> <i>og'ziga oq it kirib, qora it chiqmoq ;</i> <i>ko'zlarining oqini o'ynatmoq;</i> <i>ko'ziga oq-qora ko'rinaslik;</i> <i>oq kaltak-qora kaltak bo'lmoq;</i>

<sup>1</sup> Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. –Тошкент: Наврўз, 2019. –Б.156.

Barkamollik:	<i>oq-qorani tanimoq; oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoq;</i>	Xasislik:	<i>Oq uyim – qoq uyim, tevarak chetiga boq uyim; Oppoq bo'lgan oq uyim, osh-noni yo'q qoq uyim;</i>
Rozilik :	<i>oq fotiha; ona sutini oqlamoq; tuzini oqlamoq;</i>	Norozilik:	<i>oqpadar ; oq qilingan farzand; oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq;</i>
Aybsizlik:	<i>sudda oqlanmoq; yuzi oqarmoq; oqlovchi;</i>	Barakasizlik:	<i>Kosasi oqarmaslik;</i>
Rizq :	<i>og'zi oqqa tegmoq; oqlik bor uyg'a og'riq dorimas;</i>	Fosh bo'lish:	<i>Oq tovuq somon sochar, o'z ketini o'zi ochar;</i>
Sog'lik:	<i>Oqi – oq, qizili – qizil;</i>	Laganbardorlik:	<i>"oq" desa-oq, "ko'k" desa – ko'k;</i>
Baxt:	<i>manglayi oq bo'lmoq;</i>	Bevafolik :	<i>Oq boshdan o'tin bo'lmas, uynashdan – xotin;</i>
Keksalarga hurmat:	<i>soqolining oqini hurmat qilmoq;</i>		

Agar oq rangning o'zbek frazeologiyasidagi bu kabi semantik ma'no ottenkalari umumiy tarzda tahlil qilinsa, ularni ikki katta guruhga, ya'ni "FAZILATLI SHAXS" va "ILLATLI SHAXS" sifatida turkumlash mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "oq" so'zining frazeologiyadagi ma'no ottenkalaridan insonlar bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi (*oq ko'ngil; oq yuvib oq taramoq;*), hayotning barcha past-balandliklarini anglab yetadigan barkamol shaxs tarzida ulg'ayishi (*oq-qorani tanimoq;*), ota-onaga bo'lgan hurmat yuzasidan hayot mazmuni sifatida ota-onani rozi qilish (*oq fotiha; ona sutini oqlamoq;*), hayotning qing'ir ishlaridan hazar qiluvchi sofildil inson (*sudda oqlanmoq; yuzi oqarmoq;*), hayotda rizq-nasibali bo'lish (*og'zi oqqa tegmoq; oqlik bor uyg'a og'riq dorimas;*), o'z tanasiga biror dard – kasal yuqtirmasdan sog'lom yurish (*oqi – oq, qizili – qizil;*), baxtli inson bo'lish, ya'ni Allohdan baxt berilishi (*manglayi oq bo'lmoq;*), o'zidan kattalarni hurmat qilish (*soqolining oqini hurmat qilmoq;*) kabi ma'no tushunchalari tasavvurimizda "FAZILATLI SHAXS" obrazi gavdalanishiga yordam beradi.

Ushbu obrazning qarama-qarshi aksi esa, o'zini aql bilan boshqara olmaydigan g'azab talvasasiga tushib qolish (*ko'ziga oq-qora ko'rinaslik; oq kaltak-qora kaltak bo'lmoq;*), ota-onasini norozi qilish (*oqpadar ; oq qilingan farzand;*), o'z ishi bitguncha laganbardorlik qilish ("oq" desa-oq, "ko'k" desa – ko'k;), birovga biror narsa berishni istamasdan xasislik qilish (*Oppoq bo'lgan oq uyim, osh-noni yo'q qoq uyim;*), hayotda o'z yoriga nisbatan bevafolik qilish (*Oq boshdan o'tin bo'lmas, uynashdan – xotin;*), o'zini-o'zi kirdikorlarini ochib, fosh qilishi (*Oq tovuq somon sochar, o'z ketini o'zi ochar;*), hayotda shuncha

mehnat qilib, ko'p pul topsa ham oila va ro'zg'orda Alloh marhamatining yo'qligi (*kosasi oqarmaslik*) kabi salbiy xususiyatlar tasavvurimizda "ILLATLI SHAXS" obrazining gavdalanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'zbek tilida ham neytral tushunchalarni ifodalovchi frazeologizmlar mavjud bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- "sir saqlash"ni ifodalovchi (*Oq tuya ko'rdingmi yo'q, ko'k tuya ko'rdingmi yo'q; tishining oqini ko'rsatmaslik*),
- "kishining asl kimligi"ni ko'rsatuvchi (*Oq badan, qora badan suvga tushganda ma'lum; Oq uyda bo'lgan kishi olachiqda ham bo'ladi; Oq it qora it baribir it; Oq qo'y ham o'z oyog'idan osiladi, qora qo'y ham;*),
- "qora kunga oz-ozdan mablag' toplash" ma'nosidagi (*Oq tanga - qora kunga;*),
- "har bir kishi o'z tengi bilan do'st tutinishi" lozimligi (*Oq ishtonning balog'i qora ishtonga yarashmas;*),
- "kishilar o'rtasidagi ijtimoiy farq" ma'nosidagi (*oq tanli; oqsuyak;*),
- ayollarda ko'p uchraydigan tannozlik yoki nafislik xususiyati (*oq badan; oq yuzli; oq bilak;*),
- keksayish jarayoni (*sochi oqarmoq; sochiga oq oralamoq;*),
- tabiy jarayon sifatida tongning yorishib otishi (*g'ira-shira oqarmoq;*),
- yangi, toza va pokiza (*oqqa ko'chirmoq; oqsuv;*) kabi ma'nolarni ifodalovchi iboralar.

Oq rang o'zbek tilida ham ijobiy, salbiy va neytral tushunchalardan tashqari, borliqdagi mavjud narsa va hodisalarni metaforik va metonimik tarzda nomlash xususiyatiga ham egadir. Bunda frazeologik birliklarning yasalishi narsa yoki voqeа-hodisalarning oq rangli xususiyatiga asoslangan holda amalga oshadi. Masalan, qor yoqqanda ishlatiladigan *yerlar oqarmoq*; paxta tolasi uchun qo'llaniladigan *oq oltin*; tog'da o'sadigan o'simlik nomi *oqparchoy; oqqayruq*; kishilarning yuz va soch rangidan kelib chiqqan *oqsariq; oq soch*; (xizmatkor ma'nosida ham) kabi iboralar shular jumlasidandir.

Ikkala til misoldida olib borilgan mazkur tahlil oq rangining quyidagicha lingvo-kognitiv xususiyatlarini taqqoslash imkonini beradi. Quyidagi jadvalga e'tibor qilaylik:

Fransuz va o'zbek tilidagi " <i>blanc</i> " - " <i>oq</i> " so'zining frazeologik ma'no ottenkalari			
Fransuz tilida :		O'zbek tilida:	
Ijobiy ma'no:	Salbiy ma'no:	Ijobiy ma'no:	Salbiy ma'no:
Ezgulik	Qo'rquv	Mehr-oqibat	G'azab
Yaxshilik	Ahmoqlik	Hurmat	Norozilik
Aybsizlik	Aldov	Aybsizlik	Laganbardorlik
Bilimdonlik	Qadrsizlik	Barkamollik	Xasislik
Imtiyoz	Soxtalik	Rozilik	Bevafolik

Baxt	Zo'ravonlik	Baxt	Kasallik
Maqtov	Mag'lubiyat	Sog'lik	Motam
Toza, yangi	Qat'iyatsizlik	Rizq-nasiba	Fosh bo'lish
Tantanali	Qoloqlik		Barakasizlik
A'lo, zo'r	Yomon illat		
	Zarar		
	Azob		
	Uyqusizlik		
<b>"HAYOT ZAVQI"</b>	<b>"HAYOT AZOBI"</b>	<b>"FAZILATLI SHAXS"</b>	<b>"ILLATLI SHAXS"</b>

Fransuz tilida oq rang hayotdagi kengqamrovli ijobjiy va salbiy vaziyatlar ifodasi uchun qo'llanilsa, o'zbek tilida esa asosan, shaxs fazilati va illatiga xos tor doiradagi vaziyatlar ifodasi uchun ishlatalidi. Boshqacha qilib aytganda, fransuz tilidagi "*blanc*" so'zi yordamida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning semantik ma'no maydoni umumiyligi obyektda (hayotning turli jabhasida) faollahsa, o'zbek tilidagi "*oq*" so'zi yordamida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning semantik ma'no maydoni esa xususiy obyektda (faqat shaxs faoliyati doirasida) faollahadi.

Fransuz va o'zbek tilidagi "*blanc*" - "*oq*" so'zining frazeologiyadagi neytral ma'no ottenkalari qiyosiy tahlil qilinganda esa qo'yidagicha holat namoyon bo'ladi:

<i>Fransuz tilida :</i>	<i>O'zbek tilida:</i>
Bum-bo'shlik	Tenglik
Sukunat	Sir saqlash
Ikkilanish	Ertani uylash
Tajribasizlik	Poklik
Tozalash	Ijtimoiy farq
Ehtiyotkorlik	Tannozlik / nafislik
Sinov	Keksalik
Mohiyat	Mohiyat
	Yangi
	Yorug'lik
<b>Umumiy ma'no: MAVJUDSIZLIK</b>	<b>Umumiy ma'no: IJTIMOIYLIK</b>

Fransuz tilidagi oq rang ishtirokidagi neytrallik tushunchasi asosidagi frazeologizmlarda asosan, "*mavjudsizlik*", ya'ni "*yo'qlik*" ma'nosi hukm suradi. Binobarin, yuqorida keltirilganidek, "bum-bo'sh", bir qarorga kela olmasdan "ikkilanish", jim-jitlikdagi "sukunat", "tajribaning yo'qligi", biror narsani tag-tomiri bilan "tozalab yo'qotish" kabi tushunchalarning tub mohiyatida "*mavjudsizlik*" tushunchasi aks etgan. O'zbek tilida esa, ma'lum bir obyekt, ya'ni shaxsga qaratilgan turli xususiyat, holat va vaziyatlar o'z ifodasini topgan. Xususan, insonlar o'rtasidagi "tenglik", "sir

saqlash”, “ertani uylash”, “poklik”, “ijtimoiy farq”, “tannozlik”, “nafislik” va “keksalik” kabi tushunchalar umumiy ma’noda “*ijtimoiylik*” tushunchasini ifodalay oladi.

Oq rang har bir xalq madaniyatida turlicha talqin qilinadi. Masalan, Amerikada “*tozalik*”, Fransiyada “*neytrallik*”, Misrda “*shodlik*”, Hindistonda “*motam*”, Xitoyda esa “*motam / tozalik*” ma’nosini anglatadi, deydi A.Xrolenko<sup>1</sup>. Ushbu ro’yxatni mantiqan davom ettirgan holda yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, oq rang o’zbek xalqida asosan, “*yaxshilik*” tushunchasini ifodalaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Fransuz xalqida esa oq rang “*neytrallik*”ni ifodalashi yuqorida tahlil qilinganidek, aksariyat fransuzcha frazeologik iboralardagi qog’oz va hujjatlarga nisbatan “*bumbo’sh*” ma’nosida keng tarzda ishlatalishi, shuningdek, ham ijobiy va ham salbiy tushunchalarni aks ettirishi ushbu fikrni yanada mustahkamlaydi. Turli millat egalarining oq rangga nisbatan bunday qarashlari mazkur xalqlarning o’z qadriyatlari asosidagi milliy qarashlari zamirida paydo bo’lgan. Xususan, tilshunos Sh. Safarovning ta’kidlashicha, inson faoliyati ma’lum milliy madaniyat va milliy muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagи bilish jarayoniga oid strukturalar va tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo’lishi ham tabiiydir<sup>2</sup>.

Oq rangning til (fransuz va o’zbek tili), psixologiya va diniy qarashlardagi ma’no ottenkalari o’zaro taqqoslanganda tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, ushbu rangning ifodalayotgan ma’no turlari tilda ancha xilma-xil xususiy ma’nolardan iborat bo’lib, ular psixologik va teologik nuqtayi nazardan ancha umumiylashgan tarzda aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, oq rang orqali ifodalangan insonlarga xos xususiy fazilatlar faqat ijobiy xislatlar nuqtayi nazaridan olib qaralganda psixologiyada ma’lum darajada umumlashadi va «Qur’oni Karim»da esa ancha yaxlit ma’noni ifodalaydi. Masalan, o’zbek tilidagi insonlarga xos *mehr-oqibat, hurmat, barkamollik, rozi-rizolik, aybsizlik, baxt, sog’lik*, va *rizq-nasiba* kabi ma’nolar hamda fransuz tilidagi *ezgulik, yaxshilik, aybsizlik, bilimdonlik, baxt, maqtov* va *imtiyoz* tushunchalari psixologiyada umumlashgan holda *qalb pokligi, yaxshilik* va *ezgulik* ma’nosи ostida jam bo’lsa, «Qur’oni Karim»da esa bularning barchasi *yuz yorug’ligi (jannat ahlining yuzi)* ma’nosи ostida yaxlitlangan. Ya’ni oq rangning “shaxs” va “real borliq” o’rtasidagi izchil ifodasi diniy, psixologik va tilga xos xarakterlarda ketma-ket tarzda faollashgan deyish mumkin. Ushbu holatni quyidagi jadval orqali shunday tasvirlash mumkin :

---

<sup>1</sup> Хорленко А. Т. Основы лингвокультурологии. [Электрон ресурс] : учеб. пособие – Электрон. дан. – Москва : ФЛИНТА, 2016. – С.18. – URL: <https://e.lanbook.com/book/>

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.54.

«Qur'oni Karim»da:	Psixologiyada:	Fransuz tilida:	O'zbek tilida:
-yuz yorug'ligi (jannat ahlining yuzi)	-qalb pokligi -quvonch -aybsizlik -sadoqat -tenglik -osonlik	-ezgulik -yaxshilik -bilimdonlik -aybsizlik -baxt -maqtov -a'lo, zo'r -toza, yangi -tantanali -imtiyoz	-mehr-oqibat -hurmat -barkamollik -rozi-rizolik -aybsizlik -baxt -sog'lik -rizq-nasiba

Yuqorida keltirilgan ushbu tahlil oq rangning ijobiy xususiyatlariga asoslangan. Biroq uning salbiy xususiyatlariga kelsak, bu xususda uchlik mezon, ya'ni til, psixologiya va teologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilishning iloji yo'q. Negaki, oq rangning salbiy ma'nolari teologiya(Qur'oni Karim)da va psixologiyada umuman mavjud emas. Faqat tildagina oq rangning salbiy ma'nolari mavjuddir. Neytral ma'nolar xususida to'xtalsak, oq rangning uchlik mezon doirasidagi talqini ancha xilma-xil bo'lib, ularni ma'lum bir ma'nolar turkumida umumlashtirish esa mumkin emas.

Shuni qayd etish lozimki, oq rang ifodalayotgan ma'nolar ko'lami faqat, hayotning turli xil vaziyatlarida va shaxslarning turli xarakter shakllarida o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, oq rang asosan "ijtimoiy hayot" va "shaxs" kategoriyalarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tabiatda mavjud turfa ranglar va ularning har birini tilshunoslik, psixologiya, teologiya va boshqa fanlar bilan yuqoridagi singari qiyosiy tarzda o'rganish orqali tilshunoslik fanida "ranglar olami" hamda "ranglar tili"ni keng tadqiq etish imkonini yanada kengayadi.



### GLOSSARY :

<i>kommunikativ xususiyat</i>	Muloqotga doir va nutqiy aloqa vazifasiga doir xususiyatlar.
<i>kognitiv xususiyat</i>	Inson ongi va tafakkuri bilan bog'liq faoliyatga doir xususiyatlar.
<i>pragmatik</i>	insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi

<i>xususiyat</i>	va muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'luvchi nutqiy jarayon bilan bog'liq xususiyat.
<i>lingvomadaniy xususiyat</i>	Madaniy hodisalarning lingvistik vositalar yordamida faollashuviga, ya'ni til va madaniyatning o'zaro aloqasi orqali hosil bo'lgan faoliyat turiga doir xususiyatlar.
<i>ma'no ottenkalari</i>	Ma'lum bir ma'noning semantik jihatdan xilma-xil shakllari.
<i>grammatik shakllar</i>	Tilning grammatik ma'no ifodalovchi shakllari.
<i>leksema</i>	(yun. <i>lexis</i> — so'z, <i>ifoda</i> ) — til qurilishining leksik ma'no anglatuvchi lug'aviy birligi. Leksema bildiradigan ma'no so'zning material qismidir.
<i>lingvo-pragmatik xususiyatlar</i>	Muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalariga doir xususiyatlar.
<i>milliy kolorit</i>	Ma'lum bir millatning o'ziga xos rang-barangligi.



### SAVOLLAR :

1. Rang va uning tasvirini psixologik va lisoniy nuqtayi nazardan o'rghanish rangning inson bilan bog'liq qanday xususiyatiga asoslanadi?
2. Oq rangning inson ruhiyatini ifodalovchi frazeologik iboralar tarkibida qo'llanilganda psixologik xususiyatlar bilan muvofiqlik darajasi qanday?
3. Ruhiyat va ranglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday stilistik vositalar doirasida amalga oshadi?
4. Oq rangni ifodalovchi *blanc* leksemasining frazeologiyadagi semantik ma'nolarini baholash nuqtayi nazardan qanday turkumlarga ajratish mumkin?
5. Oq rang - *blanc* leksemasi frazeologiyada hayot falsafasi bilan bog'liq qanday dixotomik tushunchalarni ifodalay oladi?
6. Oq rang turli xalqlar madaniyatida, xususan, fransuz va o'zbek xalqida qaysi ma'nolarni ifodalay oladi va ularni qanday umumlashtirib o'zaro farqlash mumkin?
7. Tilshunoslik sohasida frazeologiyadan tashqari yana qaysi doirada ranglar semantikasini qanday tadqiq etish mumkin?
8. Fransuzcha *blanc* komponentli iboralarning "Koloristik frazeologiya"da tutgan o'rnini qanday?
9. O'zbekcha rang ma'nosidagi *oq* komponentli iboralarning "Koloristik frazeologiya"da tutgan o'rnini siz qanday baholaysiz?

10. Oq rangning koloristik lingvistikada tutgan o'rnini umumiy tarzda tavsiflang.



**AMALIY MASHG'ULOT  
TOPSHIRIQLARI**

**Topshiriq-1.** Ma'ruza matnini o'rganib, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

Nº	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To'g'ri	Xato	Ma'lum emas
1.	Ranglarning turli xususiyatlari mavjudligiga qaramasdan, ular faqat tasviriy san'at doirasida o'rganiladi.			
2.	Tilshunoslikda ranglarning semantik xususiyatlari lisoniy vositalar orqali tadqiq etiladi.			
3.	N.V.Serov ranglarning ijtimoiy-siyosiy va tasviriy xususiyatlarini qomusiy majmua tarzida o'rgangan.			
4.	Oq rang psixologiya va teologiyada (diniy jihatdan) ijobiy tushunchalarni ifodalasa, inson ruhiyatini ifodalovchi frazeologik iboralarda esa asosan, salbiy ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.			
5.	Oq rang fransuz frazeologiyasida qo'llanilish chastotasiga ko'ra qora rangdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.			
6.	Oq rang fransuzcha emotsiyal FBlar orasida ijobiy va salbiy tushunchalardan tashqari, neytral ma'nodagi tushunchalardan "bum-bo'sh" ma'nosida keng qo'llaniladi.			
7.	Oq rang ma'nosi o'zbek frazeologiyasida ham ijobiy, ham salbiy tushunchalarda aks etadi.			
8.	Fransuz va o'zbek tilida "blanc" - "oq" so'zlarining frazeologiyadagi salbiy ma'no ottenkalari bir xillik kasb etadi.			
9.	Oq va qora rangning oppozisiyasi ayrim fransuz maqollarida <i>hayratlanish</i> va <i>maslahat</i> ma'nolarini o'z ichiga oladi.			

**Topshiriq-2.** Quyida berilgan mavzularga mos keladigan FBlarni toping:

<b>Fransuz tilida :</b>	
1. Bum-bo'shlik	
2. Sukunat	
3. Ikkilanish	
4. Tajribasizlik	
5. Tozalash	
6. Ehtiyyotkorlik	
7. Sinov	
8. Mohiyat	
<b>O'zbek tilida:</b>	
1. Tenglik	
2. Sir saqlash	
3. Ertani uylash	
4. Poklik	
5. Ijtimoiy farq	
6. Tannozlik	
7. Keksalik	
8. Mohiyat	
9. Yangi	
10.Yorug'lik	

**Topshiriq-3.** Quyida berilgan tasvirni **blanc** komponentli qaysi maqollarga mos kelishini aniqlang va o'zbekcha talqin qiling:

	
1.	2.

3.	4.

**Topshiriq-4.** Quyida berilgan FBlarning har biriga alohida gap tuzing:

Fransuzcha frazeologizmlar:	O'zbekcha talqini:
1. <i>chèque en blanc</i> ;	summasi yozilmagan chek;
2. <i>signer en blanc</i> ;	oq qog'ozga imzo qo'ymoq;
3. <i>billet blanc</i> ;	saylovdagi to'ldirilmagan byulleten;
4. <i>feuille en blanc</i> ;	bir tomoniga yozilgan qog'oz;
5. <i>à blanc</i> ;	interval;
6. <i>laisser un blanc</i> ;	yozuvda bo'sh joy qoldirmoq;
7. <i>bureaux en blanc</i> ;	bo'sh ofislar ;
8. <i>sortir avec le bâton blanc</i> ;	ikki qo'li bum-bo'sh chiqib ketmoq;
9. <i>bureaux en blanc</i> ;	bo'sh (egasiz) ofislar ;
10. <i>avoir un blanc</i> ;	sukut saqlamoq;
11. <i>silence blanc</i> ;	sukunat;
12. <i>laisser une marge blanche</i> ;	jim sukut saqlamoq;
13. <i>blanche mémoire</i> ;	sust xotira (bum-bo'sh xotira);

**Topshiriq-5.** Quyida « *La bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe* » maqolining matnlarda ishlatilish ma'nosiga e'tibor qarating va ularning tarjimasi orqali turli vaziyatlardagi bosh g'oyani aniqlang :

Badiiy matnlardan olingan fransuzcha misollar:	O'zbekcha tarjimasi:
1. <i>Mon très cher Monsieur William, la bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe que je suis. Il est fort regrettable que vous puissiez penser d'aussi vilaines choses sur mon cheri.</i>	<i>Men uchun qadrli bo'lgan Janob Uilyam, qurbaqa men kabi oq qushga aslo yetisha olmaydi. Sevgilim haqida bunday yomon narsalarni o'ylashingiz juda</i>

<p><i>(Henri Nausam, Ma rencontre avec le diable, 2008)</i></p>	achinarli.
<p>2. Je ne suis pas certain de comprendre pourquoi il m'invective. À sa façon de me fixer, on dirait qu'il me cherche. Que c'est personnel. Peu importe ses intentions, on dit que <b>la bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe</b>. Je ne suis pas blanche colombe, mais fort heureusement, la bave du crapaud n'atteint pas non plus les pigeons ternes.  <i>(Frédéric Ernotte, Ne sautez pas !, 2020)</i></p>	<i>U meni nima uchun tahqirlayotganini sira tushuna olmayapman. Nazarimda u meni qidirayotganga o'xshaydi. Bu uning shaxsiy ishi. Uning niyatidan qat'iy nazar, tasqara qurbaqa oq qushga teng kelmaydi. Men oq qush emasman, lekin xayriyatki, qurbaqa hatto, ojiz kaptarlarga ham teng kela olmaydi.</i>
<p>3. Dans un interstice j'ai glissé « <b>La bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe</b>. » C'était digne. Papa n'apprécia pas ma répartie et me gifla sur la figure.  <i>(Henri Calet, La belle lurette)</i></p>	<i>Tuynikdan men sirg'alib ketdim "Qurbaqa aslo oq qush bo'la olmaydi". Men shunga loyiq edim. Dadam meni yoqtirmadi va yuzimga tarsaki tushirdi.</i>
<p>4. Elle avait de beaux yeux, limpides. C'est le blanc de l'oeil qui fait ressortir cela beaucoup plus que la pupille. A-t-elle compris que je ? Bien sûr. <b>Telle la colombe que n'atteint pas la bave du crapaud</b>.</p> <p><i>(James Joyce, Ulysse)<sup>1</sup></i></p>	<i>Uning chiroyli, tiniq ko'zlari bor edi. Bu ko'z qorachig'idan ko'ra ko'proq ajralib turadigan ko'zning oq rangidir. U meni kim ekanligimni tushundimi? Albatta. Sen tasqara qurbaqa yetishishni orzu qilgan oq qushsan.</i>

**Topshiriq-6.** Quyida berilgan maqollarni o'zbekcha talqin qiling va ularga vaziyatli misollar tuzing:

Ijobiy :	yaxshi inson obrazi	<i>Bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe.</i>
Salbiy:	ahmoqlik	<i>La muraille blanche est le papier des sots.</i>
Neytral:	tashqi mohiyat	<i>Noire geline pond blanc œuf. Les mains noires font manger le pain blanc.</i>

<sup>1</sup> [La bave du crapaud n'atteint pas la blanche colombe \(lalanguefrancaise.com\)](http://lalanguefrancaise.com)



## MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI :

1. Oq rangdan tashqari boshqa rangni tanlab, uni ikki til frazeologiyasi misolida qiyosiy tahlil qiling.
2. "Koloristik frazeologiya" yo'nalishiga xos *fransuzcha* – *o'zbekcha* yoki *o'zbekcha* - *fransuzcha* kichik lug'at yarating.
3. Fransuz tilida yana qaysi leksik birliklar ishtirokidagi sermahsul iboralar ustida keng qamrovli kompleks tahlil olib borish mumkinligini aniqlang va ushbu leksik birliklar ro'yxatini tuzing.



## FRANSUZ FRAZEOLOGIYASIDA MAQOL VA MATAALLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**(fransuzcha qofiyali maqollarning lingvomadaniy aspekti misolida\*)**

**Darsning maqsadi:** Talabalarda fransuz frazeologiyasidagi maqol va matallar tahlili bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Xususan, fransuz tilida keng uchraydigan qofiyali maqollardagi lingvomadaniy xususiyatlarining o'ziga xosligini namoyon etish.

### Reja :

1. Maqollar – xalq ma'naviyatining asosiy aspekti sifatida.
2. Fransuzcha qofiyali maqollar va ularning o'zbek tilidagi o'ziga xos qiyosiy xususiyatlari.
3. Fransuzcha maqollarda azaliy qadriyatlar ifodasi va ularning o'zbek tilidagi muqobillari.

**Tayanch iboralar:** paremiologiya, qofiyadosh maqollar, takroriy elementlar, umuminsoniy qadriyatlar, lingvomadaniy xususiyat, milliy dunyoqarash.

### 1. Maqollar – xalq ma'naviyatining asosiy aspekti sifatida

Bugungi kunga kelib biz axborotni zamонавиу texnologiyalar orqали to'playmiz va ularni saqlaymiz. Vaholanki, hali tilning borliqdagi in'ikosi hisoblanmish yozuv kashf qilinmagan bir vaqtida axborotlarni saqlash va ularni yetkazishning oddiy bir yo'li - u ham bo'lsa, hamma uchun qulay vosita hisoblangan til edi. Tilda muloqotning eng jozibador, ixcham, qulay va samarador vositasi - maqol va matallar hisoblangan.

Paremiologik birlik hisoblangan maqol va matallarning badiiy mazmuni tufayli nutq ravon va go'zal tarovat kasb etadi. Chunki, ularning zamirida qadim o'tmishta borib taqaluvchi xalq donishmandligi, madaniyati, ijtimoiy turmush tarzi namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda hozirgi kunga qadar bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar ularning naqadar murakkab til birligi ekanligidan dalolat beradi. Shunday ekan, ikki xil madaniyat va ikki xil dunyoqarash sohiblari hisoblangan fransuz va o'zbek xalqi maqollarini bir-biri bilan qiyoslab o'rghanish ham mag'rib va mashriqzamin xalqlari o'rtasidagi nechog'lik uyg'unlik yoki aksincha,

---

\* Мукумов Т. Б., Исламова О. Г. Кофиядош мақолларда миллий-маданий тушунчалар уйғунлиги (француз ва ўзбек тиллари мисолида).//Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2021. — № 1(36). — Б. 103–113. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", <https://journal.fledu.uz>

tafovut mavjudligini kashf etish imkonini beradi. Shuningdek, aynan qofiyadoshlik asosida yasalgan paremiologik birliklar nutqda keng qo'llaniladigan maqollar bo'lib, ulardag'i ohanglar uyg'unligi ularni esda tez saqlanishiga yordam beradi va nutqni yanada aniq, ravon hamda jozibador bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa, albatta, har bir tinglovchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Mana shunday qofiyali maqollarga xos lingvistik, milliy – madaniy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarni qiyosiy aspektida tadqiq etish ayrim paremiologik muammolar yechimiga aniqlik kiritishga yordam beradi hamda ushbu sohani ma'lum darajada rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Har bir tilda erkin muloqot qilish va shu tildagi barcha nozik ma'nolarni tushunish uchun shu tilning frazeologik lug'at boyligi bilan yaqindan tanishish yanada muhim sanalanadi. Ma'lum bir tilning yoki o'sha tilda gaplashuvchi xalqning til boyligi, asosan ushbu xalq madaniy qarashlarini aks ettiruvchi serjilo va bo'yoqdor frazeologik qatlam bilan o'lchanadi<sup>1</sup>. Qolaversa, tilshunos olim Sh. Safarov ta'kidlaganidek, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollandashi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks etishi tabiiydir. So'zsiz, bu tajriba milliy madaniyat muhitida, kundalik hayot faoliyatida uchraydigan voqelik hodisalari ta'sirida yuzaga keladi<sup>2</sup>.

Shunday ekan, bugungi kunda paremiologiya sohasida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, qofiyadosh maqollarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu sababli mazkur bo'limda fransuz tilidagi aynan qofiyadosh FBlarning o'zbek tilidagi muqobil variantlari o'rtasidagi madaniy uyg'unlik borasida fikr yuritmoqchimiz. Bu orqali mag'rib va mashriqzamin xalqlari hisoblangan fransuz va o'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati va dunyoqarashi o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik jihatlarini ayrim konseptual ma'nolar doirasida tavsiflash imkonini paydo bo'ladi.

Paremiologik birliklar har bir millatning madaniyat, qadriyat va e'tiqodini, umuman, xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. V.Teliya tilshunos hamda folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog'lagan holda frazeologiyaning tildagi rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o'zida ifodalar ekan, shubhasiz frazeologiya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi<sup>3</sup>. Bunday holatni o'zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi, ya'ni lingvomadaniyatshunoslik fani negizida ko'rish mumkin. Bugungi kunda paremiologik birliklar xalq madaniyatini ko'rsatishda

<sup>1</sup> Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-мatalлар луғати. -Тошкент: Ўқитувчи; 1993. -Б.4. /-76 б.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзорб, 2006. -Б. 57. / -92 б.

<sup>3</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва: Шк. Языки рус. Культуры; 1996. – С.40-61. / – 284 с.

eng faol vositalardan biri sifatida tilshunoslikdagi lingvomadaniy izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylangan.

V.Teliya frazeologik birliklarning bir turi bo'lgan maqollarni – *direct cultural signs (bevosita madaniyat belgisi)* deb ataydi va bu orqali u maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko'rsatuvchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir maqol, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda, umuman olganda, to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgu hisoblanadi<sup>1</sup>.

Tilda mavjud bo'lgan har qanday leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, u bevosita paremiologik birliklar tarkibida ishtirok etadi va ular orqali xalqning madaniyatini aks ettiradi. Demak, yuqorida keltirilgan olimlarning nazariyalariga asoslangan holda ayrim fransuzcha qofiyadosh maqollarni o'zbek tili bilan qiyosiy tahlil qilish orqali keltirilgan fikrlarni isbotlash imkonи mavjud.

## **2. Fransuzcha qofiyali maqollar va ularning o'zbek tilidagi o'ziga xos qiyosiy xususiyatlari**

Qofiya - odatda she'riy misralarning muayyan o'rnida ohangdosh so'z yoki so'z birikmalarining izchil takrorlanib kelish hodisasi bo'lib, she'rning mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim o'rнin egallaydi va u so'zlarning ohangdoshligi, o'zak bilan o'zak yoki qo'shimcha bilan qo'shimcha o'rtasidagi uyg'unlik tufayli yuzaga keladi<sup>2</sup>. U nafaqat she'riyatda balki, ixcham va lo'nda strukturali maqol va matallarda ham keng foydalaniladi. Negaki, bunday paremiologik birliklar aksariyat hollarda o'zlarida she'riy ohangdoshlik xususiyatini aks ettiradi va bunda qofiya ulardagи ritm va musiqiylikni ta'minlaydi, buni esa maqollar g'o'yaviy mazmuni bilan bog'liq lingvistik hodisa sifatida tavsiflash mumkin. Shu bois u paremiologik birliklar mazmunini go'zal va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Maqollardagi qofiyaning o'ziga xos vazifalaridan yana biri shundaki, u maqollar intonatsiyasini, ya'ni ohangdorligini yuzaga keltiradi va ularni esda.

She'riyatdagi qofiya singari maqollardagi qofiyani ham o'z o'rniga ko'ra anaforik, epiforik va ichki qofiya turlariga ajratish mumkin. Aksariyat maqollar barcha tillarda ham asosan, bir misrali maqollar hisoblanib, ularda ichki qofiya shakli juda ko'p uchraydi. Biroq, she'riy tarzdagi maqollar ham mavjud bo'lib, ularda asosan, epiforik qofiya shakllari ko'zga tashlanadi. Fransuz tilida ularga quyidagicha misol keltirish mumkin:

Bir misrali maqollardagi ichki qofiya:	She'riy tarzdagi maqollardagi epiforik qofiya:
--	--

<sup>1</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва: Шк. Языки рус. Культуры; 1996. – С.68. / – 284 с.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Б.349./ [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bonjour <i>lunettes</i>, adieu <i>fillettes</i>.</li> <li>• Une faute <i>avouée</i>, est à demi <i>pardonnée</i>.</li> <li>• Être belle à la <i>chandelle</i>.</li> <li>• Se qu'on apprend au <i>berceau</i> dure jusqu'au <i>tombeau</i>.</li> <li>• Tout <i>nouveau</i>, tout <i>beau</i>.</li> <li>• À chaque <i>oiseau</i>, son nid est <i>beau</i>.</li> <li>• Ami de <i>table</i> est bien <i>variable</i>.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Pour obtenir un <i>œuf</i> Il faut demander un <i>bœuf</i>.</li> <li>• Qui trop se hâte <i>en cheminant</i>. En bon chemin se fourvoie souvent.</li> <li>• À qui se lève matin, Dieu prête <i>la main</i>.</li> <li>• De bonne vie bonne <i>fin</i>, De bonne terre bon <i>pépin</i>.</li> </ul>
---	---

Quyida asosan, fransuz tilida mavjud qofiyadosh maqollarning ma'noviy talqini yuzasidan o'zbek tilidagi muqobilari o'rtasidagi qiyosiy tahlilga e'tibor qaratiladi. Masalan, fransuz tilidagi jarangdor qofiyali *tel pied – tel soulier* maqolini misol tariqasida olaylik. Ushbu maqolning o'zbekcha muqobili *uloviga yarasha tushovi* yoki *eshagiga yarasha tushovi* maqolidir. Ya'ni, bu keng ma'noli maqol bo'lib, u bir-biriga yarasha, mos, munosib, monand kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Hayotning har bir jabhasida ushbu maqolni ishlatish mumkin, masalan, arzimagan narsaga arzimagan harakat yoki izzat-hurmatga arzimaydigan insonning izzat-hurmat qilinmasligi va boshqa hollarda<sup>1</sup>.

Fransuzcha ushbu maqolda qofiyadoshlik *pied (oyoq)* va *soulier (poyafzal)* so'zlari orqali ifodalangan bo'lsa, o'zbek tilidagi muqobil variantida esa *ulov* va *tushov* so'zlari orqali qofiyalangan. Ya'ni ularning qofiyadoshlik xususiyati asosan *u-lov* va *tu-shov* so'zlaridagi ikkinchi bo'g'inda namoyon bo'ladi. Demak, mazkur maqol ikkala tilda ham qofiyadoshlik asosida hosil bo'lgan, deyish mumkin.

Agar maqolning fransuz tilidagi varianti o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinsa, *tel pied - tel soulier - oyog'iga yarasha poyafzal* degan ma'no kelib chiqadi. Maqolning tarkibidagi so'zlar ma'nosiga e'tibor qilsak, o'zbek tilidagi *ulov* so'zi minib yuriladigan hayvon, *tushov* so'zi esa hayvonlar qochib ketmasligi uchun oldingi ikki oyog'ini bog'lab qo'yadigan arqon yoki moslama ma'nosini ifodalaydi<sup>2</sup>. Qadimda ot-ulovlarning oyog'iga *tushov* bog'lab qo'yishgan. Ushbu hayvonning qiymati oyog'iga bog'langan *tushovning* qiymati bilan o'lchangan yoki aksincha bo'lgan. *Uloviga yarasha tushovi* maqoli esa aynan o'sha vaziyatdan kelib chiqqan. Shunga ko'ra fransuz tilidagi *tel pied – tel soulier (oyog'iga yarasha poyafzal)* maqoli va o'zbek tilidagi *uloviga yarasha tushovi* maqoli o'rtasida qofiyali shakl va mazmuniy yaqinlik mavjud, degan xulosaga kelish mumkin. Ya'ni

<sup>1</sup>Шомақсудов Ш., Шарахмедов Ш. Маънолар маҳзани. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. -Б. 405, / - 477 б.

<sup>2</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Б. 220, 279./ [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси

ushbu maqol orqali ikkala xalq dunyoqarashi va ijtimoiy-madaniy hayoti o'rtasida bir-biriga monandlik mavjudligi aks etgan.

Fransuzcha *tel pied – tel soulier* ya'ni, *uloviga yarasha tushovi* ma'nosini ifodalovchi maqolning ikkala tilda ham boshqa variantlari mavjud bo'lib, ularda ma'no bir xil, lekin ularning ifoda vositalari o'zaro farq qiladi. Masalan:

<b>Fransuzcha variantlar</b>	<b>So'zma-so'z tarjimasi</b>
<i>Tel pied – tel soulier;</i>	<i>Oyog'iga yarasha poyafzali;</i>
<i>Tel couteau - tel fourreau;</i>	<i>Pichog'iga yarasha sopi;</i>
<i>Tel chien - tel maître;</i>	<i>Itiga yarasha o'rgatuvchisi;</i>
<b>O'zbekcha variantlar</b>	
<i>Uloviga yarasha tushovi;</i>	<i>Qiziga yarasha munchog'i;</i>
<i>Eshagiga yarasha tushovi;</i>	<i>Pichog'iga yarasha sopi;</i>
<i>Qozoniga yarasha qopqog'i;</i>	<i>Yoriq hovonchaga – siniq sop;</i>
<i>Qozoniga yarasha uchog'i;</i>	<i>Bo'lman bug'doyga – o'tmagan o'roq;</i>

Bundan ko'rinish turibdiki, ushbu maqolning o'zbek tilidagi variantlari anchagina bo'lib, ular ham fransuz tilidagi singari deyarli bir xil struktur tuzilishga ega. Ya'ni: fransuz tilida - ***tel + nom + tel + nom;*** o'zbek tilida - ***ot + yarasha + ot;***

Biroq, bunday struktur tuzilish jihatdan bir xil bo'lgan boshqa maqollarni mazmun nuqtayi nazardan chalkashtirmaslik lozim. Masalan, ikkala tilda ham xuddi shunday struktur tuzilishga ega bo'lgan boshqa maqollar ham mavjud. Misol uchun fransuz tilidagi *olmaning tagiga olma tushadi* mazmunidagi quyidagi ikki maqol, ya'ni *tel père tel fils;* (so'zma-so'z tarjimasi: *otasiga yarasha o'g'li;*) yoki *tel oiseau tel nid;* (so'zma-so'z tarjimasi: *qushiga yarasha uyasi;*), o'zbek tilidagi *salomiga yarasha aligi;* kabi maqollar shular jumlasidandir. Ushbu maqollar qo'llanilish doirasiga ko'ra *tel pied – tel soulier* ya'ni, *uloviga yarasha tushovi* maqolining mazmun doirasidan ancha farq qiladi. Ya'ni ularning qo'llanilish vaziyatlari turlicha. Masalan, quyida ularning ishlatilish maqsadi va qo'llanilish holatiga e'tibor qilaylik:

<b>Maqol</b>	<b>Ifoda maqsadi</b>	<b>Qo'llaniladigan vaziyat</b>
<b>fransuz tilida :</b>		
<b><i>tel pied tel soulier</i></b>	qadr va qiymat	Arzimagan narsaga unga arzimagan darajada harakat qilinganda;
<b><i>tel père tel fils;</i></b>	sabab va natija	Oilada farzand tarbiyasiga baho berilganda;
<b>o'zbek tilida :</b>		
<b><i>uloviga yarasha tushovi;</i></b>	qadr va qiymat	Arzimagan narsaga unga arzimagan darajada harakat qilinganda;

<i>salomiga yarasha aligi;</i>	munosabat	Birovning munosabatiga yarasha javob qaytarilganda;
--------------------------------	-----------	---

Ushbu jadvaldan ma'lumki, qofiyadosh maqollarning struktur tuzilishi bir xil bo'lsa ham, qo'llanilish doirasi ikkala tilda ham turlichadir. Ya'ni, mazkur maqollar ikkala tilda ham struktur jihatdan bir xilligiga qaramasdan ifodalayotgan ma'nosi va ularning qo'llanilish vaziyatlari farq qilgani bois ularni bitta maqolning variantlari sifatida talqin qilish mumkin emas. Bunday tahlil natijasida fransuz va o'zbek xalqi milliy dunyoqarashlari o'rtasida mutanosiblik mavjud, degan xulosaga kelish mumkin.

### **3. Fransuzcha maqollarda azaliy qadriyatlar ifodasi va ularning o'zbek tilidagi muqobilari**

Fransuz tilida yana shunday jarangdorlik asosidagi qofiyadosh maqollar mavjudki, ular ham fransuz va o'zbek xalqi madaniyati va qadriyatlar o'rtasida bir-biriga yaqinlik mavjudligidan dalolat beradi. Masalan, fransuz tilidagi quyidagi maqolga e'tibor qarataylik:

<b>Fransuzcha maqol:</b>	<b>So'zma-so'z tarjimasi:</b>	<b>O'zbekcha muqobili:</b>
<i>Qui a bon voisin a bon matin.</i>	Kimning qo'shnisi yaxshi bo'lsa, tonggi ham xayrli bo'ladi.	-Qo'shning tinch, sen tinch;

Qadimdan ota-bobolarimiz qo'shnichilik juda nozik masala ekanligini, qo'shniga nisbatan e'tiborli bo'lish hamda unga ehtiyotkorlik bilan muomala qilish lozimligini ta'kidlab kelganlar. Ushbu an'ana nafaqat sharq xalqlari qarashlariga xos, balki g'arb xalqlarida ham qadimdan mavjud bo'lgan azaliy tushunchadir. Masalan, eramizdan oldingi VIII asrda yashagan grek faylasuf shoiri Gesiodning *Yomon qo'shni musibat, yaxshi qo'shni haqiqiy xazinadir* (*Un mauvais voisin est une calamité, un bon voisin un vrai trésor*), degan hikmatli so'zi yoki chexlarning *Kimning qo'shnisi yaxshi bo'lsa, uyini qimmatga sotadi* (*Celui qui a un bon voisin vendra sa maison plus cher*), daniyaliklarning *Kimning tomi oynadan bo'lsa, qo'shnisiga tosh otmasin* (*Qui a un toit en verre ne doit chez son voisin jeter des pierres*), Injil kitobidagi *Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal* (*Un voisin proche vaut mieux qu'un frère éloigné*) kabi maqollarning mavjudligi fikrimiz dalilidir<sup>1</sup>.

Fransuz xalqining *Qui a bon voisin a bon matin* maqoli va uning o'zbek tilidagi muqobil varianti hisoblangan *Qo'shning tinch-sen tinch* maqoli ikkala tilda ham o'ziga xos nutqiy jarangdorlik, ya'ni fransuz tilida qofiyadoshlik (*voisin; matin;*) va takroriy elementlar (*a bon*) asosida yasalganligi va o'zbek tilida esa faqat takroriy elementlar (*tinch*) asosida hosil bo'lganligi ushbu maqollarning nutqda eng ko'p ishlatilishini ta'minlovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi. Negaki, maqollardagi aynan

<sup>1</sup> Proverbes français : 1066 proverbes célèbres . <https://citation-proverbe-francais>.

qofiya va takroriylik xususiyati ularni tez yodda saqlashga va nutq ravonligiga sabab bo'ladi. Biroq, fransuz va o'zbek tilida ham qo'shnichilikni qadrlovchi boshqa maqollar ham mavjud. Masalan, quyidagi maqollarga e'tibor qilaylik:

Fransuz tilida :	
Qo'shnichilikka doir maqollar:	So'zma-so'z tarjimasi:
<i>Choisir ses voisins est plus important que choisir sa maison.</i>	<i>Uy tanlashdan ko'ra qo'shni tanlash muhimroqdir.</i>
<i>Un bon renard ne mange pas les poules de son voisin.</i>	<i>Yaxshi tulki qo'shnisining tovuqlariga teginmaydi.</i>
<i>N'achète pas la maison avant d'avoir acheté le voisin.</i>	<i>Qo'shni sotib olmasdan, uy sotib olma.</i>
<i>Ce n'est pas en mangeant moins que tu nourris ton voisin.</i>	<i>Qo'shningni boqsang o'zing ham undan kam yemaysan.</i>

O'zbek tilida :	
Qofiyali maqollar:	Takror elementli maqollar:
<i>-Qo'shning bor - oshing bor.</i>	<i>-Hovli olma qo'shni ol.</i>
<i>- Qo'shnidan so'rab qiz ol,</i> <i>Chetidan qarab bo'z ol.</i>	<i>- Yaxshi qo'shni – ota-onas,</i> <i>Yomon qo'shni – boshga balo.</i>
<i>- Hamsoyam - jon soyam.</i>	<i>- Yetti qo'shning - yetti ota-onang.</i>
<i>-Yon qo'shni - jon qo'shni.</i>	<i>-Yomon qo'shni yovdan yomon.</i>
	<i>-Qo'shni keldi - ko'mak keldi.</i>

Ushbu yuqorida ikkala til misolida keltirilgan maqollardan ko'rini turibdiki, fransuz tilida qo'shnichilikka doir keng izohli gap shaklidagi maqollar ko'zga tashlansa, o'zbek tilida esa ancha ixcham va qofiyali maqollar ko'zga tashlanadi. Ular orasida faqat fransuz tilidagi qofiyadosh *Qui a bon voisin a bon matin* maqoli o'zbek tilida eng ko'p ishlataladigan *Qo'shning tinch – sen tinch; Hovli olma qo'shni ol; Yon qo'shni – jon qo'shni;* kabi maqollar bilan har tomonlama yaqin ekanligini ko'rish mumkin. Bunday mazmundagi maqollarni fransuz va o'zbek xalqi madaniy me'rosida ham ko'plab uchratish mumkin va ular katta-yu kichikni halollik, mehr-oqibat va qo'shnichilik odobiga undashga xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Fransuzlar tomonidan ko'p ishlataladigan yana bir qofiyadoshli va takroriy elementli maqollardan biri *Heure du matin, heure du gain* maqoli bo'lib, u ham o'zbek tilida aynan o'z muqobil variantiga ega bo'lgan hamda har tomonlama bir-biriga mos keladigan maqol sanaladi. Ushbu maqol o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinsa *Ertalabki vaqt foyda (daromad) vaqtidir*, degan ma'noni ifodalaydi<sup>2</sup>. O'zbek tilida unga muqobil

<sup>1</sup> Мақсудова Н. Халқ мақолларида ўзбек миллий қиёфаси // Молодой учёный. -2020.-№ 19 (309). -C. 574. / - C. 572-576.

<sup>2</sup> Ergashev M., Niyozov I. Proverbes et Dictons d'Ouzbékistan, Paris: EDITIONS GEORAMA, 2006.-P.46./- 96p.

sifatida erta turganning ishi barakali bo'lishini aks ettirgan qofiyali va jozibador *Ertalabki ish, ko'ngilni qilar xush* maqolini keltirish mumkin.

Shuningdek, fransuz tilida aynan shu maqolning yana qofiyadosh va esda qolarli *À qui se lève matin, Dieu prête la main* muqobili ham mavjud. Uning o'zbekcha so'zma-so'z tarjimasi esa *Erta turganga Xudo qo'lini o'zatadi* degan ma'noni ifodalaydi. Ushbu fransuzcha maqolning ham o'zbek tilida aynan mos muqobili mavjud, ya'ni o'zbek xalqi orasida juda keng ishlatiladigan *Erta turganga Xudo beradi* maqoli aynan shu maqolning o'xshash varianti hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zbek tilida *Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko'p turtinar; Erta turgan yigitning bir rizqi ortiq, erta turgan ayolning bir husni ortiq* kabi maqollar ham erta turishning xosiyatidan darak beruvchi maqollar hisoblanadi<sup>1</sup>. Bundan kelib chiqadiki, fransuz va o'zbek tilidagi bu ikkala maqol ham kishilarning sahardan turib mehnat qilishi, uy-ro'zg'or ishlari bilan mashg'ul bo'lishi, dalada ishlashi kabi odatlар ikkala xalqqa ham xos ekanligidan dalolatdir.

Yuqorida tahlil qilingan qofiyadosh maqollar fransuz va o'zbek halqi urf-odatlari bir-biri bilan ancha yaqin ekanligini ko'rsatish bilan bir qatorda, ushbu urf-odatlarni o'zida mujassamlashtirgan qofiyadosh maqollardagi qofiyadoshlik xususiyati ham bir-biriga deyarli monand ekanligini ifodalaydi. Masalan, fransuz tilidagi ravon shaklda aks etadi. Ikkala tilda ham birdek qofiyadoshlik asosida jaranglovchi bunday maqollar ro'yxati ancha boy bo'lib, ularni lingvistik nuqtai nazardan alohida tadqiqotlar obyekti sifatida o'rganish qiyosiy paremiologiya sohasini rivojlantirishning ma'lum bir pillapoyalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ikkala tilda ham birdek qofiyali tarzda ifodalangan bunday maqollarga quyidagicha ko'plab misollar keltirish mumkin. Ushbu jadvalga e'tibor qaratilsa, qofiya, ya'ni maqol misralaridagi ohangdosh so'z yoki so'z birikmasining izchil ketma-ketlik asosida takrorlanib kelishi maqolning mazmun, shakl va tuzilishiga xos jozibadorlikni ta'minlovchi asosiy lingvistik hodisa ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin:

<b>Fransuzcha qofiyadosh maqollar:</b>	<b>O'zbekcha qofiyadosh maqollar:</b>
<i>Il faut travailler en jeunesse, Pour reposer en vieillesse.</i>	<i>Yoshlikning mehnati Qarilikning rohati</i>
<i>Qui ne travaille pas, ne mange pas.</i>	<i>Ishlamagan tishlamaydi.</i>
<i>Bouche de miel - coeur de fiel.</i>	<i>Tili asal, ichi zahar.</i>
<i>À chaque oiseau son nid est beau.</i>	<i>O'z uying - o'lan tushaging.</i>
<i>Ami de table est bien variable.</i>	<i>Puling borida - ana do'st, Puling yo'g'ida - qani do'st.</i>

<sup>1</sup> Ўзбек халқ мақоллари. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. -Б. 389./ -512 б.

Biroq fransuz tilidagi qofiyalangan yoki reduplikativ tarzda yasalgan maqollarning hammasi ham o'zbek tiliga talqin qilinganda qofiyali tuzilishda bo'lmasligi ham mumkin. Ular ma'no jihatdan bir-biriga aynan mos keladi, ammo qofiya jihatdan esa ohangdosh bo'lmaydi. Masalan:

*En chacune maison, sa croix et passion. – Har bir oilaning o'z qonun-qoidasi bo'ladi;*

*Faute avouée est à moitié pardonnée – Egilgan boshni qilich kesmas; Chose défendue, chose désirée. – Ta'qiqlangan meva shirin bo'ladi.*

Fransuz tilida bir-biridan jozibali ohangdosh qofiyali maqollar ko'pchilikni tashkil etadi. Lekin ularning barchasi ham o'zbek tilida o'z muqobillariga ega emas. Binobarin, har bir xalqning o'ziga xos milliy qadriyat va an'analari bo'lgani kabi g'arb xalqlarida ham o'ziga xos milliylik asosida paydo bo'lgan maqol va matallar bisyor. Masalan, *Revenons à nos moutons. – Mavzuga qaytamiz; Il faut un désordre pour amener un ordre. – Tartibga keltirish uchun oldin betartiblik kerak*; kabi maqollar shular jumlasidandir. Bunday maqollar fransuz xalqining o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi maqollar hisoblanadi.

Fransuzcha qofiyadosh maqollarni shu tariqa tahlil qilish natijasida azaliy qadriyatlardan *do'stlik, haqiqat, vaqt ni qadrlash, keksalik, yoshlik* kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan hamda nutqda eng ko'p qo'llaniladigan maqol va matallarga ham duch kelish mumkin.

## X U L O S A

Ikkala xalq, ya'ni mag'rib va mashriqzamin xalqlaridan fransuz va o'zbek xalqi o'rtasidagi o'xshash an'ana va urf-odatlar mavjudligini shu asnoda tahlil qilish orqali ularga xos til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi hamda ikkala xalq madaniyati va dunyoqarashlarida o'zaro hamohanglik borligini aniq faktli misollar asosida tasavvur etish imkonini paydo bo'ladi. Zero, ularning tili, dini va madaniyati turli xil bo'lishidan qat'iy nazar umuminsoniy qadriyatlар azal-azaldan barcha insonlarga xos tushunchalar bo'lib, bunday tushuncha va g'oyalar har bir xalqning o'ziga xos donishmandligi asosidagi maqol va matallarda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

Maqollar har qanday tilda ham mutolaa qilinganda dastlabki yorqin ko'zga tashlanadigan xususiyat, bu ohanglarning qofiyaviy uyg'unligidir. Bunday qofiyadoshlik ularning struktur tuzilishida, eng muhim kommunikativlik xususiyatida, qolaversa, mazmun-mohiyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir xalqning o'ziga xos donishmandligi va tafakkuri asosida shakllangan maqol va matallar xazinasi mavjud bo'lib, ular bevosita madaniyat ko'zgusi sifatida til, madaniyat, elat va xalqlarning bir butunlikdagi o'zaro munosabatini aks ettiruvchi omillardan biri sanaladi. Fransuzcha qofiyadosh maqollarni lingvomadaniy jihatdan o'zbek tilidagi muqobillari bilan qiyosiy o'rganish natijasida umuminsoniy qadriyatlар

ikkala xalq madaniyati va ijtimoiy turmush tarzida deyarli bir xil tushuncha va qarashlar nuqtayi nazaridan talqin qilinishi namoyon bo'ladi.

Shuningdek, *qadr-qimmat, do'stlik, qo'shnichilik, vaqt qadri* va boshqa shu kabi umuminsoniy qadriyat tushunchalari o'zbek xalqi madaniyatida fransuz xalqi madaniyatiga qaraganda ancha keng qamrovli va har tomonlama chuqur mulohazali maqollar bilan ifodalananadi. Ushbu holat ikkala tildagi ma'lum bir mavzuni ifodalovchi maqollar nomenklaturasi o'rganilganda ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, fransuzcha qofiyadosh maqollarni o'zbek tilidagi muqobillari bilan qiyoslash orqali ikkala tilda ham maqollar asosan, qofiya va takroriy elementlar asosida o'ziga xos jozibadorlik, mazmunan teranlik va nutqiy ravonlik kasb etishi yaqqol namoyon bo'ladi.



## GLOSSARY :

<i>qofiyadosh maqollar</i>	Maqollar tarkibida ma'lum bir elementning, ya'ni tovush, bo'g'in yoki so'zlarning bir-birlariga bo'lgan ohangdorligi asosida hosil bo'lgan maqollar.
<i>tilning borliqdagi in'ikosi</i>	Tilning tevarak-atrofimizda o'rab turgan borliqdagi aksi.
<i>paremiologik birliklar</i>	Frazeologiya fanining maxsus bo'limi hisoblangan "Paremiologiya"ning birliklari, ya'ni maqol, matal va aforizmlar paremiologik birliklar sanaladi.
<i>lisoniy qobiliyat</i>	Kishilarning tildan foydalanish qobiliyati lisoniy qobiliyatdir.
<i>lingvomadaniyats hunoslik fani</i>	Tilni madaniyat bilan qorishiq holda o'rganish natijasida paydo bo'lgan fan.
<i>lingvistik hodisa</i>	Til doirasida sodir bo'ladigan har qanday jarayon, holat, xususiyat va boshqalar o'ziga xos lisoniy hodisadir.
<i>epiforik qofiya</i>	Qofiyaning she'riy tarzda amalga oshadigan shakli epiforik qofiyadir.
<i>takroriylik xususiyati</i>	Ushbu o'rinda <i>takroriylik xususiyati</i> deganda, tavtologiya hodisasi emas, balki, aksariyat hollarda qofiyadoshlik bilan yonma-yon sodir bo'ladigan til hodisasi, ya'ni frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning takrorlanib kelishi tushuniladi.
<i>maqollar nomenklaturasi</i>	Ma'lum bir turdag'i maqollar tarkibi, soni, ro'yxati kabilarning bir tizimdagi nomma-nom guruhi yoki majmui.



## SAVOLLAR :

1. Tilda paremiologik birliklarning tutgan o'rni qaysi omillar orqali namoyon bo'ladi?
2. Tilshunoslarning maqol va matallar borasidagi qanday fikrlarini bilasiz?
3. Qofiya nima va uning qanday lisoniy shakllari mavjud?
4. Fransuzcha qofiyali maqollarning asosan qanday turlari keng tarqalgan?
5. Fransuzchada *tel pied* – *tel soulier* maqolining o'zbek tili bilan qiyoslaganda qanday differentsiyal va nodifferentsiyal xususiyatlari ko'zga tashlanadi?
6. Fransuz va o'zbek xalqining *qo'shnichilik* borasidagi qadriyatlarini qaysi maqollar orqali ko'rish mumkin?
7. Ikki xalq madaniyatining *qo'shnichilik* qadriyatlari o'rtasida o'zaro qanday o'xhashliklar mavjud?
8. *Qo'shnichilik* qadriyatlari ikkala xalq madaniyatida o'zaro qanday farq qiladi?
9. Fransuz va o'zbek xalqining *do'stlik* borasidagi qadriyatlarini qaysi maqollar orqali ko'rish mumkin?
10. Ikki xalq madaniyatining *do'stlikka doir* qadriyatlari o'rtasida o'zaro qanday o'xhashliklar mavjud?
11. *Do'stlik* doirasidagi qadriyatlar ikkala xalq madaniyatida o'zaro qanday farq qiladi?
12. Maqol va matallarni bunday tarzda qiyosiy o'rganish natijasida tilni chuqurroq tadqiq qilishda qanday imkoniyatlar paydo bo'lishi mumkin?



## AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

**Topshiriq-1.** Ma'ruza matnini o'rganib, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

№	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To'g'ri	Xato	Ma'lum emas
1.	Tilda muloqotning eng jozibador, ixcham, qulay va samarador vositasi hisoblangan maqol va matallar tilning borliqdagi in'ikosidir.			
2.	Nutqni yanada aniq, ravon hamda jozibador bo'lishini ta'minlovchi qofiyali maqollar keng qo'llanilgan holda ulardag'i ohanglar uyg'unligi maqollarni tez esda saqlanishiga yordam beradi.			
3.	Kishilarning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarda madaniy elementlarning aks etishi tabiiydir. Binobarin, tilshunos Sh. Safarov ham ta'kidlaganidek, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi.			
4.	Xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan har qanday leksema bevosita paremiologik birliklar tarkibida ishtirok etadi va shu orqali V.Teliya qayd etganidek, bunday so'zlar ham xalqning madaniyatini bevosita aks ettira oladi.			
5.	Maqollardagi qofiya ulardag'i ritm va musiqiylikni ta'minlaydi, buni esa maqollar g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq lingvistik hodisa sifatida tavsiflab bo'lmaydi.			
6.	Fransuz tilidagi <i>tel pied – tel soulier</i> ( <i>oyog'iga yarasha poyafzali</i> ) maqoli va o'zbek tilidagi <i>uloviga yarasha tushovi</i> maqoli o'rtasida qofiyaviy, mazmuniy, etimologik o'xshashlik mavjud.			
7.	Fransuzcha <i>tel pied – tel soulier</i> maqoli ikkala tilda ham ifodalayotgan ma'nolari, vositalari bir xildir. Hatto, ularning struktur tuzilishi ham aynandir.			
8.	Fransuzcha <i>tel pied – tel soulier</i> maqoli <i>sabab va natija qadr va qiymat</i> hamda <i>munosabat</i> tushunchasini ifodalaydi.			
9.	Tahliliy tarzda izlanish natijasida fransuz va o'zbek xalqi milliy dunyoqarashlari o'rtasida mutanosiblik mavjud, degan xulosaga kelish mumkin.			
10.	Azaliy qadriyatlardan biri bo'lgan <i>qo'shnichilik</i> asosi g'arb xalqlari madaniyatiga borib taqaladi.			
11.	<i>N'achète pas la maison avant d'avoir acheté le voisin</i> maqoli qofiyali va reduplikativli maqoldir.			

12.	Fransuzcha <i>Heure du matin, heure du gain</i> maqoli o'zbek tilidagi <i>Ertalabki ish, ko'ngilni qilar xush</i> maqoliga har tomonlama mos keladi, ya'ni mazmun, struktur, funksional va etimologik jihatdan aynan mos keladi.		
13.	Fransuzcha <i>Bien faire vaut que bien dire</i> maqoli o'zbek tilida <i>Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla</i> tarzida chiroyli jaranglaydi. Fransuz tilidagi qofiyali maqollarning barchasi o'zbek tilida shunday oson esda qoladigan maqollar sifatida o'r ganiladi.		
14.	Maqollar har qanday tilda ham mutolaa qilinganda dastlabki yorqin ko'zga tashlanadigan xususiyat, bu - ohanglarning qofiyaviy uyg'unligidir. Bunday qofiyadoshlik ularning struktur tuzilishida, eng muhim kommunikativlik xususiyatida, qolaversa, mazmun-mohiyatida muhim ahamiyat kasb etadi.		

**Topshiriq-2.** Quyidagi fransuzcha maqollarni berilgan namunadagidek qofiyali, qofiyasiz va reduplikatsiyali turlarga ajratib ko'rsating:

Nº	Fransuzcha maqollar:	Qofiyali	Qofi- yasiz	Redupli- katsiyali
1.	<i>A bon chat, bon rat</i>	<i>chat - rat</i>		<i>bon - bon</i>
2.	<i>A bon vin point d'enseigne.</i>			
3.	<i>A chaque jour suffit sa peine.</i>			
4.	<i>A cœur vaillant, rien d'impossible.</i>			
5.	<i>A l'oeuvre on voit l'artisan.</i>			
6.	<i>A la guerre comme à la guerre.</i>			
7.	<i>A vieux comptes, nouvelles disputes.</i>			
8.	<i>Aussitôt dit, aussitôt fait</i>			
9.	<i>Autres temps, autres moeurs.</i>			
10.	<i>Bien faire et laisser dire .</i>			
11.	<i>Bon pied, bon œil!</i>			
12.	<i>C'est en forgeant qu'on devient forgeron.</i>			
13.	<i>Chacun pour soi, Dieu pour tous.</i>			
14.	<i>Comme on fait son lit, on se couche.</i>			
15.	<i>Commun n'est pas comme un<sup>1</sup>.</i>			

**Topshiriq-3.** Quyidagi fransuzcha qofiyali maqollarni berilgan izohlariga ko'ra o'zbekcha muqobilini toping yoki talqin qiling va berilgan

<sup>1</sup> <https://www.dicocitations.com/signification-proverbe.php#>

*jadval asosida o'zbek tilida ham qofiyali / qofiyasiz ekanligini aniqlab tahlil qiling:*

1. *Des sottises faites à plaisir, on se repent à loisir* - le regret d'avoir mal agi est proportionnel au plaisir pris lors du méfait.
2. *Déshabiller Pierre pour habiller Paul* - se tirer d'une difficulté en s'en créant une nouvelle.
3. *Donner un oeuf pour avoir un boeuf* - faire un petit cadeau dans l'espoir d'en recevoir un plus considérable.
4. *Fais ce que dois, advienne que pourra* - Fais ton devoir sans t'inquiéter de ce qui pourra en résulter.
5. *Fais ce que je dis, ne fais pas ce que je fais* - se dit d'une personne dont le comportement n'est pas conforme à ses propres conseils.
6. *Goutte à goutte on emplit la cuve* - la patience et la persévérance finissent toujours par payer.
7. *Heureux au jeu, malheureux en amour* - celui qui gagne souvent au jeu est rarement heureux en ménage.
8. *Il est plus de trompeurs que de trompettes* - les fourbes évitent en général de se vanter de leurs perfides exploits.
9. *Il ne faut pas puiser au ruisseau quand on peut puiser à la source* - il est préférable de se servir directement à l'origine.
10. *Il vaut mieux prévenir que guérir* - il faut prendre toutes les précautions afin d'éviter au maximum les difficultés<sup>1</sup>.

Nº	Fransuzcha maqollar:	O'zbekcha muqobili yoki talqini:	Qofiyali	Qofiyasiz
1.	<i>Des sottises faites à plaisir, on se repent à loisir.</i>	<i>So'nggi pushaymon – o'zingga dushman.</i>	+	
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				

<sup>1</sup> <https://www.dicocitations.com/signification-proverbe.php#a>

8.			
9.			
10.			

**Topshiriq-4.** Paremiologik birliklarning quyida berilgan ikki xil turiga mos keladigan 10tadan o'zbekcha maqollarni topib yozing va qofiyali qismlarini ajratib ko'rsating:

Bir misrali maqollardagi ichki qofiya:	She'riy tarzdagi maqollardagi epiforik qofiya:
1. <i>Aytilgan so'z – otilegan o'q.</i>	1. Mehnatdan kelsa <b>boylik</b> Turmush bo'lar <b>chiroylit.</b>
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.
6.	6.
7.	7.
8.	8.
9.	9.
10.	10.

**Topshiriq-5.** Paremiologik birliklarning quyida berilgan ikki xil turiga mos keladigan 10tadan fransuzcha maqollarni topib yozing va qofiyali qismlarini ajratib ko'rsating:

Bir misrali maqollardagi ichki qofiya:	She'riy tarzdagi maqollardagi epiforik qofiya:
1. <i>Bonjour lunettes, adieu fillettes.</i>	1. Pour obtenir un œuf Il faut demander un bœuf.
2.	2.

3.	3.
4.	4.
5.	5.
6.	6.
7.	7.
8.	8.
9.	9.
10.	10.

**Topshiriq-6.** Quyidagi fransuzcha maqollarga vaziyatli gaplar tuzing:

Nº	Fransuzcha qofiyadosh maqollar:	O'zbekcha talqini:
1.	<i>Il faut travailler en jeunesse, Pour reposer en vieillesse.</i>	<i>Yoshlikning mehnati Qarilikning rohati</i>
2.	<i>En chacune maison, sa croix et passion.</i>	<i>Har bir oilaning o'z qonun-qoidasi bo'ladi;</i>
3.	<i>Faute avouée est à moitié pardonnée</i>	<i>Egilgan boshni qilich kesmas;</i>
4.	<i>Chose défendue, chose désirée.</i>	<i>Ta'qiqlangan meva shirin bo'ladi.</i>
5.	<i>Qui ne travaille pas, ne mange pas.</i>	<i>Ishlamagan tishlamaydi.</i>
6.	<i>Bouche de miel - cœur de fiel.</i>	<i>Tili asal, ichi zahar.</i>
7.	<i>À chaque oiseau son nid est beau.</i>	<i>O'z uying – o'lan tushaging.</i>
8.	<i>Ami de table est bien variable.</i>	<i>Puling borida – ana do'st, Puling yo'g'ida – qani do'st.</i>



MUSTAQIL ISH  
TOPSHIRIQLARI :

1. BAXT, MEHNAT, VATAN yoki boshqa mavzularning birortasi boyicha fransuzcha maqollarni tanlab, ularni fransuz va o'zbek paremiologiyasi misolida qiyosiy tahlil qiling.

2. Tilshunoslarning maqollar borasidagi fikrlarini quyidagi jadval asosida to'plang va ularni ilmiy-nazariy jihatdan o'rgangan holda tahlil qiling:

<b>№</b>	<b>Tilshunos-larning ismi va familiyasi:</b>	<b>Maqollar borasidagi fikri</b>	<b>Olingan manba:</b>
1.	V.Teliya	<i>Maqollar – xalq madaniyatini ko'rsatuvchi omil.</i>	Телия В.Н. Русская фразеология.–Москва:Шк. Языки рус. Культуры; 1996. – С.40.
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			
8.			
9.			
10.			



**KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING KOGNITOLOGIYA  
FANIDA O'RGANILISHI**  
**(fransuz frazeologiyasidagi *oila* konsepti misolida)**

**Darsning maqsadi:** Talabalarda konsept tushunchasi va fransuz tilidagi “Oila” konsepti borasidagi tushunchalarni kognitologik nuqtayi nazardan iboralar orqali tahlil qilish bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirish. Xususan, fransuz frazeologiyasidagi “Oila” konseptining turli xil tafakkur shakllari - “Ota” - “Ona” - “Farzand” - “butun oila” - “oiladan tashqari oila/jamoa” singari mikrokonseptual tushunchalarni namoyon etish.

**Reja:**

1. Konsept tushunchasi va uning tilshunoslar talqinidagi tavsifi.
2. Fransuz frazeologiyasida *OILA* konsepti va uning madaniyat va tafakkur bilan bog'liqligi.
3. Fransuzcha *famille* komponentli iboralar *OILA* konseptining asosiy modeli sifatida.
4. Fransuzcha *famille* komponentli iboralarning kognitiv xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** *oila* konsepti, tushuncha, ibora, frazeologik ma'no ottenkalari, mikrokonseptual tushunchalar, komponent.

**1. Konsept tushunchasi va uning tilshunoslar talqinidagi tavsifi**

Inson ob'ektiv voqelikni mushohada qilar ekan, u bo'yicha barcha bilimlarini, turli “konseptlar” orqali egallaydi, ularni shakllantiradi, boyitadi va kundalik muloqotda qo'llaydi. Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o'rganiladigan muammo – bu konseptdir. Chunki *kognitiv tilshunoslik* – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan bo'lsa, *konsept* kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtaсидаги aloqa о'rnatuvchi elementdir.

“Konsept” termini o'tgan asrning 90 – yillaridan beri tilshunoslikda keng qo'llanilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Konseptlarning o'rganilishi bo'yicha eng taniqli tilshunoslarning quyidagicha fikrlarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

<b>Tilshunos olimlar:</b>	<b>Konsept borasidagi izoh va ta'riflar:</b>
<b>S. A. Askoldov</b>	<i>Konsept</i> - bu bir tur yoki boshqa turdagи tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir <sup>1</sup> .
<b>D. S. Lixachev</b>	<i>Konsept</i> - so'zning lug'atdagi ma'nosi va insonning o'z milliy qarashlari bilan to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladigan fikrlash jarayonining mahsuli <sup>2</sup> .
<b>E. Komarov</b>	<i>Konsept</i> - mazmun strukturasiga ko'ra leksik ma'nodan ancha katta va kengqamrovli tushuncha sanaladi. Buning sababi konseptning mental hodisa ekanligi bilan bog'liqdir <sup>3</sup> .
<b>N. Arutyunova</b>	<i>Konsept</i> - ham mental birlik, ham tafakkur elementi sifatidadir. U olam va odam o'rtasidagi madaniy unsur <sup>4</sup> .
<b>E. S. Kubryakova</b>	<i>Konsept</i> - "mental tuzilma va turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi <sup>5</sup> ".
<b>S. G. Vorkachev</b>	<i>Konsept</i> – tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik o'ziga xoslikka ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to'plamidir <sup>6</sup> .
<b>Yu. Shvedova</b>	<i>Konsept</i> bu – tushuncha bo'lib, uning ortida esa ijtimoiy yoki sub'ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiyl tajribasini aks ettiradigan mazmun yotadi <sup>7</sup> .
<b>Sh. Safarov</b>	Moddiy dunyo idroki – predmet-hodisalar haqidagi tushunchaning tug'ilishi bo'lib, ushbu tushuncha mental namuna, ya'ni <i>konsept</i> sifatida shakllanadi <sup>8</sup> .
<b>D. U. Ashurova</b>	<i>Konsept</i> - mantiqiy, milliy xususiyatga ega bo'lgan bir hodisa. Uning negizini aynan shu o'rganilayotgan ob'ekt haqidagi bilim tashkil qilsa, ifodalanishini esa leksik, frazeologik, parameologik va boshqa til vositalari tashkil qiladi <sup>9</sup> .

Ushbu keltirilgan ta'riflarni tahlil qilgan holda ularni quyidagicha tarzda umumlashtirish mumkin, ya'ni konseptni to'rt xil nuqtayi nazardan tavsiflovchi ta'riflar mavjud bo'lib, ularning mualliflari quyidagichadir:

<sup>1</sup> Асколдов С.А. Мысль и действительность. –М.: Путь, 1914. –С. 32.

<sup>2</sup> Д.С. Лихачев «Концептосфера русского языка

[https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Literat/lihach/konsept.pdf](https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Literat/lihach/konsept.pdf)

<sup>3</sup> Комаров Е. «Ценностные ориентиры в заголовках французских и российских средств массовой информации» <https://www.dissercat.com/content/tsennostnye-orientiry-v-zagolovkakh-frantsuzskikh>

<sup>4</sup> Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка. Культурные концепты. –М.: Наука, 1991. –С.43 / -204 с.

<sup>5</sup> Кубрякова Е. С. О когнитивной лингвистике и семантике термина “когнитивный” // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. 90-с.

<sup>6</sup> Воркачев С. Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – №4.

<sup>7</sup> Шведова Ю. Большая российская энциклопедия - электронная версия <https://bigenc.ru/linguistics/text/4691954>

<sup>8</sup> Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослиқ. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91.

<sup>9</sup> Ашуррова Д. У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологияниң дозарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент,2008. – Б. 11.

Tilshunoslar konseptni tavsiflashda quyidagilarga asoslanadi:											
<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ turli xil tushuncha va bilimlar majmu;</li> <li>✓ mental hodisa;</li> </ul>					<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ milliy xususiyat;</li> <li>✓ mantiqiy hodisa;</li> </ul>			<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ mental birlik;</li> <li>✓ madaniy unsur;</li> </ul>		<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ mavhum ilmiy tushuncha;</li> </ul>	
S. A. Askoldov	E. S Kubryakova	Sh. S. Saferov	E.Komarov	V.V.Kolesov	O' . Q. Yusupov	D. S. Lixachev	S.G.Vorkachev	Yu.Shvedova	D.U. Ashurova	N. Arutyunova	A.Solomonik

Demak, biror so'zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanada ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi. Konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalanadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bog'liq jihatlarini, lingvomadaniy ko'rinishlarini kognitiv talqinda tahlil etadi<sup>1</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni o'rganish natijasida shuni aytishimiz mumkinki, *konsept* tushunchasi bizning ongimizda kechuvchi bir necha jarayonlarning asosiy natijasidir va u kognitiv tilshunoslik sohasidagi alohida tadqiqni talab etadi.

## 2.Fransuz frazeologiyasida *OILA* konsepti va uning madaniyat va tafakkur bilan bog'liqligi

Fransuz frazeologiyasida *famille-oila* komponentli iboralar o'ziga xos ma'no va xususiyatlarga ega bo'lib, ularni turli xil lingvistik tadqiqot metodlari orqali, xususan, konseptual jihatdan keng tarzda tahlil qilish mumkin. Darhaqiqat, *oila* tushunchasini o'ziga jo qilgan bunday iboralarni frazeologiya doirasidagi lingvokognitiv xususiyatlarni ochib berishdagi serqirra jihatlariga ko'ra turli xalq va tillar o'rtasidagi milliy-madaniy jihatlarni talqin qilishdagi eng zaruriy ma'no ottenkalari bilan ajralib turadigan o'ziga xos frazeologik birliklar sifatida tavsiflash o'rinnlidir. Shu sababli fransuz tilidagi *famille* komponentli iboralar ko'plab tadqiqot ob'ektlari sifatida xizmat qilishga haqlidir. Shunday ekan, fransuz tilida *oila* ma'nosidagi *famille* leksemasi ishtirokida hosil bo'lgan yuzga yaqin frazeologik iboralar mazkur kichik izlanishning ham asosiy ob'ekti bo'la

<sup>1</sup> Анорқулова О. Концепт тушунчаси ва унинг ўзбек тилшунослигидаги тадқиқига доир мулоҳазалар. / Вестник магистратуры. 2022. № 4-2 (127). - Б. 52-55. [file:///C:/Users/User/Downloads/konsept-tushunchasi-va-uning-zbek-tilshunosligidagi-tad-i-iga-doir-mulo-azalar%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/konsept-tushunchasi-va-uning-zbek-tilshunosligidagi-tad-i-iga-doir-mulo-azalar%20(2).pdf)

oladi. Zero, tilshunos Sh.Safarov qayd etganidek, oila va undagi qadriyatlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'lilik zamirida yorqin namoyon bo'lish hollarini inobatga olgan holda ilmiy-madaniy mazmun qolipiga ega bo'lgan bunday konseptlarni tahlil qilishda *til-inson-madaniyat-tafakkur* to'rtligiga amal qilish lozimdir<sup>1</sup>.

"*Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydi-ki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish beba ho ne'mat bor.*"<sup>2</sup> Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda oila – jamiyat ustuni, insoniyat mavjudligining fundamental asoslaridan biri sifatida til, madaniyat va tafakkur omillarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy hodisadir. Shu boisdan aynan *oila* ma'nosidagi fransuzcha *famille* leksemali iboralar fransuz tilida ko'pchilikni tashkil etishini inobatga olgan holda ularni *oila* konseptini ifodalovchi maxsus model sifatida tavsiflash mumkin, deb hisoblaymiz.

Avvalambor, ushbu leksemaning semantik mazmun-mohiyatini to'laqonli anglash uchun fransuz tili lug'atlaridagi *famille* so'ziga berilgan turfa lug'aviy xususiyatlarga e'tibor qilaylik. Masalan, *Le Robert (Dico en ligne)* lug'atida ushbu so'zning bir qancha ma'nolari berib o'tilgan. Xususan, *famille* so'zi antik davrda etimologik nuqtayi nazardan bir tom ostida yashovchi odamlar to'plami sifatida ta'riflangan. Didaktik jihatdan esa qon-qardoshligi bir bo'lgan va bir joyda birlashgan ittifoqli guruh ma'nosini ifodalagan. Masalan, *La famille antique, la famille moderne. Famille patriarchale*<sup>3</sup>.

Ushbu so'z tor ma'noda aynan ota-onva bolalardan tashkil topgan jamoa, deb ham talqin qilinadi. Masalan, *Fonder une famille. La vie de famille. Des familles.* Shuningdek, fransuz xalq tilida qo'llaniladigan oila xotirjamligini ifodalovchi *Une petite sieste des familles* so'z birikmasida ham tashvishsiz hayotdagi tinch oila davrasi tushuniladi. Bundan tashqari, ma'lum bir er-xotinning farzandlari ma'nosida ham keng qo'llaniladi. Masalan, *Une famille de cinq enfants. Père, mère de famille.*

Mazkur so'z keng ma'noda nasl-nasab, nikohdan o'tgan er-xotinlar yoki asrab olingan farzandlar ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan, *Nom de famille* – ya'ni patronimlar (ismi, sharifi va nasabi), *La famille de qqn, sa famille. Famille recomposée. Avoir un air de famille.* Oila a'zolarining bir davrada yig'ilishi ham ushbu so'z ma'no ottenkalaridan biri sanaladi: *Être en famille, Réunion de famille.*

Shu bilan birga, avloddan-avlodga o'tadigan oila vorisligi tushunchasi ham *famille* so'zi orqali ifodalanadi. Masalan: *Famille royale. Une famille de musiciens.* Gohida kinoya tariqasida *de bonne famille, qui appartient à une famille bourgeoise* iborasi ham fransuz xalqida keng ishlatiladi.

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Семантика. –Тошкент: "Ўбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2013. –Б. 268. / -344 б.

<sup>2</sup>Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 67. / -176 б.

<sup>3</sup>Le Robert (Dico en ligne) <https://dictionnaire.lerobert.com/definition/famille>

Shuningdek, ota-onasining imtiyozli holatidan foydalanadigan oilaning o'g'li, ya'ni *oila erkasi* ma'nosida ham qo'llaniladi. Masalan, *Fils de famille - fils à papa* iborasi shu hihatdan to'liq mos keladi.

Fransuzcha *famille* so'zining keng ma'noda qo'llanilishiga xos yana bir jihatni uning ma'lum bir sifat yoki determinativ predloglar bilan birga ishlataliganda u ifodalayotgan tushunchaning umumiylilik kategoriyasi asosida aks etishidir. Masalan, *Famille de langues*, *Famille de mots*, ya'ni *tillar oilasi* yoki *so'zlar oilasi* deganda bir xildagi referensial tushunchalar majmui aks etadi. Ushbu so'zning bu turdagisi ma'nosini ayniqsa hayvon va o'simliklar dunyosini tasniflashda juda qo'l keladi (masalan, *sudralib yuruvchilar oilasi*, *boshqoli / donli ekinlar oilasi* va hokazo).

Mazkur leksemaga tegishli lug'aviy izohlar xilma-xil bo'lib, uning semantik ma'nolari negizi asosida *oila* tushunchasi har tomonlama to'liq aks etgan. Biroq tilshunos Sh.Safarov ta'kidlariga amal qilsak, til birliklarini semantik jihatdan tadqiq qilish jarayonida faqat ularning lug'aviy izohlari bilan chegaralanish so'zlar semantik ma'nolarining torayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ushbu so'z semantikasiga *pragmatik*, *sotsiolingvistik*, *psixolingvistik* kabi til birliklari mundarijasining muhim qismlarini tashkil etadigan ma'lumotlarni ham inobatga olish lisoniy ma'no kategoriyasi doirasining ancha kengayishiga yordam beradi<sup>1</sup>. Shu boisdan quyida *famille* so'zining yuqorida ko'rib o'tilgan lug'aviy ma'no ottenkalarini uning iboralari mazmuni tarkibidagi ma'no ottenkalari bilan boyitishga harakat qilamiz. Mazkur so'zning lug'atlardagi izohlariga e'tibor qilishdan asosiy maqsad ham *famille* so'zining lug'aviy va frazeologik ma'nolarini o'zaro taqqoslashdan iboratdir. Buning uchun *famille* komponentli iboralarni ijtimoiy hodisa sifatidagi *oila* konsepti asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

### **3. Fransuzcha *famille* komponentli iboralar OILA konseptining asosiy modeli sifatida**

Aynan *oila* tushunchasi asosida hosil bo'lgan fransuz madaniyatiga xos milliy belgilarni aniqlash va fransuz madaniyati sohiblariga mos bo'lgan *oila* a'zolarining milliy-madaniy o'ziga xosligini o'rganish ijtimoiy fenomen hisoblangan oilaning asosiy aspektlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ma'lumki, tildagi mavjud leksik birliklarning semantik ma'no ottenkalari lisoniy va aqliy faoliyat orqali uzviy bog'liq. M.Chomskiy ham tilni an'anaviy tarzda inson ongi ko'zgusidir, deb ta'riflaydi<sup>2</sup>. Masalan: *en famille - oila davrasida; famille inadaptée - muammoli oila; situation de famille - oilaviy ahvoli; une famille de jardiniers - oilaviy sulola; famille proche - yaqin qarindosh; soutien de famille - oila suyanchi; conseil de famille -*

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Семантика. -Тошкент: "Ўбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2013. -Б. 31. / -344 б.

<sup>2</sup> Chomsky N. Reflections on Language. -New-York: Pantheon, 1975. -P. 4. / -269 p.

*oilaviy maslahat; grande famille - ahil oila; famille de robe - badavlat oila; attendre famille - farzand kutmoq* kabi frazeologik iboralar *famille* komponentidan tashkil topganligi uchun ham ularning har biri o'zlarida "*oila*" tushunchasini, qadriyat va milliy aspektlarni ifodalay olgan. Biroq fransuz tilida shunday iboralar, ya'ni *famille* so'zi ishtirokidagi ayrim frazeologik birliklar mavjudki, ular o'z tarkibida *famille* komponentini qabul qilganligiga qaramasdan, "*oila*" tushunchasidan biroz yiroq ma'nolarni ifodalashi ham mumkin. Biroq bunday ma'noli frazeologik iboralar fransuz tilida ozchilikni tashkil qiladi. Masalan:

- *pension de famille - hôtel ;*
- *films de famille - cinéma d'amateurs;*
- *en bon père de famille - correctement, dignement.*
- *Les deux cents familles - un petit nombre de familles tiendrait en main la majorité des leviers économiques de la France.*

"*Oila*" tushunchasi doirasidagi fransuzcha frazeologik birliklar nafaqat *oila* ma'nosidagi *famille* so'zi ishtirokida, balki, *oila* a'zolari nomlari, ya'ni *père* - *ota*, *mère* - *ona*, *fils* - *o'g'il* va *fille* - *qiz* so'zлari ishtirokida ham hosil bo'lishi mumkin. Masalan:

- *fils (fille) de famille - badavlat oila farzandi / erka qiz;*
- *le fils de la maison - xo'jayinning o'g'li;*
- *un fils à papa- ota o'g'il;*
- *père adoptif - o'gay ota;*
- *mère adoptive - o'gay ona;*
- *le père de famille - oila boshlig'i;*
- *vivre en bon père de famille - ahil oila bo'lib yashamoq;*

*Oila* a'zolari nomlari ishtirokidagi fransuzcha iboralarning barchasi ham *oila* tushunchasi doirasidagi ma'nolarni ifodalamasligi ham mumkin. Masalan, fransuz tilidagi *papa*, *père* ya'ni *ota* so'zi ishtirokidagi frazeologik iboralarda bunday holat ko'plab uchraydi. Xususan, quyidagi iboralar shular jumlasidandir:

*à la papa - shoshmay, bamaylixotir, oshiqmay, xotirjamlik bilan;*  
*de papa - eskirgan, udumdan chiqqan, Almisohdan qolgan;*  
*le coup du père François - yuzga tortilgan tarsaki;*  
*le Père Noël - qorbobo.*

"*Oila*" konsepti doirasidagi frazeologik birliklarni tahlil qilish jarayonida mazkur iboralar o'zlarining struktur tuzilishida mavjud o'ziga xos xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Xususan, ularning aksariyati *nom + de + famille* struktur tuzilishga egaligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, quyidagi iboralarga e'tibor qilaylik:

- *nom de famille - familiya;*
- *fiche de famille - oila ma'lumotlari yozilgan hujjat ;*
- *soutien de famille - oila tayanchi ;*
- *biens de famille - oilaviy mulk;*

- *chef de famille* – *oila boshlig'i;*
- *esprit de famille* - *oilaviy inoqlik;*
- *situation de famille* - *oilaviy ahvol;*
- *fils (fille) de famille* - *oila erkatoysi;*
- *conseil de famille* - *oilaviy maslahat;*
- *les médecins de famille* - *oila shifokorlari;*
- *papiers de famille* - *oilaga tegishli hujjatlar;*

Keltirilgan bu misollardagi *de famille* (*de la famille*) shakli orqali ularda okkazional xususiyatlarning mavjudligi aks etgan va ushbu holat esa ularni turg'un frazeologik iboralar sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Mazkur shakl, ya'ni *de famille* shakli yuqorida keltirilgan misollardagi kabi nafaqat otli iboralar tarkibida, balki, kam bo'lsada fe'lli iboralar tarkibida ham uchrashi mumkin. Masalan :

- *être chargé de famille* – *oila g'amxo'ri bo'lmoq;*
- *être de bonne famille* - *e'tiborli oilaga mansub bo'lmoq;*
- *être de famille de robe* - *badavlat oiladan bo'lmoq;* kabi iboralar shular jumlasidandir.

Qo'llanilayotgan predloglarning turiga ko'ra *de* predlogidan tashqari *en* predlogini ham ayrim hollarda uchratish mumkin. Masalan, *en famille*; *laver son linge sale en famille*. Fransuz tilidagi "oila" tushunchali frazeologik iboralar tarkibida *de famille* okkazional shakliga qaramaqarshi bo'lgan shakl, asosan *de la famille* shaklida erkin so'z birikmalari struktursida odatiy tarzda qo'llaniladi. Masalan:

- *code de la famille* – *oila kodeksi;*
- *planification de la famille* – *oila qurishni rejalaشتirish;*
- *dessin de la famille* – *oila tasviri tushirilgan surat* va hokazo.

#### **4. Fransuzcha *famille* komponentli iboralarning kognitiv xususiyatlari**

Quyida *oila* tushunchasi doirasidagi iboralar semantikasi va ularning o'ziga xos semantik maydon tuzilishini o'rganishga harakat qilamiz. Avvalambor, ushbu leksemaning yana boshqa lug'aviy izohlariga e'tibor qaratilsa, "Dictionnaire de l'Académie française" lug'atida<sup>1</sup> fransuzcha *famille* so'zi *Ensemble de personnes unies par le sang ou l'alliance*, ya'ni "bir xil qondoshlikdagi kishilar guruhi" tarzida tavsiflangan bo'lsa, yana boshqa manbada *Ensemble formé par les parents, les enfants et les serviteurs d'une maisonnée*, ya'ni "ota-onal, farzandlar va xizmatkorlardan iborat oilaviy jamoa" tarzida tavsiflangan<sup>2</sup>. Agar biz *oila* so'zini o'zbek tili nuqtayi nazaridan lug'aviy ma'nolariga e'tibor qaratsak, - *bola-chaqa, urug', avlod va er-xotin, ularning farzandlari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi*

<sup>1</sup>Dictionnaire de l'Académie française. <https://www.dicocitations.com/dico-mot-definition/60216/famille>

<sup>2</sup> Le Robert (Dico en ligne) <https://dictionnaire.lerobert.com/definition/famille>

*kishilar majmui* sifatida izohlangan<sup>1</sup>. Demak, *oila* tushunchasi xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlari ko'ra o'ziga xos ma'no kasb etadi, xususan, fransuz xalqida oilalarning o'ta ixcham tarkibda va ayrim oilalarda hatto xizmatkorlarning ham inobatga olinishi tushunilsa, o'zbek tilida esa o'shbu xalqning ancha oilaparvarligi tafayli u ancha keng tarkibni o'z ichiga oladi. Bundan ma'lumki, konsept qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar ko'p bosqichli tafakkur faoliyati mahsuli hisoblanadi<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, *famille* - *oila* leksemasining lug'aviy mazmunidan kelib chiqqan holda uning tarkibiy tuzilishidagi *ota*, *ona* va *farzand* uchligi iboralar semantik mazmunining fundamental asosini tashkil etadi, deyish mumkin. Shunday ekan, fransuz tilida mavjud *famille* komponenti ishtirokidagi iboralar majmui o'rganilganda ularni aynan "**ota**"- "**ona**"- "**farzand**" - "**butun oila**" - "**oiladan tashqari oila**" singari mikrokonseptual tushunchalar ostida jamlash mumkinligi oydinlashadi. Ushbu o'rinda "**oiladan tashqari oila**" mikrokonsepti zamirida asosiy oiladan tashqari "*ikkinchi oila*" tushunchasi emas, balki, "*qarindoshlar oilasi*" yoki "*ma'lum bir toifadagi narsa, predmet, hodisa va kishilar guruhi*" tushuniladi. Quyida har-bir semantik ma'nolarni ifodalovchi iboralar ro'yxatini keltirib o'tamiz. Agar I. A. Sternin ta'rifiga ko'ra oila konseptiga xos mazkur mundarijani tayanch va ikkilamchi qatlamlarga ajratish mumkin bo'lsa, "**ota**"- "**ona**"- "**farzand**" - "**butun oila**" tayanch qatlamlarni tashkil etsa, "**oiladan tashqari oila**" ikkilamchi qatlamni tashkil etadi<sup>3</sup>. Mazkur tayanch leksemalarning referensiallik xususiyatlari e'tibor qilinsa ham ular o'zlarida fransuz xalqiga xos milliylik ruhini aks ettira oladi<sup>4</sup>.

#### Oilaning "Ota" - a'zosiga qaratilgan iboralar:

<i>soutien de famille</i>	- <i>oila suyanchi</i> ;
<i>chargé de famille</i>	- <i>oila g'amxo'ri</i> ;
<i>chef de famille</i>	- <i>oila boshlig'i</i> ;
<i>être chargé de famille</i>	- <i>oila g'amxo'ri bo'lmoq</i> ; va boshqalar.

Ushbu iboralar *ota* semasining oiladagi maqomi, uning haqiqatdan oilani yaratuvchisi va himoya qiluvchisi ekanligidan dalolat beradi. Ma'lumki, ota oilada o'ziga xos rahnamo rolini o'taydi. Shuning uchun ham o'zbek xalqida "*Ota rozi – Xudo rozi*" degan fikr bezizga aytildagan. Etnologlar tahliliga ko'ra,

<sup>1</sup> [O'zbek tilining izohli lug'ati](#): 80 000 ortiq so'z va so'z birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. -B. 97.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Семантика. -Тошкент: "Ўбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2013. - Б. 268. / -344 б.

<sup>3</sup> Стернин М.А. Методика исследования структуры концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики.-Воронеж, 2001. -С.58-65.

<sup>4</sup> Сувонова Н. 2023. Некоторые референциальные свойства лексем, относящихся к предметам домашнего обихода во фразеологии (на материале французского и узбекского языков). Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 1, 4 (июл. 2023), 35-41. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp35-41>.

agar madaniyatlararo farqlanish e'tiborga olinmasa, barcha xalqlarda ham an'anaviy patriarxal oilalarda ota: a) boquvchi; b) oila boshlig'i va c) tartib-intizom o'rnatuvchi; ko'p hollarda oiladan tashqari, ijtimoiy mehnat faoliyatida bevosita tarbiyachi sifatida maydonga chiqadi. Shuning barobarida otaning oiladagi roli avtoritar ma'no ham kasb etadi. Zero, "Ota matonati – farzandlar uchun jasorat sabog'i" degan hikmat zamirida ham chuqur ma'no bor. Azaldan erkak kishi Vatan himoyachisi, oila qo'rg'oni, ayniqsa, o'g'illar uchun mardlik va jasorat namunasi bo'lib kelgan<sup>1</sup>.

### Oilaning “Ona” - a'zosiga qaratilgan iboralar:

- |                              |   |
|------------------------------|---|
| <i>attendre famille</i>      | - farzand kutmoq (homilador bo'lish ma'nosida); |
| <i>chargé de famille</i>     | - oila g'amxo'ri;                               |
| <i>famille monoparentale</i> | - yolg'iz ona(yoki ota)dan iborat bo'lgan oila. |

*Oila* konseptidagi *ona* obraziga tegishli iboralar tahlili asosan onaning farzandni dunyoga keltirish va unga g'amxo'rlik qilish vazifalariga ko'proq ishora qiladi. Bu esa onaning farzandlariga nisbatan mehribonlik siyosini aks ettiradi. Zero, farzand qalbini insoniy mehr-muhabbatga ezgulikka to'yintiradigan ham ONAdir.

### Oilaning “Bola” – a'zosiga qaratilgan iboralar:

- |                                  |  |
|----------------------------------|--|
| <i>appartenir à une famille</i>  | - oilaning bir bo'lagi bo'lmoq;        |
| <i>être de bonne famille</i>     | - e'tiborli oilaga mansub bo'lmoq;     |
| <i>être de famille de robe</i>   | - badavlat oiladan bo'lmoq;            |
| <i>fils (fille) de famille</i>   | - oila erkasi;                         |
| <i>le benjamin de la famille</i> | - oila erkatoyi;                       |
| <i>renier une famille</i>        | - oilani tark etmoq;                   |
| <i>enfant de famille</i>         | - qonuniy / nikohli farzand va hokazo. |

Ushbu keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, oilada farzandga yo'naltirlgan iboralar uning oila va jamiyatda tutgan o'rniga qarab hosil bo'lgan. Xususan, farzandning oila tarkibini tashkil etuvchi sub'ekt ekanligi, uning oiladagi mavqiye, qanaqa oilaga mansubligi, ya'ni ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra boy yoki kambag'al oiladan chiqqanligi, oila qoidalariga amal qilishi kabi qarashlar fransuz tili frazeologiyasida aynan *famille* leksemali iboralar orqali yorqin aks etadi.

### “Butun oila”ga qaratilgan iboralar:

- |                           |                      |
|---------------------------|----------------------|
| <i>biens de famille</i>   | - oilaviy mulk;      |
| <i>C'est de famille</i>   | - ota-me'ros an'ana; |
| <i>conseil de famille</i> | - oilaviy maslahat;  |
| <i>des familles</i>       | - odatiy udumlar;    |

---

<sup>1</sup> Ташмухамедова Д., Умаров Б. Ота - оила устуни. Илмий-услубий кўлланма. – Тошкент: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, - 21 Б. / - 36 6.

<i>en famille</i>	- oila davrasida;
<i>esprit de famille</i>	- oilaviy inoqlik;
<i>famille de robe</i>	- badavlat oila;
<i>famille inadaptée</i>	- muammoli oila;
<i>papiers de famille</i>	- oilaga tegishli hujjatlar;
<i>les médecins de famille</i>	- oila shifokorlari;
<i>situation de famille</i>	- oilaviy ahvol;
<i>une famille de jardiniers</i>	- oilaviy sulola;
<i>grande famille</i>	- ahil oila;
<i>famille adoptive</i>	- asrab olingan oila;
<i>laver son linge sale en famille</i>	- oiladagi gaplarni ko'chaga olib chiqmaslik;
<i>famille traditionnelle</i>	- tukis oila (bunda oila ota, ona va farzandlardan iboratligi inobatga olinadi);
<i>famille tuyau de poêle</i>	- axloqsiz oila yoki gomoseksual oila;

Yuqorida berib o'tilgan iboralar *oila* semasini qamrab olgan holda oilaning jamiyatdagi o'rniiga nisbatan tavsiflangan. Masalan, oilaning moddiy, ma'naviy, psixologik, yosh va boshqa tarkibiy qismlarining o'ziga xos xususiyatlari mohiyat jihatidan iboralarda ham o'z aksini topadi. Shunday jihatlardan oilaga tegishli an'anaviy udumlar, oilaning ahil va inoqligi, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra badavlat yoki aksincha o'rta hol oila ekanligi, oiladagi kelishmovchiliklar yoki o'zaro tushunmovchiliklar sabab yuzaga keladigan oila notinchligi, hozirgi vaqtida g'arb mamlakatlarida ancha ommalashayotgan va ko'pchilik yoshlarni o'z girdobiga tortayotgan jirkanch kasallik, ya'ni gomoseksualizm ("besoqolbozlik") tushunchalari ham fransuz tilidagi *famille* leksemasi ishtirokida yasalgan iboralar mazmunini tashkil etadi.

#### **"Oiladan tashqari oila / guruh" ma'nosidagi iboralar:**

<i>famille</i>	- <i>yaqin qarindosh</i> ; ushbu iborani fransuz xalqi
<i>proche</i>	madaniyatida <i>qarindoshlar</i> oila a'zosi sanalmasligi uchun <i>oiladan tashqari</i> semada qabul qilish mumkin.
<i>les deux cents familles</i>	- Fransiya bankining maxsus yirik 200 nafar aksiyadorlari; ushbu ibora orqali barchaga taniqli bo'lgan mashhur badavlat aksiyadorlar oilasi, ya'ni guruhi tasvirlangan.

Fransuz tilida *famille* so'zi orqali ifodalangan iboralar mazmuni oilaning tarkibiy tuzilishidan tashqari holatlarni ham aks ettirishi mumkin. Xususan, yuqoridagi "*oiladan tashqari oila*" semasiga qaratilgan iboralarda oila tarkibiga mansub bo'lмаган *yaqin qarindosh* hamda *yirik sarmoyadorlar guruhi* ma'nosini ifodalashda ham *famille* komponentidan foydalanilgan. Bu o'rinda oiladan tashqaridagi boshqa oila vakili yoki jamiyatdagi ma'lum bir toifadagi kishilar jamosi ham *oila* tarzida talqin qilingan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan semantik ma'nolar bo'yicha olib borilgan mazmuniy tahlilga ko'ra fransuzcha *famille* tarkibli iboralar semantikasi asosan yuqorida ko'rib o'tilganidek besh xil (*ota - ona - farzand - butun oila - oiladan tashqari oila*) semantik doirani qamrab oladi. Ushbu semantik qamrovlarga mansub iboralar, ya'ni "*famille*" - "*oila*" komponentli iboralar fransuz frazeologiyasidagi o'z miqdoriy ko'rsatkichlariga ko'ra quyidagicha natijalarni aks ettiradi:


- ***ota mikrokonsepti*** – 12 foiz,
- ***ona mikrokonsepti*** – 8 foiz,
- ***farzand mikrokonsepti*** – 17 foiz,
- ***butun oila mikrokonsepti*** – 60 foiz,
- ***oiladan tashqari oila mikrokonsepti*** – 3 foiz.

Ularning bunday natijalari gradatsiya asosida kuzatilganda fransuzcha *famille* tarkibli iboralar *oila* ma'nosiga, ya'ni *butun oila* mazmuniga tegishli iboralar paradigmasi keltirilgan boshqa ma'nolarga nisbatan kengqamrovli ekanligini ko'rish mumkin. Frazeologik birliklarning o'ziga xos semantikasini, ularning nutqda qo'llanishi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning paydo bo'lish xarakteri, hamda nutqda qo'llanish darajasi va ma'no ottenkalarini tahlil qilish tilimizning ifoda imkoniyatlari va uning boyligini to'laroq tasavvur qilish imkonini beradi<sup>1</sup>.

## X U L O S A

Olib borilgan tahlil *ota* mikrokonsepti *ona* mikrokonseptiga nisbatan, *bola* mikrokonsepti esa *ota-ona* mikrokonseptiga nisbatan ancha sermahsulligidan dalolat beradi. *Oiladan tashqari oila / guruh* semasi esa *famille* leksemali iboralarda sanoqli ko'rsatkichlardan iboratdir. Ushbu mulohazalarni mikrokonseptlarning gradatsion xususiyatlariga ko'ra quyidagi tasvir orqali yaqqolroq izohlash mumkin.

**Fransuzcha *famille* leksemali iboralar semantikasining gradatsion tasviri:**



Yuqorida ko'rib chiqilgan *famille* so'zining lug'aviy ma'nolari hamda ushbu komponentli iboralar ifodalaydigan umumiyligi ma'no va

<sup>1</sup> Suvanova N., Dolieva L. Fransuzcha onomatopik fe'llar ishtirokidagi iboralarda inson ruhiyati tasviri. (DESCRIPTION OF HUMAN SPIRITUALITY IN THE PHRASEOLOGICAL UNITS WITH FRENCH ONOMATOPOEIC VERBS) // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 2 (31), 65-79 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215

tushunchalarini qiyosiy tarzda tahlil qilish natijasida mazkur so'z ifodalaydigan ma'no ottenkalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

<b>Fransuzcha <i>famille</i> so'zining lug'atlarda keltirilgan ma'nolari</b>	<b>Fransuzcha <i>famille</i> komponentli iboralarning frazeologik ma'nolari</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• bir tom ostida yashovchi odamlar to'plami;</li> <li>• qon-qardoshligi bir bo'lgan va bir joyda birlashgan ittifoqli guruh;</li> <li>• ota-onal va bolalardan tashkil topgan jamoa;</li> <li>• bir xil qondoshlikdagi kishilar guruhi;</li> <li>• ota-onal, farzandlar va xizmatkorlardan iborat oilaviy jamoa;</li> <li>• ma'lum bir er-xotinning farzandlari;</li> <li>• nikohdan o'tgan er-xotinlar yoki asrab olingan farzandlar;</li> <li>• avloddan-avlodga o'tadigan oila vorisligi;</li> <li>• hayvon va o'simliklar dunyosini tasniflash;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ota - oila rahnamosi ;</li> <li>• ota - oila boquvchisi;</li> <li>• ota - oila boshlig'i;</li> <li>• ota - oilada tartib-intizom o'rnatuvchi;</li> <li>• ona - farzand dunyoga keltiruvchi;</li> <li>• ona - oila g'amxo'ri;</li> <li>• farzand – oilaning tarkibi;</li> <li>• boy / kambag'al oiladan chiqqan farzand;</li> <li>• oila qoidalariga amal qiluvchi farzand;</li> <li>• bir sulolaga tegishli an'anaviy udumlar;</li> <li>• oila ahilligi / inoqligi;</li> <li>• badavlat / o'rtal hol oila ;</li> <li>• oilaviy kelishmovchiliklar;</li> <li>• oila notinchligi;</li> <li>• yirik sarmoyadorlar guruhi;</li> <li>• gomoseksual oila;</li> <li>• oilaviy turish mumkin bo'lgan mehmonxona;</li> <li>• oila davrasida ko'rildigan kinofilm;</li> </ul>

Oila konsepti doirasida aniqlangan mazkur semantik ma'nolar *famille* so'zining lug'aviy ma'nolarida asosan, oila va uning tarkibiy a'zolariga ishora qilingan tavsiflarni o'z ichiga olsa, uning frazeologik ma'nolarida esa oila a'zolarining, ya'ni ota va onanining ijtimoiy jamiyatda oila oldida turgan burch va vazifalari, oila shakllari va oiladagi umummilliy qadriyatlar o'z aksini topgan.

Yuqorida ko'rib chiqilganidek, fransuz tilida mavjud frazeologik iboralar orasida "*oila*" konseptini o'zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasida *famille* leksemali iboralar o'ziga xos "model" sifatida ahamiyatga ega. Ularni yuqoridagi singari turli nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilish mumkin va bunday frazeologik birliklar ma'lum bir lingistik tadqiqot ob'ekti sifatida keng tadqiq etilishi natijasida bir tomonidan, ayrim lingistik konseptual muammolar yechimiga yo'l topilsa, ikkinchi tomonidan, fransuz

frazeologiyasining lingvomadaniy, struktur-semantik va grammatik, qolaversa, pragmatik va kognitiv xususiyatlari o'zlarining to'laqonli tavsiflariga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, fransuz tilidagi "oila" konseptini o'zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar tadqiqi ularning leksik-semantik sathdagi aniq o'rnnini izohlashga ma'lum bir darajada yordam bera oladi.



## G L O S S A R I Y :

<i>konsept</i>	U o'ziga xos tushuncha sifatida kishilarning ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi va inson tafakkuri bilan bog'liq bilimlar majmui bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir.
<i>lingvokognitiv xususiyatlar</i>	Til va tafakkurning bog'liqligi natijasida sodir bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar.
<i>maxsus model</i>	Biron bir hodisaga mos keluvchi shakliy (formal) namuna.
<i>patronimlar</i>	Shaxs nomlari, ya'ni antroponimlarning bir ko'rinishi.
<i>kognitiv tilshunoslik</i>	Dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan.
<i>sotsiolingvistik birliklar</i>	Sotsiologiya va tilshunoslik sohalarining tutash nuqtasida paydo bo'lgan, ya'ni ijtimoiy belgilarni aks ettiruvchi til birliklari.
<i>lisoniy ma'no kategoriysi</i>	Til birliklari ifodalaydigan ma'no, tushuncha.
<i>okkazional xususiyatlar</i>	G'ayri me'yoriy holatlar, masalan, grammatik qoidalarga xilof holatlar.
<i>mental hodisa</i>	Ong, tafakkur va aqliy qobiliyat bilan bog'liq hodisa.
<i>mikrokonseptual tushunchalar</i>	Umumiy konseptni tashkil etadigan ichki konseptlar, ya'ni konseptosti tushunchalar, ular inson tafakkuri bilan bog'liq ma'lum turdag'i bilimlar majmuuni tashkil etuvchi tor doiradagi tushunchalardir.
<i>tafakkur faoliyati</i>	Kishilar aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning inson ongida aks etish jarayoni. Tafakkur - atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli.
<i>etnolog</i>	Turli xalq, millat va elatlar tarixi, madaniyati va kelib chiqishi kabilar bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

<i>iboralar paradigmasi</i>	Ma'lum bir turdag'i o'xshash iboralar majmui.
<i>patriarxal oila</i>	Oilada ota- hukmron bo'lishi.
<i>gradatsion xususiyatlari</i>	Pastdan yuqoriga qarab o'sib boruvchi darajalanish xususiyati. Lotincha <i>gradatio</i> — <i>asta-sekin yuksalish</i> , <i>gradus</i> — <i>pog'ona, daraja</i> degan ma'noni anglatadi.
<i>avtoritar ma'no</i>	Yo'l boshchiga bo'ysinish va unga ergashish ma'nosi.
<i>semantik qamrov</i>	Ma'lum bir ma'no qo'llaniladigan semantik doira va uning komponentlari tarkibi.
<i>leksik-semantik sath</i>	Tilning 3ta sathi mavjud bo'lib, ular fonetik, leksik-semantik va sintaktik sathni o'z ichiga oladi. Leksik-semantik sath uning ikkinchi sathidir, ya'ni leksema, so'z birikmasi va frazeologik birliklarni qamrab olgan til sathi sanaladi.
<i>referensiallik</i>	Lotincha <i>referens</i> - xabar beruvchi so'zidan olingan bo'lib, til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti bo'lib hisoblanadi.



### SAVOLLAR :

1. Konsept tushunchasini shaxsiy fikringiz asosida qanday izohlaysiz?
2. Tilshunoslarning konsept borasidagi fikrlarini umumlashtirgan holda qanday tahliliy munosabat bildira olasiz?
3. Fransuz tili frazeologiyasida *oila* konseptini aks ettiruvchi asosiy model qaysi leksik birliklarni o'z ichiga oladi?
4. Fransuz tilidagi *famille* so'zining lug'aviy ma'nolari qanday tushuchalardan iborat?
5. Fransuz tilidagi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarning frazeologik ma'nolari qanday tushuchalarni o'z ichiga oladi?
6. Fransuz tilidagi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralar *oila* tushunchasidan tashqari yana qanday ma'nolarni ifodalaydi?
7. Fransuz frazeologiyasida *famille* so'zidan tashqari yana qanday komponentlar ishtirokidagi iboralarda *oila* tushunchasi aks etadi?
8. Fransuz tilidagi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarning umumiyligi struktur xususiyatlari nimalardan iborat?
9. *Oila* konseptini tashkil etuvchi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarni kognitiv nuqtayi nazardan qanday mikrokonseptlarga ajratish mumkin?
10. I.A.Sternin ta'rifiga ko'ra *oila* konseptiga xos mikrokonseptlarni qanday turkumlarga ajratish mumkin?

11. Fransuzcha *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarda ota, ona va farzandning o'ziga xos qaysi xususiyatlari namoyon bo'ladi?
12. *Oila* konseptini tashkil etuvchi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarga xos mikrokonseptlarning qaysi biri dominantlik qila oladi va nima uchun?
13. "Oila" konseptiga doir tushunchalarni tahlil qilishda qanday omillarga e'tibor qilish lozim?
14. Fransuz tili lug'atlaridagi *famille* so'ziga berilgan turfa lug'aviy xususiyatlarni sanab o'ting.
15. Fransuzcha *famille* so'zining birikmalar tarkibidagi qanday grammatik xususiyatlarini bilasiz?
16. Aynan *oila* tushunchasi asosida hosil bo'lgan *famille* komponentli qanday fransuzcha iboralarni bilasiz va ularning o'zbek tilidagi muqobilari bormi?
17. "Oila" konsepti doirasidagi frazeologik birliklarning qanday struktur xususiyatlari mavjud?
18. Okkazional xususiyatlarning mavjudligi qay hollarda aks etadi?
19. "Oila" tushunchasi asosidagi frazeologik iboralarning milliy-madaniy mohiyatida o'zbek va fransuz xalqlari o'rtaida qanday tafovvtlar mavjud?
20. *Ota* va *ona* mikrokonseptlari o'rtaida qanday farqlar mavjud?
21. *Ota-ona* va *farzand* mikrokonseptlari o'rtaida qanday farqlar mavjud?
22. *Butun oila* va *oiladan tashqari oila* mikrokonseptlari o'rtaida qanday farqlar mavjud?
23. "Oila" konsepti doirasida aniqlangan mikrokonseptlar o'rtaсидаги darajaviy xususiyatlar nimalardan iborat?
24. *Famille* leksemasining "Oila" konsepti doirasida aniqlangan lug'aviy va frazeologik aspektlariga umumiyl tavsif bering.



**AMALIY MASHG'ULOT  
TOPSHIRIQLARI**

**Topshiriq-1.** Ma'ruza matnini o'rganib, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

№	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To'g'ri	Xato	Ma'lum emas
1.	<i>Kognitiv tilshunoslik</i> dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan bo'lib, unda eng assosiy o'rganiladigan muammo – bu konseptdir.			
2.	Sh. Safarov va N. Arutyunova konseptni mental hodisa deb hisoblasa, Yu. Shvedova va D. S. Lixachevlar uni ijtimoiy yoki sub'ektiv hodisalarga bog'liq tushuncha, deb hisoblaydi.			
3.	D. U. Ashurova <i>Konseptni ta'riflashda uning ifoda vositalari va asosiy negiziga e'tibor qaratgan holda yondashsa</i> , Yu. Shvedova esa esa ijtimoiy yoki sub'ektiv omillarga tayanadi.			
4.	Tilshunoslар orasida konseptni tavsiflash jarayonida o'zaro bir xillik va o'zaro o'xshashlik mavjud emas.			
5.	S. G. Vorkachev va D. U. Ashurovalarning konsept borasidagi fikrlari ancha bir-biriga yaqindir.			
6.	Sh. Safarov bilan N. Arutyunova o'rtasida konseptni ta'riflashda o'zaro yakdilik mavjud.			
7.	<i>Konsept - so'z ifodalayotgan ma'nosи bilan emas, balki uning inson ongida hosil qilgan tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, lingvomadaniy hodisa sanaladi.</i>			
8.	Umuman olganda, <i>konsept</i> o'ziga xos tushuncha sifatida kishilarining madaniy dunyoqarash va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi bilimlar majmui bo'lib, u ongimizda kechuvchi bir necha jarayonlarning asosiy natijasidir.			
9.	<i>Oila</i> tushunchali iboralarni turli xalq va tillar o'rtasidagi milliy-madaniy jihatlarni talqin qilishdagi ma'no ottenkalariga boy frazeologik birliklar sifatida tavsiflash o'rinnlidir. Shu sababli fransuz tilidagi <i>famille</i> komponentli iboralar ko'plab tadqiqot ob'ektlari sifatida o'rganilgan va natijada aniq xulosalarga keltingan.			
10.	<i>Famille</i> leksemasining semantik mazmun-mohiyatini to'laqonli anglash uchun fransuz tili lug'atlariga murojaat qilinganda uning tor va keng ma'noda hamda konseptual ma'nolarda izohlanganligiga guvoh bo'lamiz.			
11.	<i>Famille</i> so'zining lug'aviy ma'no ottenkalarini			

	<i>pragmatik, sotsiolingvistik, psixolingvistik</i> kabi til birliklarini inobatga olgan holda yanada boyitish mumkin.		
12.	<i>Pension de famille; films de famille; en bon père de famille</i> kabi frazeologik iboralar <i>famille</i> komponentidan tashkil topganligi uchun ham ularning har biri o'zlarida " <i>oila</i> " tushunchasini, qadriyat va milliy aspeklarni ifodalay oladi.		
13.	<i>Fransuzcha esprit de famille, situation de famille, être de famille, biens de famille, conseil de famille, être de bonne famille</i> iboralar <i>nom + de + famille</i> struktur tuzilishiga ega.		
14.	<i>Fransuzcha code de la famille; planification de la famille</i> iboralarida okkazional xususiyatlarning mavjudligi aks etgan.		
15.	<i>Fransuzcha lug'atlarning aksariyatida famille so'zi "Ensemble formé par les parents, les enfants et les serviteurs d'une maisonnée"</i> ya'ni ota-ona, farzandlar va xizmatkorlardan iborat oilaviy jamoa tarzida tavsiflangan.		
16.	I.A.Sternin ta'rifiga asoslangan holda oila konseptiga xos " <i>ota</i> "- " <i>ona</i> "- " <i>farzand</i> " - " <i>butun oila</i> " tayanch qatlamlarni tashkil etsa, " <i>oiladan tashqari oila</i> " ikkilamchi qatlamni tashkil etadi.		
17.	<i>Oila</i> konseptidagi <i>ona</i> obraziga tegishli iboralar tahlili asosan onaning farzandni dunyoga keltirish va unga g'amxo'rlik qilish, oilaning tartib-intizomchisi vazifalariga ko'proq ishora qiladi. Bu esa onaning farzandlariga nisbatan mehribonlik siyosini aks ettiradi.		
18.	" <i>Famille</i> " - " <i>oila</i> " komponentli iboralar fransuz frazeologiyasidagi o'z miqdoriy ko'rsatkichlariga ko'ra ota va ona mikrokonsepti birgalikda farzand mikrokonseptidan ustunlik qiladi. Butun oila mikrokonsepti esa <i>ota</i> , <i>ona</i> va <i>farzand</i> mikrokonseptidan ustundir.		
19.	<i>Oila</i> konsepti doirasida oilaga xos qadriyatlар til va madaniyat o'rtasidagi aloqaga bog'liq bo'lib, bunday konseptlarni tahlil qilishda til-inson-madaniyat-tafakkur to'rtligiga amal qilish lozimdir.		
20.	<i>Famille</i> so'zi tor ma'noda ota-ona va bolalardan tashkil topgan jamoa, tashvishsiz hayotdagi tinch oila davrasi va ma'lum bir er-xotinning farzandlari		

	ma'nosida ham keng qo'llaniladi.		
21.	<i>Famille</i> so'zi keng ma'noda nasl-nasab, nikohdan o'tgan er-xotinlar yoki asrab olingan farzandlar, oila a'zolari davrasи, avloddan-avlodga o'tadigan oila vorisligi, oilaviy milliy an'analar hamda bir xildagi referensial tushunchalar majmui aks etadi.		
22.	Sh.Safarov fikriga ko'ra ma'lum bir leksik birliklarni semantik jihatdan tadqiq qilish jarayonida faqat ularning lug'aviy izohlari bilan chegaralanish ularga xos ma'nolar doirasining torayishiga sabab bo'lishi mumkin.		
23.	Ma'lumki, M.Chomskiy ham tilni an'anaviy tarzda inson ongi ko'zgusidir, deb ta'riflaydi. Xususan, tildagi mavjud leksik birliklarning semantik ma'no ottenkalari ham lisoniy va aqliy faoliyat orqali aktuallashadi.		
24.	<i>Famille</i> so'zi ishtirokidagi frazeologik iboralarning grammatik jihatdan okkazional va struktur xususiyatlarning mavjudligi ularning aynan frazeologik ibora ekanligidan dalolat beradi.		
25.	Agar I.A.Sternin ta'rifiga ko'ra <i>oila</i> konseptiga xos mazkur mundarijani tayanch va ikkilamchi qatlamlarga ajratish mumkin bo'lsa, "ota"- "ona"- "farzand" - "butun oila" tayanch qatlamlarni tashkil etsa, "oiladan tashqari oila" ikkilamchi qatlamni tashkil etadi. Mazkur tayanch leksemalarning referensiallik xususiyatlariiga e'tibor qilinsa ham ular o'zlarida fransuz xalqiga xos milliylik ruhini aks ettira oladi, deydi Sh. Safarov.		
26.	Otaning oiladagi roli avtoritar ma'no ham kasb etadi. Zero, " <i>Ota matonati – farzandlar uchun jasorat sabog'i</i> " degan hikmat zamirida ham chuqur ma'no bor. Azaldan erkak kishi Vatan himoyachisi, oila qo'rg'oni, ayniqsa, o'g'illar uchun mardlik va jasorat namunasi bo'lib kelgan, deydi D.Tashmuxamedova va B.Umarovlar.		
27.	Keltirilgan iboralar <i>oila</i> semasini qamrab olgan holda oilaning moddiy, ma'naviy, psixologik, yosh va otiona va farzandning o'ziga xos xususiyatlari, oilaga tegishli an'anaviy udumlar, oilaning ahil va inoqligi, uzoq qarindoshchilik, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra badavlat yoki aksincha o'rta hol oila ekanligi, oila notinchligi ham fransuz tilidagi <i>famille</i> leksemasi		

	ishtirokida yasalgan iboralar mazmunini tashkil etadi.		
28.	Natijalar gradatsiya asosida kuzatilganda, fransuzcha <i>famille</i> tarkibli iboralar <i>butun oila</i> mazmuniga tegishli iboralar paradigmasi keltirilgan boshqa ma'nolarga nisbatan kengqamrovli ekanligini ko'rish mumkin.		

**Topshiriq-2.** Quyidagi *famille* komponentli fransuzcha so'z birikmalarini namunadagidek *erkin* yoki *turg'un* so'z birikmasi ekanligini aniqlang:

Nº	Fransuzcha misollar:	Erkin so'z birikmasi	Turg'un so'z birikmasi
1.	<i>tous les membres de la famille</i>	<i>les membres de la famille</i>	-
2.	<i>livret de famille</i>	-	<i>livret de famille</i>
3.	<i>fêter le jour de l'ân en famille</i>		
4.	<i>nom de famille</i>		
5.	<i>les responsabilités du père de famille</i>		
6.	<i>vivre en bon père de famille</i>		
7.	<i>pourvoir à l'entretien de la famille</i>		
8.	<i>querelle de famille</i>		
9.	<i>une famille aisée</i>		
10.	<i>allier deux familles</i>		
11.	<i>famille regnante</i>		
12.	<i>rejoindre sa famille</i>		
13.	<i>renier sa famille</i> <sup>1</sup>		

**Topshiriq-3.** Quyidagi fransuzcha maqollarni namunadagidek o'zbek tiliga talqin qiling va ulardagagi mikrokonseptual tushunchalarni aniqlang:

Nº	Fransuzcha maqollar:	O'zbekcha talqini:	Konseptual tushuncha:
1.	<i>"Il faut laver son linge sale en famille."</i>	<i>Uydagi gapni ko'chaga olib chiqmaslik kerak.</i>	<i>Oila siri</i>
2.	<i>"Les pires histoires sont des histoires de famille."</i>		
3.	<i>"La famille est le noyau de</i>		

<sup>1</sup> Dictionnaire français-ouzbeque. –Tashkent: IFEAC, 2008. – 587 p. www.ziyouz.com kutubxonasi

	<i>la civilisation."</i>		
4.	<i>"En famille, tout se sait mais rien ne se dit."</i>		
5.	<i>"Il y a toujours une cuillère malpropre dans chaque famille."</i>		
6.	<i>"Si le centre est stable, alors la famille est soudée."</i>		
7.	<i>"Pour être admirable, la famille devrait être désintéressée."<sup>1</sup></i>		

**Topshiriq-4.** Quyidagi **famille** so'zi ishtirokidagi so'z birikmalarini gaplarda qo'llang:

- |   |                                     |
|---|-------------------------------------|
| 1. avoir un air de famille                                    | 11. la famille antique              |
| 2. de bonne famille (qui appartient à une famille bourgeoise) | 12. la famille de qqn.              |
| 3. être en famille  | 13. la famille moderne              |
| 4. famille de langues   | 14. la vie de famille               |
| 5. famille de mots  | 15. nom de famille                  |
| 6. famille patriarcale  | 16. père, mère de famille           |
| 7. famille recomposée   | 17. réunion de famille              |
| 8. famille royale   | 18. une famille de cinq enfants     |
| 9. fils de famille - fils à papa                              | 19. une famille de musiciens        |
| 10. fonder une famille  | 20. une petite sieste des familles. |

**Topshiriq-5.** Quyidagi **famille** so'zi ishtirokidagi FBlarni tegishli mikrokonseptlarga ajrating:

Nº	<b>famille</b> so'zi I shtirokidagi FBlar:	Mikrokonseptlar:
1.	<i>en famille - oila davrasida;</i>	<i>tukis oila</i>
2.	<i>attendre famille - farzand kutmoq;</i>	
3.	<i>biens de famille - oilaviy multk;</i>	
4.	<i>chef de famille - oila boshlig'i;</i>	
5.	<i>conseil de famille - oilaviy maslahat;</i>	
6.	<i>esprit de famille - oilaviy inoqlik;</i>	

<sup>1</sup> <http://evene.lefigaro.fr/citations/mot.php?mot=famille>

7.	<i>famille de robe - badavlat oila;</i>	
8.	<i>famille inadaptée - muammoli oila;</i>	
9.	<i>famille proche - yaqin qarindosh;</i>	
10.	<i>fiche de famille-oila ma'lumotlari yozilgan hujjat;</i>	
11.	<i>fille de famille - erka qiz;</i>	
12.	<i>grande famille - ahil oila;</i>	
13.	<i>la mère patrie - ona Vatan.</i>	
14.	<i>le fils de la maison - xo'jayinning o'g'li;</i>	
15.	<i>les médecins de famille -oila shifokorlari;</i>	
16.	<i>mère adoptive - o'gay ona;</i>	
17.	<i>nom de famille - familiya;</i>	
18.	<i>papiers de famille - oilaga tegishli hujjatlar;</i>	
19.	<i>père adoptif - o'gay ota;</i>	
20.	<i>situation de famille - oilaviy ahvol ;</i>	
21.	<i>soutien de famille - oila suyanchi;</i>	
22.	<i>un fils à papa- ota o'g'il;</i>	
23.	<i>une famille de jardiniers - oilaviy sulola;</i>	
24.	<i>vivre en bon père de famille - ahil oila bo'lib yashamoq;</i>	

**Topshiriq-6.** Quyidagi “Butun oila” mikrokonseptiga qaratilgan FBlarni struktur xususiyatlarini izohlab, qisqacha tarzda struktur va grammatik jihatdan mulohaza yozing :

1. <i>biens de famille</i>	- oilaviy mulk;	<b>N+de+F</b>
2. <i>C'est de famille</i>	- ota-me'ros an'ana;	...
3. <i>conseil de famille</i>	- oilaviy maslahat;	
4. <i>des familles</i>	- odatiy udumlar;	
5. <i>en famille</i>	- oila davrasida;	
6. <i>esprit de famille</i>	- oilaviy inoqlik;	
7. <i>famille de robe</i>	- badavlat oila;	
8. <i>famille inadaptée</i>	- muammoli oila;	
9. <i>papiers de famille</i>	- oilaga tegishli hujjatlar;	
10. <i>les médecins de famille</i>	- oila shifokorlari;	
11. <i>situation de famille</i>	- oilaviy ahvol;	
12. <i>une famille de jardiniers</i>	- oilaviy sulola;	
13. <i>grande famille</i>	- ahil oila;	
14. <i>famille adoptive</i>	- asrab olingan oila;	
15. <i>laver son linge sale en famille</i>	- oiladagi gaplarni ko'chaga olib chiqmaslik;	
16. <i>famille traditionnelle</i>	- tukis oila (bunda oila ota, ona	

	va farzandlardan iboratligi inobatga olinadi);	
17.famille tuyau de poêle	- axloqsiz oila yoki gomoseksual oila;	

**Topshiriq-7.** Quyidagi gaplarni o'zbekchaga o'giring va tarkibidagi famille komponentiga tegishli birikma yoki iborani toping:

Nº	Fransuzcha misollar:	O'zbekcha tarjimasi:	Erkin yoki turg'un so'z birikmasi shakli
1.	Tu fais partie de ma famille.	Sen mening oilam a'zosisan.	faire partie de la famille ;
2.	Elle s'est sacrifiée pour sa famille.		
3.	Sa famille lui suffit, il ne voit personne.		
4.	Sa famille exerce une très forte pression sûr lui.		
5.	Il subvient aux besoins de toute la famille.		
6.	Le gout de la musique qu'on se legue de père en fils dans la famille.		

**Topshiriq-8.** Quyidagi père so'zi ishtirokidagi iboralarni to'liq o'r ganib chiqing va ularni kompleks tahlil qiling :

### 1. Père noël

Sens : Personnage légendaire qui apporte des cadeaux aux enfants pour fêter Noël.

### 2. Père nourricier

Sens : Père adoptif. Terme ancien qui désigne le mari de la nourrice, le père d'adoption. Chef de famille qui éduque, qui élève un ou plusieurs enfants sans être pour autant leur père géniteur. S'oppose à père biologique.

### 3. Faire le coup du père François

Sens : Prendre quelqu'un en traître.

Origine : Cette expression remonte au XIXe siècle. A l'origine, il s'agissait de deux personnes qui agressaient quelqu'un dans la rue dans le but de lui vider les poches. Le premier agresseur détournait l'attention de la victime pendant que son complice l'étranglait.

### 4. Au nom du Père et du Fils et du Saint-Esprit

Sens : Référence chrétienne à la Trinité.

**Origine :** Cette expression, issue du monde religieux, fait référence à la Trinité, selon laquelle il y aurait le Père (Dieu), le Fils (Jésus) et le Saint-Esprit. Une doctrine qui a été révélée par Saint-Matthieu, dans son Évangile.

## **5. *Père la pudeur***

**Sens :** *Homme strict, inflexible, à la morale rigide.*

**Origine :** Expression qui s'emploie pour parler d'un homme qui se positionne comme juge ou gardien de l'ordre moral et qui se permet de donner des conseils ou des jugements de valeur sur notre façon d'agir ou de nous exprimer. Elle a une forte connotation négative.

## **6. *Coup du père François***

**Sens :** *Prendre quelqu'un en traître, effectuer une action déloyale.*

**Origine :** Lors de la seconde moitié du XIXe siècle, le coup du père François désignait une technique de vol à la tire que les voleurs pratiquaient à deux. L'un des escrocs engageait la conversation avec un promeneur isolé pendant que son complice attendait un moment propice afin d'étrangler la victime par-derrière, avec un cordage et en la portant sur son dos, et ce afin que ses pieds ne touchent pas le sol. Le premier agresseur en profitait alors pour détrousser cette victime.

## **7. *Croire au Père Noël***

**Sens :** *Être crédule, se faire des idées.*

**Origine :** L'imagerie contemporaine du Père Noël est apparue au XIXe siècle, même si Saint Nicolas, dont il a été inspiré existait déjà. Croire au Père Noël est normal pour les enfants, mais passé un certain âge, cela démontre un esprit naïf.

## **8. *Le Père céleste***

**Sens :** *Dieu le Père, selon la doctrine chrétienne.*

**Origine :** Selon la doctrine chrétienne, l'expression désigne Dieu le Père, selon le concept de la paternité de Dieu à travers le dogme de la Trinité (Père, Fils, Saint-Esprit). En religion, céleste (du latin caelestis, dérivé de caelum, ciel) qualifie ce qui appartient au ciel, par opposition à terrestre, ici-bas. Cette paternité de Dieu s'accompagne des enseignements prodigués par la religion chrétienne.

## **9. *Le petit père des peuples***

**Sens :** *Le tsar russe.*

**Origine :** Le vocable *le petit père des peuples* est une expression française, désignant le tsar associé à l'Empire russe, précisément tsar-petit-père, expression dérivée de petit-père, désignant littéralement curé (popes) en russe. A noter que pendant la période stalinienne, Staline a été surnommé *Père des peuples* (et non *petit père des peuples*) en référence à la propagande communiste.

## **10. *ad augusta per angusta***

**Sens :** *La gloire ne s'acquiert pas avec facilité.*

**Origine :** Expression latine venant du sens d' "augusta". En effet, ce mot tire son origine de l'empereur romain Auguste, célèbre pour la paix qu'il a restaurée à Rome et son règne glorieux. Pourtant, pour accéder au pouvoir, il est passé par des

chemins tortueux : participation au complot contre Jules César, élimination de ses rivaux politiques, profit de la guerre civile<sup>1</sup>.

**Topshiriq-9.** *Quyidagi мère so'zi ishtirokidagi iboralarni to'liq o'rghanib chiqing va ularni kompleks tahlil qiling :*

**1. Mère biologique.**

Sens : Mère naturelle.

**2. Une mère affectueuse.**

Sens : Une mère tendre, câline.

**3. Mère poule**

Sens : Mère protectrice, mère très attentionnée. Variante de l'expression : *papa poule*.

Origine : Cette expression a vu le jour au cours du XIXe siècle et s'appuie sur l'image de la poule qui veille jalousement sur ses petits et n'hésite pas à attaquer si on les approche.

**4. Est-ce que je te demande si ta grand-mère fait du vélo ?**

Sens : Occupe-toi de tes affaires !

Origine : Cette expression viendrait des années 1920. C'est le titre d'une chanson populaire dont les paroles sont : "Est-ce que je te demande si ta grand-mère fait du vélo ? Si ta petite soeur est grande ? Si ton petit frère a un stylo ? "

**5. Remède de grand-mère**

Sens : Antidote traditionnel, remède transmis de génération en génération.

Origine : Cette expression est apparue au cours du XXe siècle pour désigner des remèdes se transmettant de génération en génération, et donc en général naturels.

**6. Déesse mère**

Sens : Mère universelle dans différents cultes.

Origine : Cette expression tirerait son origine de croyances datant de l'époque néolithique de la Préhistoire. Un culte y était voué à une déesse qui était considérée comme la mère de tous les hommes et de la nature.

**7. Langue mère**

Sens : Langue originelle. Langue qui aurait donné naissance à toutes les langues qui existent aujourd'hui.

Origine : La langue-mère, aussi appelée langue originelle, serait le point de départ de toutes les langues parlées actuellement sur Terre. Elle serait vieille d'au moins 50 000 ans et serait née sur le continent africain.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> <https://www.linternaute.fr/dictionnaire/fr/definition/pere/#expression>

<sup>2</sup> <https://www.linternaute.fr/dictionnaire/fr/definition/mere/#expression>



## MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI :

1. Fransuz frazeologiyasida OTA konseptini aks ettiruvchi *père* komponentli frazeologik iboralarni toping va ularni tahlil qiling.
2. Fransuz frazeologiyasida ONA konseptini aks ettiruvchi *mère* komponentli frazeologik iboralarni toping va ularni tahlil qiling.
3. Fransuz tiliga xos OILA konseptini boshqa til bilan qiyosiy tarzda o'rganish uchun fransuz va o'zbek tillarida tegishli misollar ro'yxatini tuzing.
4. Qiyosiy tahlil asosida ilmiy maqola yozing.



## FRANSUZ FRAZEOLOGIYASIDA REDUPLIKATSIYA HODISASINING IFODALANISH USULLARI

**Darsning maqsadi:** Talabalarda frazeologik birliklarga xos "reduplikatsiya" hodisasi va uning turli xil ko'rinishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

### Reja :

1. "Reduplikatsiya" hodisasi va uning o'ziga xos turlari.
2. Fransuz frazeologiyasida takroriy elementlarning leksik xususiyatlari.
3. FBlar tarkibidagi predoglarning reduplikativ shakllari.

**Tayanch iboralar:** reduplikatsiya, takroriy elementlar, prosonomaziya, poliptota, omeoptota, antanaklaza, epanadiploza, frazeologik birlik, maqollar, simmetrik reduplikatsiya.

### 1. "Reduplikatsiya" hodisasi va uning o'ziga xos turlari

Turli tizimdagi barcha tillarga xos hodisa sifatida keng tarzda tadqiq etilgan "takroriy so'z" yoki "takroriy shakl" tushunchalari tilshunoslikda "reduplikatsiya" deb nomlanib, u lotincha *reduplicatio* - *ikkilanish*, *qo'shaloqlanish* ma'nosini anglatgan holda so'zdagi dastlabki bo'g'inni yoki o'zakni, butun so'zni takror qo'llash bilan tilda takroriy so'z yoki grammatik shakl hosil qilish usulidan iborat fonomorfologik hodisa bo'lib hisoblanadi<sup>1</sup>. Mazkur til hodisasining turli xil shakllari mavjud bo'lib, ular til birliklarining, xususan, fonema, morfema va so'z kabilarning so'z birikmasi, gap, abzats va matn tarkibida takror tarzda qo'llanilishi orqali namoyon bo'ladi hamda u takrorlanish, davomiylik va kuchaytirish ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Bu xususda O.S. Axmanova shunday ta'rif beradi: "ПОВТОР (удвоение, редупликация, повторение) ..., (реприза) фигура речи, состоящая в повторении звуков, слов и выражений в известной последовательности"<sup>2</sup> (*Takrorlanish (ikki baravar ko'paytirish, takrorlash) ..., (repriza) tovushlar, so'zlar va iboralarni ma'lum ketma-ketlikda takrorlashdan iborat nutq shaklidir*).

Ushbu til hodisasi aynan frazeologik birliklar misolida tadqiq etilsa, ularning frazeologik ibora yasash jarayonida eng sermahsul vosita ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Binobarin, frazeologik birliklarda takroriy elementlarning mavjudligi ularga xos lingvomadaniy, lingvodidaktik, shuningdek, leksik-semantik va stilistik xususiyatlarni

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. -Б. 128. / [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.

<sup>2</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: СЭ, 1969. -С. 407 / [https://classes.ru/Akhmanova/source\\_51.htm](https://classes.ru/Akhmanova/source_51.htm)

tadqiq etishga yordam beruvchi asosiy fenomenlardan biri sanaladi<sup>1</sup>. Shunga ko'ra N.M.Shteynberg, o'zining "Редупликация в современном французском языке" nomli monografiyasida mazkur hodisaning fransuz tilidagi umumiyl shakllari xususida kengroq ma'lumot berib o'tgan<sup>2</sup>. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar frazeologiyada takroriy elementlarni modellashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratgan<sup>3</sup>.

Tilda lingvistik birliklarning ma'lum bir doirada takroriy tarzda qo'llanilishining o'ziga xos bir necha shakllari mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan o'zlarining xilma-xil fonetik, leksik, grammatik va struktur xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra ularni turli xil shakllariga qarab turlicha turkumlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ayrim fransuz tilshunoslarining qarashlari nuqtayi nazaridan reduplikatsiya o'ziga xos quyidagi turlari bilan o'zaro farqlanadi<sup>4</sup>:

<b>Reduplikatsiya shakllari:</b>	<b>Shaklning lingvistik mohiyati:</b>	<b>Misollar (FBlar):</b>
<b>Prosonomaziya</b>	Ma'lum bir gap yoki ibora tarkibida bitta so'zning uyushgan holda takror kelishi;	<i>-Aussitôt dit, aussitôt fait.</i> <i>(Aytilgan so'z - otilgan o'q.)</i>
<b>Poliptota</b>	Bir xil o'zakli so'zning yoki bitta fe'lning turli shakllarda qo'llanishi;	<i>Vous avez la serrure, nous avons la clef.</i> <i>(Ikki yorti bir butun.)</i>
<b>Omeoptota</b>	Ma'lum bir gap yoki ibora tarkibida morfo-sintaktik shakllarning grammatik parallelizm asosida takrorlanib kelishi;	<i>Qui aime Martin, aime son chien, qui aime le cavalier, aime l'écuyer.</i> <i>(Meni sevsang, itimni ham sevasan.)</i>
<b>Antanaklaza</b>	Takrorlanuvchi elementning turli xil ma'noda takror qo'llanishi;	<i>De grand seigneur, grande rivière et grand chemin, fuis, si tu peux d'être voisin-yomon otliq bo'lishdan uzoqroq yur.</i>
<b>Epanadiploza</b>	Ma'lum bir so'zning gap yoki she'riy satrlar boshida hamda oxirida takror kelishi;	<i>L'abîme appelle l'abîme. – Yo'qchilik yo'qchilik chaqiradi. L'âne frotte l'âne – Gadoning dushmani gado bo'ladi.</i>

<sup>1</sup> Панков Ф. И., Овтина Е.А. Языковая картина мира и механизм редупликации: фрагмент лингводидактической модели русской грамматики. / Pedagogical Journal. 2018, Vol. 8. Is. 1A. – С. 140.

<sup>2</sup> Н.М.Штейнберг. Редупликация в современном французском языке. -Ленинград : Изд. Ленингр. ун-та, 1969. – С. 74 .

<sup>3</sup> Молчкова Л.В. Модели повтора во фразеологии // Актуальные вопросы современной науки (Текст научной статьи по специальности «Языкоизнание и литературоведение» ), №28. – Новосибирск, 2013. –С. 194-202. eLIBRARY ID: [20273065](#).

<sup>4</sup> Bacry P. Les Figures de style et autres procédés stylistiques. -Paris, Belin, coll. « Sujets », 1992, -P.74.

## 2. Fransuz frazeologiyasida takroriy elementlarning leksik xususiyatlari

Tildagi takrorlanish hodisasining bu kabi ko'rinishlari yuqoridagi kabi frazeologik birliklarga nisbatan kuzatilganda, ularga xos xilma-xil takroriy elementlar mavjudligi va ularda o'ziga xos shakliy xususiyatlar aks etishi ko'zga tashlanadi. Masalan, fransuzcha frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlarning takrorlanish holati mustaqil ma'noli so'zlar misolida juda keng tarqalgandir. Bunda asosan, ot, fe'l, sifat, son kabi so'z turkumlari shular jumlasidandir. Masalan, ot so'z turkumiga xos so'zlarning *epanadiploza*, fe'l so'z turkumiga xos so'zlarning esa *poliptota* shaklida takroriy tarzda kelishi fransuz frazeologiyasida juda keng tarqalgan holat sanaladi.

Shuningdek, frazeologik birliklar tarkibida sifat va ravish so'z turkumiga xos so'zlarning takroriy tarzda qo'llanilishi *prosonomaziya* shaklida ko'p uchraydi. Masalan:

*A bon salut, bon accueil. – Salomiga yarasha aligi.*

*A rude âne rude anier. – Ko'p gap eshakka yuk.*

*Bon champ sémé, bon blé rapporté – Nimani eksang shuni o'rasan.*

Bundan tashqari, fransuz tilidagi turli xil determinativlar, xususan, artikllar, egalik va ko'rsatish sifatlari hamda bog'lovchi va predloglar ham *prosonomaziya* shaklida takrorlanib kelishi mumkin. Masalan:

*avoir des si et des mais – har xil bahona topmoq;*

*avoir son bon et son mauvais côté - yaxshi va yomon tarafga ega bo'lmoq ;*

*ne connaître ni le blanc ni le noir - oq-qorani ajrata olmaslik ;*

*par bonds et par sauts – ko'z ochib yumguncha ;*

*sans pilote et sans boussole – o'zini idora qilaolmaslik ;*

*de bric et de broc (loc. adv.) – aralash - quralash...*

Tilshunoslikda bu kabi takrorlanish hodisasini tilning barcha birliklarida kuzatish mumkin. Xususan, fonema, morfema, leksema, qolaversa, so'z birikmasi va gaplarning ma'lum bir distributiv vaziyatlarda takroriy tarzda qo'llanilishi ham shular jumlasidandir.

Bir frazeologik birlik tarkibida fonemalarning ham takroran qo'llanish hodisasi mavjud bo'lib, ular tilshunoslikda *alliteratsiya* va *assonans* nomlari bilan ataladi. Undosh tovushlarning takrorlanishi *alliteratsiya* deb ataladi. Masalan:

*être belle á la chandelle – chiroyda tengsiz bo'lmoq.*

*[etr - bel - a -la - ſan -deI ]*

Unli tovushlarning takrorlanishi *assonans* deb ataladi. Masalan:

*Une faute avouée est à demi pardonnée. - Egilgan boshni qilich kesmas. [yn - fot - a -vu -e -e -də-mi -par -do -ne].*

Fransuz tilida ham boshqa tillardagi kabi ma'lum bir frazeologik birlikning tarkibida albatta, ifoda plani sifatida kamida ikkita leksema qatnashishi shart. Bunday birliklar gapdan yaxlitligicha ahglanishi mumkin

bo'lgan va frazeologik ma`no kasb etadigan sintaktik birlik emas, balki semantik birlik sifatida talqin qilinadi. Shu sababli frazeologik iboralarning birikmaga va gapga tenglik xususiyati haqida gapirilganda iboraning ichki grammatik tuzilishi inobatga olinadi, ya`ni ibora tarkibini grammatik jihatdan tahlil qilish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, ibora tarkibida qatnashgan so`zlar orasidagi grammatik bog`lanish o`z kuchini yo`qotmaydi, vaholanki, undagi so`zlar o`rtasidagi munosabat faqat ichki munosabat, ya`ni shu ibora doirasidagi munosabat hisoblanadi. Fransuz frazeologik birliklaridagi takroriy elementlarni morfologik jihatdan tahlil qilganimizda bunday frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilgan takroriy elementlarning nafaqat aynan bir xilligi, balki bir o`zakli reduplikativ elementlarning turli xil grammatik shakllari orqali ham ifodalanishi ko`zga tashlanadi. Ya`ni, ularning rod va sonda moslashish hodisasini kuzatishimiz mumkin. Masalan, ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida sifat so`z turkumiga oid bir so`z ikki marta qo'llanilganda ikki xil rodda moslashgan shakli ham uchraydi. Bu xususda otli sintagmalarga xos quyidagi moslashuv holatlari orqali hosil bo'lgan *reduplikatsiya* hodisasini kuzatish mumkin :

1. FBlarda otlar oldidan qo'llaniladigan determinativlar reduplikatsiyasi ularning rod va soniga ko`ra moslashishi asosida yuzaga keladi. Ularga son-sanoqsiz misollar keltirish mumkin. Masalan:

<b>Fransuzcha FB :</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>voilà une grande cage pour un petit oiseau</i>	- <i>yo'q bolaga tut beshik;</i>
<i>ne former qu'un coeur et qu'une âme ;</i>	- <i>ko`ngilni ko`ngilga qo'yib yashamoq;</i>
<i>casser les jambes et les bras à qn.</i>	- <i>birovni ipsiz bog'lab ketmoq.</i>

2. Aniqlovchi vazifasidagi sifatlar reduplikatsiyasi ham moslashish (*l'accord de l'adjectif épithète*) natijasida hosil bo'lishi mumkin. Bunda otni aniqlab kelayotgan sifat otning rod va son ko`rsatkichlarini o`zida namoyon qiladi. Masalan :

<b>Fransuzcha FB :</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>bon jour, bonne œuvre;</i>	- <i>kun xayrli boshlansa, ish unumli bo'ladi ;</i>
<i>les bons bras font les bonnes lames;</i>	- <i>chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin.</i>
<i>à petit trou, petite cheville ;</i>	- <i>uzukka ko'z qo'ygandek;</i>
<i>à nouvelles affaires, nouveaux conseils ;</i>	- <i>yangi ish - yangi tashvish.</i>
<i>la belle plume fait le bel oiseau ;</i>	- <i>kiyim kishiga zeb beradi;</i>
<i>De grand seigneur, grande rivière et grand chemin, fuis, si tu peux d'être voisin.</i>	- <i>Yomon otliq bo'lishdan uzoqroq yur.</i>

Bundan tashqari, FBlar tarkibidagi takroriy otlarda ham ikki xil rodda takrorlanish hollari ko'p uchraydi. Masalan:

<b>Fransuzcha FB :</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>garder à qn. un chien de sa chienne;</i>	<i>-birovga upka-gina qilmoq;</i>
<i>chaque crapaud trouve sa crapaude;</i>	<i>-dunyoda hamma narsa juft-juft qilib yaratilgan;</i>
<i>réponse du berger à la bergère.</i>	<i>-munozarada oxirgi so'zni gapirmoq.</i>

Shuningdek, rod kategoriyasida o'zgarib keluvchi takroriy elementlar qatorida olmosh so'z turkumiga xos so'zlar ham FBlar tarkibida sermahsul sanaladi. Masalan: **chacun avec sa chacune - hamma o'zi bilan o'zi.**

Frazeologik birliklar tarkibidagi takroriy elementlarga xos moslashuv hodisasi nafaqat rod kategoriyasi, balki, son kategoriyasi orqali ham ko'zga tashlanadi. Lekin ularning sonda o'zgaruvchanlik holati yuqorida tahlil qilingan rodda o'zgaruvchanlik holatiga nisbatan ancha kam uchraydi. Bunday holat asosan, FBlar tarkibidagi ayrim ot va sifatlarda ko'zga tashlanadi. Masalan:

<b>Fransuzcha FB :</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>avoir plus d'une corde, plusieurs cordes;</i>	<i>- har qanday usul bilan maqsadga erishmoq;</i>
<i>sottes gens, sotte besogne ;</i>	<i>- ahmoq kalladan ahmoqona fikr.</i>


Shuni ta'kidlash joizki, frazeologik birliklar tarkibidagi takroriy elementlar har qanday tilda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarni yuqoridagi singari qarama-qarshi tarzda qiyoslab o'rghanish tadqiqot obyektini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi<sup>1</sup>. Binobarin, FBlardagi takroriy elementlar orqali moslashuv hodisasini tahlil qilish orqali ushbu FBlar reduplikatsiya shakllaridan *prosonomaziya* shakliga mansubligini aniqlash mumkin. Shuningdek, *prosonomaziya* usuli asosan, *ot, sifat, olmosh* so'z turkumlarining moslashishi orqali namoyon bo'ladi.

### 3. FBlar tarkibidagi predloglarning reduplikativ shakllari

Fransuz frazeologiyasida takroriy elementlar tahliliga e'tibor qilar ekanmiz, ularda predloglarning o'rni alohida ko'zga tashlanadi. Shu boisdan takroriy elementlarning predloglar ishtirokidagi reduplikativ shakllarini o'rghanish maxsus izlanishni talab etadi, ya'ni FBlar tarkibidagi

<sup>1</sup> Grevisse M., Goosse A. Le Bon Usage. - Bruxelles : Duculot, 2007. – 529 p.

takror elementlarni bir-biri bilan bog'lovchi predloglar frazeologiyada simmetrik takrorni hosil qilishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunda simmetriya o'qi vazifasini ma'lum bir predlog va uning o'ng hamda chap qurshovlarini esa bir xil leksik-grammatik maqomdagagi takroriy so'zlar tashkil etadi. Masalan, hammaga mashhur fransuzcha *tête à tête* iborasini olaylik. Ushbu iborada "*absolut simmetrik reduplikatsiya*" o'z aksini topgan. Ushbu holatni bunday nomlashga asosiy sabab shundaki, simmetriya o'qini à predlogi tashkil etsa, uning o'ng hamda chap qurshovlarini esa bir xil leksik-grammatik maqomdagagi takroriy so'z, ya'ni *tête* so'zi egallaydi. Ushbu iboradagi *tête* so'zini bir xil lekik-grammatik maqomdagagi so'z deyishimizga sabab, reduplikatsiyaning *poliptota* va *antanaklaza* kabi turlarida takrorlanish hodisasi bir xil lekik-grammatik maqomdagagi so'zdan iborat bo'lmasligi ham mumkin, ya'ni, *poliptota* takror so'zning grammatik, *antanaklaza* esa leksik-semantik ma'nolari turlicha ekanligi bilan asoslanadi. Simmetriya o'qining ikki tomonidagi qurshovlari o'zaro almashtirilganda ham baribir bir xil ma'no ifodalanadi. Ushbu *tête à tête* iborasining "*absolut simmetrik reduplikatsiya*" namunasi ekanligini quyidagi chizma orqali shunday izohlash mumkin:



Bunday *simmetrik reduplikatsiya* fransuz frazeologiyasida à, en, de, contre kabi predloglar orqali amalga oshadi. Masalan, à predlogi ishtirokidagi FBlarga quyidagi iboralarni keltirish mumkin:

Fransuzcha FB :	O'zbekcha talqini:
bord à bord;	- qarama-qarshi;
botte à botte;	- yonma-yon;
but à but;	- teppa - teng;
bec à bec;	- yuz-yuzma;
mettre bout à bout;	- ichak-qorin bo'lmoq;
parler à qn. bouche à bouche;	- yuzma - yuz gaplashmoq;

Shuningdek, à predlogi fransuzcha maqollar tarkibida ham *simmetrik reduplikatsiya* hosil qilishda ancha sermahsul vosita sanaladi:

Fransuzcha maqollar :	O'zbekcha talqini:
<i>Corsaires à corsaires, l'un l'autre s'attaquant ne font pas leurs affaires.</i>	-Qarg'a qarg'aning ko'zini cho`qimaydi.

<i>Pas à pas, on va loin.</i>	-Qimirlagan qir oshar.
<i>Quitte à quitte et bon amis;</i>	-Hisobli do'st ayrilmash.

Bundan tashqari, fransuz tilidagi boshqa *contre, pour, en* kabi predloglar ham ayrim FBlar tarkibida *simmetrik reduplikatsiya* hosil qila oladi. Masalan:

Fransuzcha FBlar :	O'zbekcha talqini:
<i>Corsaires contre corsaires, n'est pas bon à faire doublure.</i>	-O'g'rinikidan o'g'irlash vaqtini bekorga sarflashdir.
<i>Fin contre fin n'est pas bon à faire doublure.</i>	-Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur.
<i>rendre bec pour bec ;</i>	-muloyimlik bilan javob qilmoq;
<i>de branche en branche;</i>	-shoxdan - shoxga ;
<i>aller de mieux en mieux;</i>	- hayol surmoq ;
<i>d'âge en âge;</i>	- avloddan avlodga;
<i>passer de bouche en bouche;</i>	- og'izdan - og'zga o'tmoq.

### XULOSA

Yuqoridagi tahlil natijasidan shuni ta'kidlash mumkinki, *simmetrik reduplikatsiya* hosil qilish jarayonida *à, contre, pour, en* kabi predloglar asosan, otlarni takrorlagan holda faqat ravishli FBlarni hosil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular maqollarda ham *simmetrik reduplikatsiya* hosil qilish vositalari bo'lib hisoblanadi.

Xulosa tariqasida shuni qayd etish lozimki, fransuz frazeologiyasida reduplikatsiya hodisasining yuqoridagi singari hali tadqiq etilmagan qirralari anchagina bo'lib, ularni alohida tadqiqot obyekti doirasida o'rghanish ayrim frazeologik muammolar yechimiga sabab bo'lishi mumkin.



<i>lingvomadaniy xususiyat</i>	- tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'siri asosidagi o'ziga xos xususiyatlari;
<i>lingvodidaktik xususiyat</i>	- <i>lingvodidaktika</i> lotincha "lingua" - <i>til</i> va yunoncha "didaktikos" - <i>o'rgatish</i> so'zlaridan olingan bo'lib, til o'qitishning umumiy nazariyasi bilan bog'liq xususiyatlar ;
<i>Alliteratsiya</i>	-misralar va undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi;
<i>assonans</i>	- (fransuzcha <i>assonance</i> — <i>ohangdoshlik</i> ) aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik;
<i>sintaktik birlik</i>	-sintaksisninig o'rghanish obyekti bo'lgan birlik, ya'ni so'z birikmasi va gap.
<i>sintagma</i>	-nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni

	tashkil etuvchi semantik-sintaktik birligi bo'lib, u bir yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi, hatto gapga teng bo'lishi mumkin.
--	--



### SAVOLLAR :

1. Tilshunoslikda “*reduplikatsiya*” hodisasining mohiyati nimadan iborat?
2. Takroriylik til birliklarining qaysi turlarida namoyon bo'ladi?
3. *Reduplikatsiya* hodisasining tilda qanday shakllari mavjud?
4. Reduplikatsiya turlarining o'zaro farq qiluvchi xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Frazeologiyada takroriy elementlarni modellashtirish masalasini qaysi tilshunos tadqiq qilgan?
6. Fransuz frazeologiyasida *reduplikatsiya* turlari so'z turkumlari kesimida qanday taqsimlangan?
7. Grammatik moslashuv hodisasi reduplikatsiyaning qaysi turida juda keng tarqalgan?
8. Fransuz frazeologiyasidagi predloglar reduplikatsiyasi asosan, qanday takroriylikni hosil qiladi?



### AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

**Topshiriq-1.** Ma'ruza matnini o'rGANIB, undan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi fikr va mulohazalarga TO'G'RI / XATO va MA'LUM EMAS javoblari orqali o'z munosabatingizni bildiring:

№	Ma'ruza matni bo'yicha keltirilgan fikr va mulohazalar:	To' g' ri	Xato	Ma' lum emas
1.	O.S.Axmanova ta'riflaganidek, takror so'zdagi dastlabki bo'g'inni yoki o'zakni, butun so'zni takror qo'llash bilan tilda takroriy so'z yoki grammatik shakl hosil qilish usulidan iborat fonomorfologik hodisa bo'lib hisoblanadi			
2.	“Редупликация в современном французском языке” nomli monografiyada mazkur hodisa fransuz tilidagi			

	umumiylar shakllar, frazeologik vositalar va misollar orqali kengroq berib o'tilgan.		
3.	Frazeologik birliklar tarkibida sifat va ravish so'z turkumiga xos so'zlarning takroriy tarzda qo'llanilishi <i>prosonomaziya</i> shaklida ko'p uchraydi.		
4.	Fransuz frazeologiyasida <i>fonetik reduplikatsiya</i> mavjud emas.		
5.	FBlar tilda sintaktik birlik emas, balki semantik birlik sifatida talqin qilinadi.		
6.	Predloglar fransuzcha ibora, maqollar va barcha sintaktik birliklar tarkibida <i>simmetrik reduplikatsiya</i> hosil qila oladi.		
7.	Bir xil o'zakli so'zning yoki bitta fe'lning turli shakllarda qo'llanilishi <i>poliptota</i> hisoblanadi.		
8.	Takrorlanuvchi elementning turli xil ma'noda takror qo'llanilishi <i>epanadiploza</i> bo'lib hisoblanadi.		

**Topshiriq-2.** FBlar tarkibidagi yordamchi so'zlar reduplikatsiyasiga quyidagi tartibda qo'shimcha misollar topib, qatorlarni davom ettiring:

1.	Predloglar reduplikatsiyasi:	<i>par bonds et par sauts -ko'z ochib yumguncha; ....</i>
2.	Bog'lovchilar reduplikatsiyasi:	<i>ne connaitre ni le blanc ni le noir - oq-qorani ajrata olmaslik; ....</i>
3.	Egalik sifatlari reduplikatsiyasi:	<i>avoir son bon et son mauvais côté - yaxshi va yomon tarafga ega bo'lmoq; ....</i>
4.	Artikllar reduplikatsiyasi:	<i>avoir des si et des mais - har xil bahona topmoq; ...</i>

**Topshiriq-3.** Quyidagi jadvalda berilgan FBlardagi takrorning morfologik vositalarini aniqlang :

1.	<i>vous avez la serrure, nous avons la clef;</i>	fe'l shakllari
2.	<i>voilà une grande cage pour un petit oiseau;</i>	
3.	<i>à nouvelles affaires, nouveaux conseils;</i>	
4.	<i>réponse du berger à la bergère;</i>	
5.	<i>si l'un dit blanc, l'autre dit noir;</i>	
6.	<i>chacun pour soi (et) Dieu pour tout ;</i>	
7.	<i>chagrin partagé, chagrin diminué;</i>	
8.	<i>qui a bon voisin a bon matin ;</i>	

**Topshiriq-4.** Fransuz frazeologiyasidagi “**absolyut simmetrik reduplikatsiya**” hodisasi bo'yicha fransuz tilida mavjud predloglar kesimida misollar toping:

Nº	<b>à</b>	<b>en</b>	<b>contre</b>	<b>pour</b>
1.	1. <i>bord à bord</i> - qarama-qarshi;	1. <i>de bouche en bouche</i> - og'izdan - og'izga;	1. corsaire contre corsaire - o'g'ri o'g'rige qarshi;	1. <i>bec pour</i> <i>bec - og'izma-</i> <i>og'iz;</i>
2.				
3.				
4.				
5.				

**Topshiriq-5.** Quyidagi reduplikativ iboralarning o'zbekcha muqobilini yoki talqinini toping:


Nº	<b>Fransuzcha reduplikativ iboralar:</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
1.	<i>parler ab hoc et ab hoc;</i>	
2.	<i>ni pour or ni pour argent;</i>	
3.	<i>des cents et des mille ;</i>	
4.	<i>avoir des si, des mais et des car ;</i>	
5.	<i>n'être ni bon ni a rôtir ni a bouillir;</i>	
6.	<i>de bonne vie fin, de bonne terre bon bépin;</i>	
7.	<i>Qui a bon voisin a bon matin;</i>	
8.	<i>C'est bonnet blanc et blanc bonnet ;</i>	
9.	<i>Ville qui capitule, ville rendue ;</i>	
10.	<i>Goute à goute on emplit la cave ;</i>	
11.	<i>Les amis de nos amis sont nos amis;</i>	
12.	<i>Tout passe, tout lasse , tout casse ;</i>	
13.	<i>Qui aime Martin, aime son chien, qui aime le cavalier, aime l'écuyer ;</i>	
14.	<i>Avant l'heure c'est pas l'heure, après l'heure c'est plus heure ;</i>	

**Topshiriq-6.** Quyidagi FBlarning har bir ma'nolarini gaplarda qo'llang:

Bir ma`noli FBlar	Ikki ma`noli FBlar	Uch ma`noli FBlar	To`rt ma`noli FBlar
<p><b>Goute à goute on emplit la cave</b> - toma-toma ko'l bo'lur.</p>	<p><b>à petit trou, petite cheville :</b> 1) bir narsa boshqa narsaga bog'liq bo'lishi kerak ; 2) ko'rpana qarab oyoq uzat.</p>	<p><b>casser les jambes et les bras à qn</b> (ou couper bras et jambes à qn) : 1) kimningdir talabini bajarmoq; 2) xavotirga solmoq; 3) yon bermoq.</p>	<p><b>jouer à cache-cache :</b> 1) sichqon-mushuk o'ynamoq ; 2) yo'ldan adashmaslik ; 3) nimanidir sir saqlamoq ; 4) bekinmachoq o'ynamoq.</p>

**Topshiriq-7.** Quyidagi FBlarni VEN diagrammasi asosida umumiy va xususiy xususiyatlari ko'ra tahlil qiling:

1.	<b>cap à cap</b> - yuzma - yuz;
2.	<b>de cœur à cœur</b> - chin ko`ngildan;
3.	<b>chose promise, chose due-</b> aytiglan so`z – otilgan o'q ;
4.	<b>le combat</b> cessa faute de <b>combatants</b> - urush tugagandan so`ng jangchilar ko`payadi;
5.	<b>chanter</b> toujours la même <b>chanson</b> -doimo bir xil bahona to`qimoq ;
6.	<b>tout esprit et tout cœur</b> - samimiy, qalban ;
7.	<b>telle et telle chose</b> -bir xil narsa ;
8.	il n'y a (ou il ne trouve) rien de <b>trop chaud ni de trop froid</b> pour lui - u qo`li yetgan narsani olishga qodir ;
9.	<b>faire (tout) par règle et par compas</b> - 1) hamma narsani aniq bajarish; 2) o`zini nazorat qilish ;
10.	<b>dans sa chair et dans son sang</b> - qonga - qon, jonga - jon.
11.	<b>chacun pour soi (et) Dieu pour tout</b> - bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun ;
12.	<b>chagrin partagé, chagrin diminué</b> - dardingni birovga aytsang yengil tortasan ;
13.	<b>écu changé, écru mangé</b> - ishlagan tishlaydi ; pulni tejamasang ko`p ketib qoladi.
14.	<b>comme ci, comme ça</b> - yaxshi ham emas, yomon ham emas, o`rtacha;



### MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI :

1. Tilshunoslar orasida kimlar *reduplikatsiya hodisasi* bo'yicha tadqiq ishlari olib borganligini aniqlang.
2. Fransuz frazeologiyasidagi takroriy elementlarni so'z turkumlari kesimida o'rganing va ularga misollar keltiring.
3. Frazeologik reduplikatsiyadagi *alliteratsiya* va *assonans* holatlarini mukammal o'rganing va ularga misollar keltiring.
4. Fransuz frazeologiyasidagi takroriy elementlarni o'zbek tili frazeologiyasidagi takroriy elementlar bilan taqqoslab o'rganing.
5. Fransuzcha badiiy matnlardan reduplikativ frazeologizmlarni toping va ularning qo'llanilish maqsadlarini o'rganing.



## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR :

1. *Frazeologiya* so'zining lingvistik izohi nimalardan iborat?
2. *Frazeologik birlik* (FB) atamasi tilshunoslikda kimning nomi bilan bog'liq?
3. *Frazeologik birlik* (FB) atamasining yana qanday muqobillari mavjud?
4. *Locution phraséologique* atamasining tilga kiritilishi kimning nomi bilan bog'liq?
5. Leksik–semantik sath borasida nimalarni bilasiz?
6. Leksikologiyaning qanday turlari mavjud?
7. *So'z birikmasi* bilan *frazeologik birlik* o'rtaсидаги farqni tushuntiring.
8. FBlar so'z va mustaqil so'z birikmalaridan qanday xususiyatlari orqali o'zaro farqlanadi?
9. *Frazeologik birliklar* bilan *nofrazeologik birliklar* o'rtaсидаги farqni anglab olishga xalaqit qiluvchi faktlar nimalardan iborat?
10. Moris Raning frazeologik lug'ati nimasi bilan ajralib turadi?
11. P.Giro qanday xususiyatlarni FBlar uchun xarakterli holat deb ta'riflaydi?
12. Frazeologiya leksik sistemaga kiradimi, (shu jumladan, leksik – semantik sistemaga) yoki u tilning alohida sistemasini tashkil etadimi, degan savolga shaxsiy fikringiz qanday?
13. Fransuz frazeologiyasi qaysi tilshunos nomi bilan bog'liq va uning bu boradagi qanday asarlarini bilasiz?
14. Boshqa tillar bo'yicha qaysi frazeologlarni bilasiz?
15. Frazeolgiyaning qanday bo'limlari mavjud?
16. Fransuzcha FBlarining struktur jihatdan tasnifiy turlari nimalardan iborat?
17. Fransuzcha FBlarining funksional jihatdan tasnifiy turlari nimalardan iborat?
18. Tilshunoslarning holatni ifodalovchi so'zlarga nisbatan munosabati qanday?
19. Holat kategoriyasining lisoniy mohiyati nimadan iborat?
20. Fransuz tilida holat kategoriyasining aktualizatsion vositalari nimalardan iborat?
21. Holatni ifodalovchi FBlarda analitik shakllarning ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
22. Harakat va holat o'rtaсидаги aloqadorlik FBlarda qanday amalga oshadi?
23. Holat kategoriyali FBlarga xos sintaktik aloqa turlari asosan, qanday leksik birliklar orqali aks etadi?
24. Fransuz tilidagi erkin so'z birikmalarda holat kategoriyasi qanday vositalar orqali namoyon bo'ladi?
25. FBlarni tashkil etuvchi komponentlarning leksik ma'no mustaqilligi ular ifodalayotgan yaxlit frazeologik ma'noga nisbatan qanday aks etadi?
26. Fransuz tilidagi *faire fe'l*ining grammatik ma'no ifodalash xususiyati qaysi o'rnlarda namoyon bo'ladi?

27. Aynan *faire+ot* shaklidagi frazeologizmlar o'zining qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
28. Fransuz tilidagi *faire+ot* strukturali FBlarning okkazional tarzda aks etishini qanday tushunasiz?
29. *Faire+ot* strukturali FBlarning qo'shimcha komponentli turlari qaysi leksik vositalardan iborat bo'lishi mumkin?
30. *Faire+ot* strukturali FBlarning qo'shimcha komponentli turlarida nima uchun tegishlilik ma'nosi ustun turadi?
31. Iboralar tarkibida sodir bo'ladigan *substitutsiya* hodisasining lingvistik mohiyati nimadan iborat?
32. Frazeologiyada *substitutsiya hodisasi* natijasida qaysi semantik hodisa yuz beradi?
33. *Antonimiya* hodisasining lingvistik mohiyati nimadan iborat?
34. *Antonimiya* nazariyasi tilda qaysi mashhur tilshunos nomi bilan bog'liq va nima sababdan?
35. *Antonimiya* hodisasining *antiteza* hodisasi bilan qanday bog'liqligi mavjud?
36. Fransuz tilida leksik antonimiyaning qanday ifoda usullarini bilasiz?
37. Leksik antonimiyaning barcha tillarga xos sermahsul usullaridan qaysi biri juda keng tarqalgan usul sanaladi va nima uchun?
38. Prefiksatsiya usuli asosan qaysi so'z turkumlari bilan qo'llaniladi?
39. Fransuz tilida zamon va miqdor tushunchali oppozitsion prefikslardan qaysilari juda keng tarzda ishlatiladi?
40. Ikki frazeologik birlik o'rtasidagi qarama-qarshi ma'no qanday *antonimiya* sanaladi?
41. Frazeologiyada *leksik antonimiya* hodisasi qanday amalga oshadi? Misollar bilan tushuntiring.
42. Frazeologiyada FBlar o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday *antonimiya* sanaladi?
43. Aynan simmetrik bo'lgan va simmetrik bo'lмаган antonim FBlarning lingvistik mohiyati nimadan iborat?
44. Komparativ FBlarning fransuz tilidagi antonimiya jarayonida qanday o'ziga xosliklari mavjud?
45. Semantik referentsiallikning qarama-qarshi shakllari frazeologiyada qanday amalga oshadi?
46. Frazeologik antonimiyaning ichki va tashqi jihatdan oppozitsiyasi qanday farqlanadi?
47. Rang va uning tasvirini psixologik va lisoniy nuqtayi nazardan o'rganish rangning inson bilan bog'liq qanday xususiyatiga asoslanadi?
48. Oq rangning inson ruhiyatini ifodalovchi frazeologik iboralar tarkibida qo'llanilganda psixologik xususiyatlar bilan muvofiqlik darajasi qanday?
49. Ruhiyat va ranglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari qanday stilistik vositalar doirasida amalga oshadi?

50. Oq rangni ifodalovchi *blanc* leksemasining frazeologiyadagi semantik ma'nolarini baholash nuqtayi nazardan qanday turkumlarga ajratish mumkin?
51. Oq rang - *blanc* leksemasi frazeologiyada hayot falsafasi bilan bog'liq qanday dixotomik tushunchalarni ifodalay oladi?
52. Oq rang turli xil xalqlar madaniyatida, xususan, fransuz va o'zbek xalqida qaysi ma'nolarni ifodalay oladi va ularni qanday umumlashtirib o'zaro farqlash mumkin?
53. Tilshunoslik sohasida frazeologiyadan tashqari yana qaysi doirada ranglar semantikasini qanday tadqiq etish mumkin?
54. Fransuzcha *blanc* komponentli iboralarning "Koloristik frazeologiya"da tutgan o'rnnini siz qanday baholaysiz?
55. O'zbekcha rang ma'nosidagi *oq* komponentli iboralarning "Koloristik frazeologiya"da tutgan o'rnnini siz qanday baholaysiz?
56. Oq rangning koloristik lingvistikada tutgan o'rnnini umumiylar tarzda tavsiiflang.
57. Tilda paremiologik birliklarning tutgan o'rni qaysi omillar orqali namoyon bo'ladi?
58. Tilshunoslarning maqol va matallar borasidagi qanday fikrlarini bilasiz?
59. Qofiya nima va uning qanday lisoniy shakllari mavjud?
60. Fransuzcha qofiyali maqollarning asosan qanday turlari keng tarqalgan?
61. Fransuzcha *tel pied* - *tel soulier* maqolining o'zbek tili bilan qiyoslaganda qanday differentsial va nodifferentsial xususiyatlari ko'zga tashlanadi?
62. Fransuz va o'zbek xalqining *qo'shnichilik* borasidagi qadriyatlarini qaysi maqollar orqali ko'rish mumkin?
63. Ikki xalq madaniyatining *qo'shnichilik* qadriyatları o'rtasida o'zaro qanday o'xshashliklar mavjud?
64. *Qo'shnichilik* qadriyatları ikkala xalq madaniyatida o'zaro qanday farq qiladi?
65. Fransuz va o'zbek xalqining *do'stlik* borasidagi qadriyatlarini qaysi maqollar orqali ko'rish mumkin?
66. Ikki xalq madaniyatining *do'stlikka* doir qadriyatları o'rtasida o'zaro qanday o'xshashliklar mavjud?
67. *Do'stlik* doirasidagi qadriyatlar ikkala xalq madaniyatida o'zaro qanday farq qiladi?
68. Maqol va matallarni bunday tarzda qiyosiy o'rganish natijasida tilni chuqurroq tadqiq qilishda qanday imkoniyatlar paydo bo'lishi mumkin?
69. *Konsept* tushunchasini shaxsiy fikringiz asosida qanday izohlaysiz?
70. Tilshunoslarning *konsept* borasidagi fikrlarini umumlashtirgan holda qanday tahliliy munosabat bildira olasiz?
71. Fransuz tili frazeologiyasida *oila* konseptini aks ettiruvchi asosiy model qaysi leksik birliklarni o'z ichiga oladi?
72. Fransuz tilidagi *famille* so'zining lug'aviy ma'nolari qanday tushuchalardan iborat?

73. Fransuz tilidagi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarning frazeologik ma'nolari qanday tushuchalarni o'z ichiga oladi?
74. Fransuz tilidagi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarda *oila* tushunchasidan tashqari yana qanday ma'nolarni ifodalaydi?
75. Fransuz frazeologiyasida *famille* so'zidan tashqari yana qanday komponentlar ishtirokidagi iboralarda *oila* tushunchasi aks etadi?
76. Fransuz tilidagi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarning umumiy struktur xususiyatlari nimalardan iborat?
77. *Oila* konseptini tashkil etuvchi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarni kognitiv nuqtayi nazardan qanday mikrokonseptlarga ajratish mumkin?
78. I.A.Sternin ta'rifiga ko'ra *oila* konseptiga xos mikrokonseptlarni qanday turkumlarga ajratish mumkin?
79. Fransuzcha *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarda ota, ona va farzandning o'ziga xos qaysi xususiyatlari namoyon bo'ladi?
80. *Oila* konseptini tashkil etuvchi *famille* so'zi ishtirokidagi iboralarga xos mikrokonseptlarning qaysi biri dominantlik qila oladi va nima uchun?
81. "Oila" konseptiga doir tushunchalarni tahlil qilishda qanday omillarga e'tibor qilish lozim?
82. Fransuz tili lug'atlaridagi *famille* so'ziga berilgan turfa lug'aviy xususiyatlarni sanab o'ting.
83. Fransuzcha *famille* so'zining birikmalar tarkibidagi qanday grammatik xususiyatlarini bilasiz?
84. Aynan *oila* tushunchasi asosida hosil bo'lgan *famille* komponentli qanday fransuzcha iboralarni bilasiz va ularning o'zbek tilidagi muqobilari bormi?
85. "Oila" konsepti doirasidagi frazeologik birliklarning qanday struktur xususiyatlari mavjud?
86. Okkazional xususiyatlarning mavjudligi qay hollarda aks etadi?
87. "Oila" tushunchasi asosidagi frazeologik iboralarning milliy-madaniy mohiyatida o'zbek va fransuz xalqlari o'rtasida qanday tafovvutlar mavjud?
88. *Ota* va *ona* mikrokonseptlari o'rtasida qanday farqlar mavjud?
89. *Ota-ona* va *farzand* mikrokonseptlari o'rtasida qanday farqlar mavjud?
90. *Butun oila* va *oiladan tashqari oila* mikrokonseptlari o'rtasida qanday farqlar mavjud?
91. *Famille* leksemasining "Oila" konsepti doirasida aniqlangan lug'aviy va frazeologik aspektlariga umumiy tavsif bering.
92. Tilshunoslikda "reduplikatsiya" hodisasining mohiyati nimadan iborat?
93. Takroriylik til birliklarining qaysi turlarida namoyon bo'ladi?
94. Reduplikatsiya hodisasining tilda qanday shakllari mavjud?
95. Reduplikatsiya turlarining o'zaro farq qiluvchi xususiyatlari nimalardan iborat?
96. Frazeologiyada takroriy elementlarni modellashtirish masalasini qaysi tilshunos tadqiq qilgan?

97. Fransuz frazeologiyasida reduplikatsiya turlari so'z turkumlari kesimida qanday taqsimlangan?
98. Grammatik moslashuv hodisasi reduplikatsiyaning qaysi turida juda keng tarqalgan?
99. Fransuz frazeologiyasidagi predloglar reduplikatsiyasi asosan, qanday takroriylikni hosil qiladi?
100. *Kognitiv tilshunoslik* va unda *konsept* tushunchasining tutgan o'rnini qanday izohlaysiz?
101. Tilshunoslар, konseptni ta'riflashda asosan qanday mezonlarga asoslanadilar?
102. Konsept borasida sizning shaxsiy tushunchangiz qanday?

## GLOSSARIY

<b>1. aktualizatsion vositalar</b>	Til elementlari potensial xususiyatlarini nutqda faollashtiruvchi vositalar.
<b>2. alliteratsiya</b>	Misralar va undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi.
<b>3. analitik qurilish</b>	Grammatik ma'nolar so'z shakllari vositasida emas, balki yordamchi so'zlar, so'z tartibi, ohang yordamida ifodalananadigan til qurilishi.
<b>4. antiteza</b>	Yunoncha <i>qarama-qarshi</i> <i>qo'yish</i> degani. Qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi <i>qo'yishdan</i> iborat uslubiy qo'llanishdir. Masalan: <i>yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar. Do'st bo'lish oson, uni saqlash qiyin.</i>
<b>5. antonimlar</b>	Yunoncha <i>anti - qarshi, zid, onyma - nom</i> bo'lib, o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari. Leksik antonimlar: <i>yaxshi - yomon, uzun - kalta, cho'ziq - qisqa, qora - oq, chiroylı - xunuk</i> . Grammatik antonimlar: <i>-li - -siz, -ishli - ishsiz</i> . Frazeologik antonimlar: <i>ko'ngli ochiq - ko'ngli qora, esiga kelmoq - yodidan ko'tarilmoq</i> .
<b>6. assonans</b>	Fransuzcha <i>assonance</i> — <i>ohangdoshlik</i> . Aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik.
<b>7. avtoritar ma'no</b>	Yo'l boshchiga bo'ysinish va unga ergashish ma'nosи.
<b>8. dinamik xususiyat</b>	Harakatga oid xususiyatlar.
<b>9. epiforik qofiya</b>	Qofyaning she'riy tarzda amalga oshadigan shakli epiforik qofiyadir.
<b>10. etnolog</b>	Turli xalq, millat va elatlar tarixi, madaniyati va kelib chiqishi kabilalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.
<b>11. frazeologik sistema</b>	tilning faqat frazeologik birliklardan, ya'ni turg'un birikmalar, maqol va matallardan iborat tuzilmasi.
<b>12. gradatsion xususiyatlar</b>	Pastdan yuqoriga qarab o'sib boruvchi darajalanish xususiyati. Lotincha <i>gradatio</i> — <i>asta-sekin yuksalish, gradus — pog'ona, daraja</i> degan ma'noni anglatadi.
<b>13. grammatik ma'no</b>	So'zning biror bir so'z turkumiga xos belgisi, so'z birikmasi va gapdagi vazifasini ko'rsatuvchi xususiyati <i>grammatik ma'no</i> deyiladi. Demak, so'zning morfologik va sintaktik xususiyati uning

	grammatik ma'nosini tashkil etadi.
14. <i>grammatik shakllar</i>	Grammatik vosita bildiruvchi, grammatik ma'no ifodalovchi til shakli.
15. <i>iboralar paradigmasi</i>	Ma'lum bir turdag'i o'xshash iboralar majmui.
16. <i>idioma</i>	(yun. <i>Idioma</i> — <i>xususiyat, o'ziga xoslik</i> ) — frazeologizmlar turi; muayyan bir tilga xos bo'lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo'lmaydigan nutq birligi yoki iboralardir.
17. <i>kategorial ma'no</i>	Ma'lum bir so'z turkumidagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'no. Masalan, otlarga xos bo'lgan umumiy kategorial ma'no - <i>predmetlik</i> ma'nosи; fe'llarga xos bo'lgan umumiy kategorial ma'no - <i>harakat</i> ma'nosи kategorial ma'nolardir.
18. <i>kognitiv xususiyat</i>	Inson ongi va tafakkuri bilan bog'liq faoliyatga doir xususiyatlar.
19. <i>kommunikativ xususiyat</i>	Muloqotga doir va nutqiy aloqa vazifasiga doir xususiyatlar.
20. <i>komponent</i>	Biron til (nutq) birligining tarkibiy qismi: So'z birikmasining komponentlari. Qo'shma so'zning komponentlari. Masalan, <i>courir vite</i> iborasidagi <i>courir</i> va <i>vite</i> shu iboraning komponentlari, ya'ni tarkibiy qismlari hisoblanadi.
21. <i>konsept</i>	U o'ziga xos tushuncha sifatida kishilarning ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi va inson tafakkuri bilan bog'liq bilimlar majmui bo'lib, madaniyat va inson o'rtaсидаги aloqa о'rnatuvchi elementdir.
22. <i>koordinativ aloqa</i>	Sintaktik aloqa turlaridan biri bo'lib, til birliklari o'rtaсидаги bog'li aloqa.
23. <i>kognitiv tilshunoslik</i>	Dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan.
24. <i>leksema</i>	(yun. <i>lexis</i> — <i>so'z, ifoda</i> ) — til qurilishining leksik ma'no anglatuvchi lug'aviy birligi. Leksema bildiradigan ma'no so'zning material qismidir.
25. <i>leksik ma'no</i>	So'z anglatadigan ma'no bo'lib, u kishi ongida yuzaga keladigan mazmuniy tushuncha, u boshqacha qilib "lug'aviy ma'no" deb nomlanishi ham mumkin. Masalan, « <i>Bolalarni o'ynatdik</i> » gapidagi birinchi so'z hali yosh, voyaga etmagan odamni, go'dakni, ikkinchi so'z esa harakatni (bola bilan bog'langan harakatni) bildiradi. Demak, « <i>bola</i> » va « <i>o'yna</i> » so'zlaridan ifodalanadigan mazkur konkret ma'nolar shu

	so'zlarning leksik ma'nolaridir.
26. Leksik sistema	Tilning faqat leksik birliklardan, ya'ni har qanday so'z va so'z birikmalaridan iborat tuzilmasi.
27. leksik-semantik sath	Tilning 3ta sathi mavjud bo'lib, ular <i>fonetik, leksik-semantik</i> va <i>sintaktik</i> sathni o'z ichiga oladi. <i>Leksik-semantik sath</i> uning ikkinchi sathidir, ya'ni leksema, so'z birikmasi va frazeologik birliklarni qamrab olgan til sathi sanaladi.
28. lingvistik hodisa	Til doirasida sodir bo'ladigan har qanday jarayon, holat, xususiyat va boshqalar o'ziga xos lisoniy hodisadir.
29. lingvodidaktik xususiyat	<i>Lingvodidaktika</i> lotincha " <i>lingua</i> "-til va yunoncha " <i>didaktikos</i> "-o'rgatish so'zlaridan olingan bo'lib, til o'qitishning umumiylari nazariyasi bilan bog'liq xususiyatlar .
30. lingvokognitiv xususiyatlar	Til va tafakkurning bog'liqligi natijasida sodir bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar.
31. lingvomadaniy xususiyat	Madaniy hodisalarning lingvistik vositalar yordamida faollashuviga, ya'ni til va madaniyatning o'zaro aloqasi orqali hosil bo'lgan faoliyat turiga doir xususiyatlar.
32. lingvomadaniyatshunoslik fani	Tilni madaniyat bilan qorishiq holda o'rganish natijasida paydo bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik fanidir.
33. lingvo-pragmatik xususiyatlar	Muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalariga doir xususiyatlar.
34. lisoniy qobiliyat	Kishilarning tildan foydalanish qobiliyati <i>lisoniy qobiliyatdir</i> .
35. lisoniy ma'no kategoriyasi	Til birliklari ifodalaydigan ma'no, tushuncha.
36. ma'no ottenkalari	Ma'lum bir ma'noning semantik jihatdan xilmalligi.
37. maqollar nomenklaturasi	Ma'lum bir turdag'i maqollar tarkibi, soni, ro'yxati kabilarning bir tizimdagi nomma-nom guruhi.
38. maxsus model	Biron bir hodisaga mos keluvchi shakliy (formal) namuna.
39. mental hodisa	Ong, tafakkur va aqliy qobiliyat bilan bog'liq hodisa.
40. mikrokonseptual tushunchalar	Umumiylari konseptni tashkil etadigan ichki konseptlar, ya'ni konseptosti tushunchalar, ular inson tafakkuri bilan bog'liq ma'lum turdag'i

	bilimlar majmuini tashkil etuvchi tor doiradagi tushunchalardir.
<i>41. milliy kolorit</i>	Ma'lum bir millatning o'ziga xos rang-barangligi.
<i>42. modellashtirish</i>	Ma'lum bir til birliklarini bir xillik va o'xshashlik xususiyatlarini umumlashtirish uchun foydalaniladigan qoliplash jarayoni.
<i>43. obrazlilik</i>	Ifodalilik, ta'sirchanlik, muayyan obrazga asoslanish.
<i>44.nofrazeologik birliklar</i>	Frazeologik birlikning aksi, ya'ni erkin so'z birikmasi.
<i>45. okkazional xususiyatlar</i>	G'ayri me'yoriy holatlar, masalan, grammatik qoidalarga xilof holatlar.
<i>46. okkazionallik</i>	Xususiy kontekstlarda uchraydigan noodatiylik yoki g'ayrime'yoriylik.
<i>47. paremiologik birlik</i>	Frazeologiya fanining maxsus bo'limi hisoblangan "Paremiologiya"ning birliklari, ya'ni <i>maqol, matal va aforizmlar</i> paremiologik birliklar sanaladi.
<i>48. patronimlar</i>	Shaxs nomlari, ya'ni antroponimlarning bir ko'rinishi.
<i>49. pragmatik xususiyat</i>	Insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi va muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'luvchi nutqiy jarayon bilan bog'liq xususiyat.
<i>50. qofiyadosh maqollar</i>	Maqollar tarkibida ma'lum bir elementning, ya'ni tovush, bo'g'in yoki so'zlarning bir-birlariga bo'lgan ohangdorligi asosida hosil bo'lgan maqollar.
<i>51. referent</i>	Lotincha <i>referens - xabar beruvchi</i> so'zidan olingan bo'lib, til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti bo'lib hisoblanadi.
<i>52. semantik qamrov</i>	Ma'lum bir ma'no qo'llaniladigan semantik doira va uning komponentlari tarkibi.
<i>53. shakl va ma'no</i>	Falsafiy tushunchalar bo'lib, <i>ma'no</i> – o'z mohiyatiga ko'ra, shaklga nisbatan yetakchi o'rin tutadi, <i>shakl esa</i> – aksincha, ma'noni ifodalaydi. <i>Shakl</i> ma'noga mos kelishi lozim, mos kelmasa ular o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Borliqdagi har bir narsa o'zining ma'nosini va shakl birligi tufayli mavjud.
<i>54. simmetrik qarama-qarshilik</i>	<i>Simmetriya</i> - matematik termin hisoblanib, unda <i>simmetriya o'qi</i> va uning ikkala tomoni ham aynan bir xil bo'lishini anglatadi.
<i>55. sintagma</i>	Nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik-sintaktik birligi bo'lib, u bir yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi,

	hatto gapga teng bo'lishi mumkin.
56. <i>sintaktik birlik</i>	sintaksisning o'rganish obyekti bo'lgan birlik, ya'ni so'z birikmasi va gap.
57. <i>sintetik qurilish</i>	Grammatik ma'nolar shakl yasovchi affikslar yordamida ifodalananadigan til qurilishi.
58. <i>son oppozitsiyasi</i>	Ma'lum bir obyektlarning son, ya'ni miqdor jihatdan qarama-qarshiligi.
59. <i>sotsiolingvistik birliklar</i>	<i>Sotsiologiya</i> va <i>tilshunoslik</i> sohalarining tutash nuqtasida paydo bo'lgan, ya'ni ijtimoiy belgilarni aks ettiruvchi til birliklari.
60. <i>stativlik xususiyati</i>	Holatga oid xususiyatlar.
61. <i>subordinativ aloqa</i>	Sintaktik aloqa turlaridan biri bo'lib, til birliklari o'rtaсидagi tobe aloqa.
62. <i>substitutsiya</i>	Ma'lum bir element o'rniga boshqa elementning almashinish holati.
63. <i>tafakkur faoliyati</i>	Kishilar aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning inson ongida aks etish jarayoni. <i>Tafakkur</i> atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli.
64. <i>takroriylik xususiyati</i>	Ushbu o'rinda takroriylik xususiyati deganda, <i>tavtologiya</i> hodisasi emas, balki, aksariyat hollarda qofiyadoshlik bilan yonma-yon sodir bo'ladigan til hodisasi, ya'ni ma'lum bir til birliklarining takrorlanib kelishi tushuniladi.
65. <i>talqin qilish</i>	Aynan tarjima qilish emas, balki, mazmunni izohli tarzda tushuntirishdir.
66. <i>tilning borliqdagi in'ikosi</i>	Tilning tevarak-atrofimizda o'rab turgan borliqdagi aksi.
67. <i>variantlanish</i>	Frazeologizmlarning variantlanishi ularning komponentlari almashtirilishi (substitutsiya qilinishi), qo'shilishi, tushirib qoldirilishi va transformatsiya qilinishi bilan bog'liq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **1. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -176 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил, 20 сентябрь

### **2. Monografiyalar:**

1. Bacry P. Les Figures de style et autres procédés stylistiques. -Paris, Belin,coll.« Sujets », 1992,-P.74.
2. Chomsky N. Reflections on Language. -New-York: Pantheon, 1975. -P. 4. / -269 p.
3. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. -Tübingen: Niemeyer, 1997. – S. 7-15
4. Gross G. Les expressions figées en français: noms composés et autres locutions / Gaston Gross. — Paris: Ophrys, 1996. — 124 p.
5. Suvanova N.N. Fransuz tili frazeologiyasining semantik-kognitiv va lingvoadaniy tavsifi. Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 149 bet.
6. Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка. Культурные концепты. – М.: Наука, 1991. -204 с.
7. Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке: Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов н/Д: Изд-во Ростов. ун-та, 1964. –260 с.
8. Асколдов С.А. Мысль и действительность.–М.: Путь, 1914. – 388 с.
9. Бушуй А. Язык и действительность. – Ташкент: Фан, 2005. – 144с.
10. Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. — Москва: ОАО ИГ «Прогресс», 2000. - 400 с. [www.mnogobook.ru](http://www.mnogobook.ru)
11. Виноградов В.В. Русский язык –М.:ВШ., 1972. – 614 с.
12. Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII- XIX веков. – М., 1982. – 528 с.
13. Лихачев Д.С. «Концептосфера русского языка»  
[https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Literat/lihach/koncept.pdf](https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Literat/lihach/koncept.pdf)
14. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка – М.: ВШ, 1976. -288 с.
15. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах:Сангзор, 2006. –92 б.
16. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.
17. Сафаров Ш. Семантика. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2013. -344 б.

18. Серов Н.В. Цвет культуры :психология, культурология, физиология. – Санкт -Петербург:Речь, 2003.-672 с.
19. Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва: Шк. Языки рус. Культуры. 1996. –284 с.
20. Штейнберг Н.М. Редупликация в современном французском языке. - Ленинград : Изд. Ленингр. ун-та, 1969. – 79 с.

### **3. Avtoreferatlar:**

1. Гатауллина Л. Р. Роль цветообозначений в концептуализации мира: на материале фразеологизмов английского, немецкого, французского, русского и татарского языков. Автореф. диссер. кан. филол. Наук. – Уфа, 2005. –24 с.
2. Комаров Е. «Ценностные ориентиры в заголовках французских и российских средств массовой информации» <https://www.dissercat.com/content/tsennostnye-orientiry-v-zagolovk>

### **4.Ilmiy maqolalar:**

1. Ashurov S.S., Suvonova N.N. Linguistic, Psychological and Theological Interpretation of “White” Colour (in the example of the French and Uzbek languages)// Journal of Positive School Psychology, -2022. P.-9550-9560-9550-9560
2. Ashurov, S., & Suvonova, N. (2023). Humorous phraseologisms-as a tool of funny assessment of real events (in French material). In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 10024). EDP Sciences.
3. Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi. // Хорижий филология №4, 2020.- В. 129 -136 [Электрон ресурс: http://samxorfil.uz / maqola / arxiv ]
4. Pecman M. L'enjeu de la classification en phraseologie // Actes du congres EUROPHRAS , 2004. - Baltmannsweiler : Schneider Hohengehren Verlag, - P. 127-146.
5. Suvonova N.N. Adaptation of the principles of nomination of lexical and phraseological antonyms in language (on the example of French) //Derivative laws of language development: Proceedings of the Republican ...2009.
6. Suvonova, N.N. Adaptation of the principles of nomination of lexical and phraseological antonyms in language (on the example of French). /In Derivative laws of language development: Proceedings of the Republican scientific-theoretical conference.-Samarkand (pp. 163-167).
7. Suvonova N.N. Ҳозирги замон француз тилидаги икки хил графикали сўзлар хусусида //Молодой ученый,-2020. С.-592-597
8. Suvonova N., Dolieva L. Fransuzcha onomatopik fe'llar ishtirokidagi iboralarda inson ruhiyati tasviri. (DESCRIPTION OF HUMAN SPIRITUALITY IN THE PHRASEOLOGICAL UNITS WITH FRENCH ONOMATOPOEIC VERBS) // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in

Uzbekistan", 2020, No 2 (31), 65-79 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215

9. Suvonova N., Islamova O. LEKSIK VA FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA HODISASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (fransuz tili materialida) / Сўз санъати халқаро журнали, 2021, 4-жилд, 5-сон. -Б.128-135.
10. Ашуррова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б. 11-17.
11. Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – №4. –С. 76-83.
12. Долиева Л. Эмотив фразеологизмлар - ҳиссиётлар инъикоси (француз тили материала) // Хорижий лингвистика ва лингводидактика.. 2023, № 2. – Б. 22-30
13. Долиева Л. Psychophysiological Factors, Particular to Somatic Phraseologisms as The Objects of Emotive Description (in french material) //Международный журнал языка, образования, перевода 3 (1).-2022.-Б.39-54.
14. Долиева Л.Б. Вербал фразеологизмларда эйфорик эмоциялар хусусиятларига доир//Finland" Modern scientific research: topical issues, achievements and innovations . 2023. №5 "<https://www.intereuroconf.com/index.php/MSRTIAI/article/view/707>
15. Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистике и семантике термина "когнитивный" // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. – С.90-99.
16. Кунин А.В. Фразеологический уровень языка // Уровни языка и их взаимодействие. – М., 1967. –С.90-97.
17. Мақсадова Н. Халқ мақолларида ўзбек миллий қиёфаси // Молодой учёный. -2020.-№ 19 (309). – С. 572-576.
18. Молчкова Л.В. Модели повтора во фразеологии // Актуальные вопросы современной науки (Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение»), №28.– Новосибирск, 2013. –С. 194-202. eLIBRARY ID: [20273065](#)
19. Муқумов Т. Б., Исламова О. Г. Кофиядош мақолларда миллий-маданий тушунчалар уйғунылиги (француз ва ўзбек тиллари мисолида).//Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2021. — № 1(36). — Б. 103-113. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, <https://journal.fledu.uz>
20. Панков Ф.И., Овтина Е.А. Языковая картина мира и механизм редупликации: фрагмент лингводидактической модели русской грамматики./ Pedagogical Journal. 2018, Vol. 8. Is. 1A. – С. 140-149.

21. Стернин М.А. Методика исследования структуры концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. -Воронеж, 2001. -С.58-65.
22. Сувонова Н. Некоторые референциальные свойства лексем, относящихся к предметам домашнего обихода во фразеологии (на материале французского и узбекского языков). // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 1, 4 (июл. 2023), 35-41. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp35-41>.
23. Сувонова Н. Frazeologiyada ro'zg'or buyumlari leksemasining ayrim referensiallik xususiyatlariga doir (fransuz va o'zbek tili materialida) //Зарубежная лингвистика и лингводидактика.-2023.-Т. 1. -№. 4. -С. 35
24. Сувонова Н. Некоторые соображения о феномене редупликации во французской фразеологии //Иностранная филология: язык, литература, образование, -2020. С.-23-28.
25. Сувонова Н.Н. Leksik va frazeologik antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlari (fransuz tili materialida) //Международный журнал искусство слова 4 (5).-2021.
26. Сувонова Н.Н. Некоторые проблемы перевода узбекских пословиц на французского языка// Ученый XXI века, 2016. С.-46
27. Сувонова Н.Н., Пулатова Н. А. Новая перспектива-личностно-деятельный подход и его дидактическая сторона //Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века. – 2018. – С. 209-212.
28. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари. / Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 3(32),192-205  
<https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2020/08/ozbek-halk-makollarini-francuz-tiliga-tarzhima-kilishning-millij-hususiyatlari.pdf>
29. Сувонова Н., Долиева Л. Французча ономатопик феъллар иштироқидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири. // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 2 (31), 65-79 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215
30. Тираспольский Г.И. Система языка и системность в языке//филологические науки. М., 1999, №6, -С. 37-48 .
31. Юсупова М., Сувонова Н.Н. К проблеме содержания термина «сценарий/скрипт» в когнитивной лингвистике. // Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века. – 2018. – С. 74-77.
32. Цоллер В.Н. Эмоционально-оценочная энантиосемия фразеологизмов // Филологические науки. - №4. – М.,2000.- С. 56-67.

### **5. Leksikografik manbalar:**

21. Dictionnaire de l'Académie française. <https://www.dicocitations.com/dico-mot-definition/60216/famille>

22. Dictionnaire français-ouzbek. - Tashkent: IFEAC, 2008. - 587 p. [www.ziyouz.com kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
23. Doliyeva L.B. Fransuzcha emotiv frazeologizmlarning etimologik lug'ati. Samarqand: SamDCHTI, 2023. - 94 b.
24. Giraud P. Les locutions françaises. - Paris, 1961.-P 349. / -660 p.
25. Le Robert (Dico en ligne)<https://dictionnaire.lerobert.com/definition/>
26. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 ortiq so'z va so'z birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. -B. 97.
27. Rat M. Dictionnaire des locutions françaises. - Paris, 1957 .-470 p.
28. Sylvie Blanchard, Dominique Korach, Jean Pencreach, Mériem Varone. Vocabulaire. -Paris : Editions Nathan 1995, - 298 p.
  
29. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: СЭ, 1969. -С. 407 / [https://classes.ru/Akhmanova/source\\_51.htm](https://classes.ru/Akhmanova/source_51.htm)
30. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. Пер. с фр. Н.Д. Андреева; под ред. А.А Реформатского ; предисл. В.А. Звегинцева. - Изд. 2-е, испр. - М. : УРСС, 2004.- С. 278 / - 436 с.
31. Розенталь Д.Е., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. - М., 1975.- 357 с.
32. Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-мatalлар луғати. - Тошкент: Ўқитувчи; 1993.-76 б.
33. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. / [www.ziyouz.com кутубхонаси](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
34. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. / [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.
35. Шведова Ю. Большая российская энциклопедия - электронная версия <https://bigenc.ru/linguistics/text/4691954>
36. Шомақсудов Ш., Шараҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. - 477 б.

## **6. Darslik va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdouchoukourova L.A. Stylistique du français modern. -Tachkent, 2004 . - 237 p.
2. Arrivé M., F. Gadet, M.Galmiche. La grammaire d'aujourd'hui. -Paris, 1986. - P. 66.
3. Grevisse M., Goosse A. Le Bon Usage. - Bruxelles : Duculot, 2007. - 529 p.
4. Mortureux M.F. La lexicologie entre langue et discours. Armand Collin VUEF, 2001. -P. 188.
5. Алехина А.И. Фразеологическая антонимия в современном английском языке. (Пособие для студентов и преподавателей языковых и неязыковых вузов). - Челябинск, 1968. - 43 с.

6. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. –М.: ВШ., 1986. –312 с.
7. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. –Тошкент: Наврўз, 2019.–187 б.
8. Ташмухамедова Д., Умаров Б. Ота - оила устуни. Илмий-услубий кўлланма. – Тошкент: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019. – 36 б
9. Хроленко А. Т. Основы лингвокультурологии. [Электрон ресурс] : учеб. пособие – Электрон. дан. – Москва : ФЛИНТА, 2016. URL: <https://e.lanbook.com/book/>

### **8.Badiiy adabiyotlar:**

1. Antoine de Saint-Exupéry. Le petit Prince. Edition du groupe « Ebooks libres et gratuits », - 107 p. <https://www.ebooksgratuits.com/>
2. Ergashev M., Niyozov I. Proverbes et Dictons d'Ouzbékistan, Paris: EDITIONS GEORAMA, 2006. - 96p.
3. Jules Verne. Les enfants du capitaine Grant. La Bibliothèque électronique du Québec / Collection À tous les vents . Volume 437 : version 2.1.
4. Lafontaine-fables. / [beq.ebooksgratuits.com](http://beq.ebooksgratuits.com)
5. SEMPÉ-GOSCINNY. LE PETIT NICOLAS. –Paris : Éditions Denoël, 1960.-64 p.
6. Psixologik ranglarning ma’nosи /<https://uz.tierient.com/>
7. Тафтазоний, Саъдуддин Масъуд ибн Умар. e-tarix.uz>shaxslar/483-taftazoniy.html
8. Ўзбек халқ мақоллари. -Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.- 512 б.
9. Цвет в античной культуре. Древняя Греция и Древний Рим. <http://cvet-psu.ru/tsvet-v-antichnoj-kulture-drevnyaya-grets>
10. Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. «Қуръони Карим» ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси.–Тошкент:«Шарқ»НМАК,2011.-640 б.

### **9.Internet saytlar:**

1. <http://evene.lefigaro.fr/citations/mot>.
2. <https://citation-proverbe-francais>.
3. [https://fr.wikisource.org/wiki/Cent\\_Proverbes/85](https://fr.wikisource.org/wiki/Cent_Proverbes/85)
4. <https://slovaronline.com/browse>
5. <https://www.dicocitations.com/citations/citation>
6. <https://www.lalanguefrancaise.com/expressions/>
7. <https://www.linternaute.fr/dictionnaire>

## M U N D A R I J A

<b>So'z boshi .....</b>	<b>3</b>
<b>MODUL - I. FRANSUZ FRAZEOLOGIYASINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASPEKTLARI.....</b>	<b>4</b>
<b>Mavzu-1. Frazeologiya va uning o'r ganish ob'ekti. Frazeologiyaning boshqa fanlar bilan bo'lgan aloqasi.....</b>	<b>4</b>
<b>Mavzu -2. Frazeologik birliklarni tahlil qilish usullari: leksik-grammatik tahlil tamoyillari (holat kategoriyasi misolida).....</b>	<b>20</b>
<b>Mavzu -3. Frazeologik birliklarni struktur jihatdan tahlil qilish tamoyillari (<i>faire+nom</i> strukturali iboralar misolida).....</b>	<b>31</b>
<b>MODUL-II. FRANSUZ FRAZEOLOGIYASINING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>41</b>
<b>Mavzu -4. Frazeologik birliklarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish tamoyillari: fransuz tilida frazeologik antonimiya hoidasi.....</b>	<b>41</b>
<b>Mavzu -5. Ma'lum bir leksik birliklar ishtirokidagi frazeologik iboralarning o'ziga xos xususiyatlari ("blanc" komponentli iboralar misolida).....</b>	<b>56</b>
<b>Mavzu -6. Fransuz frazeologiyasida maqol va matallarning o'ziga xos xususiyatlari (fransuzcha qofiyali maqollarning lingvomadaniy aspekti misolida).....</b>	<b>76</b>
<b>Mavzu -7. Konsept tushunchasi va uning kognitologiya fanida o'r ganilishi (fransuz frazeologiyasidagi <i>oila</i> konsepti misolida).....</b>	<b>93</b>
<b>Mavzu -8. Fransuz frazeologiyasida reduplikatsiya hoidasining ifodalanish usullari.....</b>	<b>118</b>
<b>O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar .....</b>	<b>130</b>
<b>Glossariy .....</b>	<b>135</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>140</b>

# О Г Л А В Л Е Н И Е

<b>Предисловие.....</b>	<b>3</b>
<b>МОДУЛЬ - I. ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФРАНЦУЗСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ.....</b>	<b>4</b>
<b>Тема-1.</b> Фразеология и ее объекты изучения. Связь фразеологии с другими науками.....	4
<b>Тема-2.</b> Методы анализа фразеологических единиц: принципы лексико-грамматического анализа (на примере категории <i>состояния</i> ).....	20
<b>Тема-3.</b> Принципы структурного анализа фразеологизмов (на примере структурных выражений <i>faire+nom</i> ).....	31
<b>МОДУЛЬ -II. КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАНЦУЗС-КОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ</b>	<b>41</b>
<b>Тема -4.</b> Принципы лексико-семантического анализа фразеологических единиц: явление фразеологической антонимии во французском языке.....	41
<b>Тема -5.</b> Особенности ФЕ с участием определенных лексических единиц (на примере фразеологических единиц с компонентом “ <i>blanc</i> ”) .....	56
<b>Тема - 6.</b> Особенности пословиц и поговорок во французской фразеологии (на примере лингвокультурного аспекта французских рифмованных пословиц).....	76
<b>Тема -7.</b> Понятие концепта и его изучение в когнитологии (на примере концепта <i>семья</i> во французской фразеологии).....	93
<b>Тема -8</b> Способы выражения явления редупликации во французской фразеологии .....	118
<b>Вопросы для самоконтроля .....</b>	<b>130</b>
<b>Глоссарий .....</b>	<b>135</b>
<b>Список использованной литературы .....</b>	<b>140</b>

## C O N T E N T

<b>Preface .....</b>	<b>3</b>
<b>MODULE-I. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECT OF FRENCH PHRASEOLOGY.....</b>	<b>4</b>
<b>Topic-1.</b> Phraseology and its object of study. The relationship of phraseology with other disciplines.....	4
<b>Topic-2.</b> Methods of analyzing phraseological units: principles of lexical and grammatical analysis (using the example of the category of condition).....	20
<b>Topic-3.</b> Principles of structural analysis of phraseological units. (on the example of <i>faire+nom</i> structured phrases).....	31
<b>MODULE-II. KOGNITIVE-SEMANTIC FEATURES OF FRENCH PHRASEOLOGY.....</b>	<b>41</b>
<b>Topic-4.</b> Principles of lexical and semantic analysis of phraseological units: the phenomenon of phraseological antonymy in the French language.....	41
<b>Topic-5.</b> Features of PhU with the participation of certain lexical units (using the example of phraseological units with the component “ <i>blanc</i> ”).....	56
<b>Topic-6.</b> Features of proverbs and sayings in French phraseology (using the example of the linguistic and cultural aspect of French rhymed proverbs).....	76
<b>Topic-7.</b> The idea of the concept and its study in cognitology (using the example of the concept of <i>family</i> in French phraseology).....	93
<b>Topic-9.</b> Ways of expressing the phenomenon of reduplication in French phraseology.....	118
<b>Questions for self-study .....</b>	<b>130</b>
<b>Glossary .....</b>	<b>135</b>
<b>List of used literature.....</b>	<b>140</b>

